



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK
VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASINING
QARORI**

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (_____-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____-son SanQvaN) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan 2015-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Oziq-ovqat qo‘shimchalarini ishlab chiqarish, muomala qilish va tartibga solishga qaratilgan gigiyenik talablar” (0296-15-sonli SanQvaN) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan.

4. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

**Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat
salomatligi qo‘mitasining raisi –
Bosh davlat sanitariya vrachi**

B. Yusupaliev

Toshkent sh.
2024-yil ____ - _____
_____-son

**Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg'alashga oid sanitariya
qoidalari, normalari va gigiyena normativlari
(_____-son SanQvaN)**

Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (bundan buyon matnda sanitariya qoidalari deb yuritiladi) oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga, shu jumladan oziq-ovqat qo'shimchalarini oziq-ovqat mahsulotlarida qo'llashga va oziq-ovqat mahsulotlariga boshqa manbalardan oziq-ovqat qo'shimchalarini o'tkazishga hamda tamg'alashga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Oziq-ovqat qo'shimchalarini muomalaga chiqarish hamda ularni oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat qo'shimchalari, oziq-ovqat xushbo'y hid beruvchilari, oziq-ovqat fermentlari va ozuqaviy moddalarda qo'llashda ular mazkur sanitariya qoidalarining **1-ilovasiga** muvofiq "Ruxsat etilgan oziq-ovqat qo'shimchalari ro'yxati"ga kiritilgandan hamda oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin ruxsat beriladi.

2. Ushbu sanitariya qoidalari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi (ulardan oziq-ovqat qo'shimchalari sifatida foydalanilgan hollar bundan mustasno):

- qayta ishlash uchun yordamchi materiallar;
- o'simliklarni himoya qilish vositalari sifatida foydalaniladigan moddalar;
- oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shiladigan ozuqaviy moddalar;
- ichimlik suviga ishlov berish uchun qo'llaniladigan moddalar;
- oziq-ovqat xushbo'y hid beruvchilar;
- oziq-ovqat fermentlari;

3. Quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari va moddalar oziq-ovqat qo'shimchalari sifatida tasniflanmaydi va ushbu sanitariya qoidalari ularga nisbatan tatbiq etilmaydi:

oziq-ovqat mahsulotlariga shirin ta'm berish uchun ishlatiladigan monosaxaridlar, disaxaridlar yoki oligosaxaridlar, shuningdek, tarkibida ushbu moddalar bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari;

quritilgan yoki konsentratsiyalangan shakldagi oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan ikkilamchi rang beruvchi ta'siri bilan birga xushbo'y, lazatli yoki ozuqaviy xususiyatlariga ko'ra ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'shilgan oziq-ovqat xushbo'y hid beruvchilar;

oziq-ovqat mahsulotlari uchun himoyalovchi va qoplovchi materiallarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan, ularning tarkibiy qismi bo'lmagan va ushbu oziq-ovqat mahsulotlari bilan birgalikda iste'mol qilish uchun mo'ljallanmagan moddalar;

tarkibida pektin bo‘lgan, suyultirilgan kislota va kelgusida natriy yoki kaliy tuzlari (suyuq pektin) yordamida qisman neytrallashtirish ta’sirida quritilgan olma kunjarasi yoki sitrus yoki behi po‘stlog‘idan, shuningdek ularning aralashmalaridan olingan oziq-ovqat mahsulotlari;

saqichlar uchun asoslar;

termik ishlov berilgan oq yoki sariq dekstrin yoki dekstrinli kraxmal, kislotali yoki ishqorli ishlov berish bilan modifikatsiyalangan kraxmal, tindirilgan kraxmal, fizik jihatdan modifikatsiyalangan kraxmal va amilolitik fermentlar bilan ishlov berilgan kraxmal;

ammoniy xloridi;

qon plazmasi, oziq-ovqat jelatini, oqsil gidrolizatlari va ularning tuzlari, sut oqsili va glyuten;

aminokislotalar va ularning tuzlari, glyutamik kislota, glitsin, sistein va sistin, shuningdek ularning oziq-ovqat mahsulotlarida texnologik funksiyalarni bajarmaydigan tuzlari;

kazeinatlar va kazein;

inulin.

4. Mazkur sanitariya qoidalarida quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

funksional sinf – oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatida oziq-ovqat mahsulotida bajaradigan texnologik funksiyaga muvofiq oziq-ovqat qo‘shimchalarining toifasi;

lazzatli xushbo‘y hid beruvchilar – kimyoviy sintez yo‘li bilan yoki o‘simlik, hayvonlardan olinadigan ma’lum kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan hid beruvchi moddalar;

oziq-ovqat qo‘shimchasi – odatda oziq-ovqat sifatida iste’mol qilinmaydigan va ozuqaviy qiymatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, oziq-ovqat mahsulotining o‘ziga xos tarkibiy qismi bo‘lmagan, oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish jarayonlarida belgilangan xossalarni berish va (yoki) saqlab qolish uchun texnologik maqsadlarda ataylab oziq-ovqatga qo‘shiladigan har qanday modda yoki aralashma (ifloslantiruvchilar) va oziq-ovqat mahsulotiga uning ozuqaviy qiymatini ta’minlash yoki oshirish uchun qo‘shilgan moddalar bundan mustasno);

past energetik qiymatga (kaloriyaga) ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti –muqaddam ega bo‘lgan tarkibiga yoki boshqa shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotiga nisbatan energetik qiymatga (kaloriyaga) kamida 30% ga kamaytirilgan oziq-ovqat mahsuloti; - matnda ishlatilmagan, chiqarib tashlash kerak

qo‘shimchadan maksimal foydalanish darajasi – oziq-ovqat mahsuloti yoki oziq-ovqat toifasidagi mahsulotlar tarkibida funksional jihatdan samarali deb hisoblanadigan va iste’mol qilish uchun xavfsiz deb tan olingan qo‘shimchanning eng yuqori konsentratsiyasi;- matnda ishlatilmagan, chiqarib tashlash kerak

ruxsat etilgan kunlik iste’mol miqdori – inson sog‘liqi uchun jiddiy xavf tug‘dirmagan holda butun umri davomida har kuni iste’mol qilinishi mumkin bo‘lgan, tana vaznining bir kilogrammiga nisbatan ifodalanadigan oziq-ovqat qo‘shimchasi miqdori;

shakar qo‘shilmagan oziq-ovqat mahsuloti – tarkibida monosaxaridlar yoki disaxaridlar bo‘lmagan yoxud tarkibida shirinlashtirish uchun ishlatiladigan monosaxaridlar yoki disaxaridlar mavjud bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti;

shirinlashtiruvchisi – ushbu sanitariya qoidalariga javob beradigan, tarkibida boshqa oziq-ovqat qo‘shimchalari va/yoki tarkibiy qismlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan, va shakar o‘rnini bosuvchi sifatida yakuniy iste’molchiga sotish uchun mo‘ljallangan vositalar;

sintetik lazzatli xushbo‘y hid beruvchilar – kimyoviy sintez natijasida olingan xushbo‘y hid beruvchi moddalar;

tabiiy lazzatli xushbo‘y hid beruvchilar - fizik jarayonlar, jumladan distillyatsiya va erituvchilar bilan ekstraksiyalash yoki fermentatsiya va mikrobiologik jarayonlar yordamida o‘simlik, hayvonlardan olinadigan lazzatli xushbo‘y lashtiruvchi moddalar;

xushbo‘y hid beruvchi – oziq-ovqatlarga ta‘m berish, ularning ta‘mini o‘zgartirish yoki kuchaytirish uchun qo‘shiladigan tarkibga ega lazzatli-xushbo‘y lashtiruvchi moddalar va bevosita oziq-ovqat sifatida iste‘mol qilish uchun mo‘ljallanmagan moddalar;

yetarli miqdor (quantum satis) prinsipi – moddadan zarur ishlab chiqarish amaliyotiga muvofiq belgilangan maqsadga erishish uchun kerakligidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ishlatilishi mumkinligini anglatadigan va iste‘molchini chalg‘itmaydigan maksimal miqdoriy qiymatni ko‘rsatmasdan foydalanish darajasi.

2-bob. Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga oid sanitariya-gigiyena talablari

5. Oziq-ovqat qo‘shimchalari ushbu sanitariya qoidalariga muvofiq foydalanish darajasi va shartlariga rioya qilgan holda inson tomonidan iste‘mol qilinishi uchun yaroqli bo‘lishi lozim.

6. Oziq-ovqat qo‘shimchalari bir xillik va soflik kabi o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim.

7. Oziq-ovqat qo‘shimchalari bajaradigan texnologik funksiyasiga qarab, mazkur sanitariya qoidalarining **2-ilovasiga** muvofiq funksional sinflarning biriga kiritilishi kerak.

Oziq-ovqat qo‘shimchalarini funksional sinflardan biriga kiritish undan bir nechta funksiyalarni bajarish uchun foydalanish imkoniyatini istisno qilmasligi lozim.

8. Oziq-ovqat qo‘shimchalari faqat asoslantirilgan va foydalanish uchun afzalliklarga ega bo‘lgan hollarda hamda iste‘molchilarning salomatligiga xavf tug‘dirmagan, iste‘molchini chalg‘itmaydigan va mazkur sanitariya qoidalarining **2-ilovasida** belgilangan bir yoki bir nechta funksional sinflarning maqsadlarida qo‘llanilishi, shuningdek, boshqa iqtisodiy va texnologik jihatdan amalga oshiriladigan usullar bilan erishish imkoni bo‘lmasa, ushbu bandda belgilangan bir yoki bir nechta maqsadlarga xizmat qilgan hollardagina qo‘llanilishi lozim:

oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy xususiyatlarini saqlab qolish;

alohida parhezga ehtiyojlari bo‘lgan iste‘molchilar guruhlari uchun ishlab chiqariladigan zarur oziq-ovqat mahsulotlari yoki tarkibiy qismlari bilan ta‘minlash;

iste‘molchini aldash maqsadida oziq-ovqat mahsulotining tabiati, tarkibi yoki sifatini o‘zgartirmagan holda oziq-ovqat mahsulotining saqlanuvchanligini yoki barqarorligini yaxshilash yoki uning organoleptik xususiyatlarini yaxshilash;

oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ishlov berish, tayyorlash, qayta ishlash, qadoqlash, tashish yoki saqlashda foydalanish, bundan oziq-ovqat qo‘shimchasi sifatsiz xomashyolarni ishlatish oqibatlarini yoki nojo‘ya harakatlarga, shu jumladan, antisanitariya faoliyat turlari va usullarni niqoblash uchun qo‘llash holatlari mustasno.

9. Oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymatini pasaytiradigan oziq-ovqat qo‘shimchasini quyidagi shartlarda qo‘llashga ruxsat etiladi:

oziq-ovqat mahsuloti oddiy ratsionning muhim tarkibiy qismi bo‘lmasa;

oziq-ovqat qo'shimchasidan maxsus parhezga ehtiyojlari bo'lgan iste'molchilar guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanilsa.

10. Oziq-ovqat qo'shimchalarini sterilizatsiyalash uchun etilen oksididan foydalanish taqiqlanadi. Oziq-ovqat qo'shimchalarida, shuningdek, ularning aralashmalarida, kelib chiqishidan qat'iy nazar, etilen oksidi miqdori (etilen oksidi sifatida ifodalangan etilen oksidi va 2-xloretanol yig'indisi) 0,1 mg/kg dan oshmasligi kerak.

11. Oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanish darajasi istalgan samaraga erishish uchun zarur bo'lgan eng past qiymatgacha belgilanishi lozim.

12. Oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanish darajalarini belgilashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

oziq-ovqat qo'shimchasining ruxsat etilgan kunlik iste'mol miqdori yoki oziq-ovqat qo'shimchasi uchun belgilangan ekvivalent bahosi hamda uning barcha mumkin bo'lgan manbalardan ehtimoliy kunlik iste'moli;

oziq-ovqat qo'shimchasidan alohida parhezga muhtoj bo'lgan iste'molchilar guruhlari tomonidan iste'mol qilish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shish uchun foydalannilganda, bunday guruhlar iste'molchilari uchun ruxsat etilgan kunlik iste'mol miqdori.

13. Agar oziq-ovqat qo'shimchasidan foydalanish darajasining maksimal miqdoriy qiymati belgilanmagan bo'lsa, oziq-ovqat qo'shimchasidan yetarli miqdor (quantum satis) prinsipiga muvofiq foydalanilishi lozim.

14. Oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanishning ruxsat etilgan darajalari mazkur sanitariya qoidalarining **3-ilovasiga** muvofiq bo'lishi lozim.

15. Mazkur sanitariya qoidalarining **3-ilovasida** qayd etilgan oziq-ovqat qo'shimchalari mazkur sanitariya qoidalarining **4-ilovasiga** muvofiq ular qo'shilishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining toifalari asosida ko'rsatilishi kerak.

Bunda quyidagilar inobatga olinadi:

oziq-ovqat mahsulotlarining toifalari tizimi va tegishli kodlar faqat ushbu sanitariya qoidalarining maqsadlari uchun qo'llanilishi va oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanish shartlarini belgilash vositasi hisoblanishi;

oziq-ovqat mahsulotlarining toifalari tizimi ierarxikligi, bunda agar oziq-ovqat qo'shimchasidan umumiy toifada foydalanishga ruxsat etilgan bo'lsa, u holda undan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha kichik toifalarida, shuningdek o'zining kichik va katta toifalariga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlarining alohida turlarida foydalanish uchun qabul qilinishi;

oziq-ovqat mahsulotlari toifalari tizimida mazkur sanitariya qoidalarining **4-bobiga** muvofiq oziq-ovqat qo'shimchalarini boshqa manbalardan, shu jumladan xom ashyo, tarkibiy qismlar, oziq-ovqat qo'shimchalari, fermentlari va oziq-ovqat xushbo'ylashtiruvchi moddalaridan tarkibiy mahsulotga o'tkazish tamoyilining hisobga olinishi.

16. Oziq-ovqat mahsulotlarida oziq-ovqat qo'shimchasidan foydalanishning maksimal darajasi ushbu mahsulotlar yakuniy iste'molchiga taklif etiladigan ko'rinishda mazkur sanitariya qoidalarining **17-bandida** belgilangan talabni inobatga olgan holda belgilanadi.

17. Qayta tiklashni talab qiladigan quritilgan va/yoki konsentrlangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun oziq-ovqat qo'shimchasidan foydalanishning maksimal darajasi ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasiga muvofiq, minimal suyultirish koeffitsientini hisobga olgan holda qayta tiklangan holatdagi oziq-ovqat mahsulotiga nisbatan belgilanadi.

18. Bo‘yoqlardan foydalanishning maksimal darajasi, boshqacha tartib ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bo‘yoq preparati tarkibidagi rang beruvchi moddaning miqdoriga nisbatan qo‘llanilishi lozim.

19. Oziq-ovqat bo‘yog‘i funksional sinfiga mansub oziq-ovqat qo‘shimchasini mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasidagi “Ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari ro‘yxati”ga kiritishga mazkur sanitariya qoidalarining **8-bandida** qayd etilgan maqsadlardan tashqari quyidagi maqsadlarning biriga xizmat qilganda yo‘l qo‘yiladi:

rangiga ishlov berish, saqlash, qadoqlash va tarqatish natijasida vizual ko‘rinishi yomonlashgan oziq-ovqat mahsulotlarining dastlabki tashqi ko‘rinishini tiklash;

oziq-ovqat mahsulotiga ko‘rinish jihatidan yanada yoqimli (chiroyli) ko‘rinish berish;

oziq-ovqat mahsulotiga rang berish.

20. Shirinlashtiruvchilar funksional sinfiga mansub oziq-ovqat qo‘shimchasini mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasidagi “Ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari ro‘yxati”ga kiritishga mazkur sanitariya qoidalarining **8-bandida** qayd etilgan maqsadlardan tashqari quyidagi maqsadlarning biriga xizmat qilganda yo‘l qo‘yiladi:

past energetik qiymatga (kaloriyaga) ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti, kariyesga olib kelmaydigan yoki shakar qo‘shilmagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun shakarni almashtirish;

oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash muddatini oshirish imkonini berish maqsadida shakarni almashtirish;

maxsus tibbiy oziq-ovqatlar uchun mo‘ljallangan mahsulotlarini ishlab chiqarish.

3-bob. Oziq-ovqat qo‘shimchalarini oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llashga oid sanitariya-gigiyena talablari

21. Oziq-ovqat qo‘shimchalarini oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llashga ularning o‘ziga xos xususiyatlariga (spesifikasiyasi) va mazkur sanitariya qoidalarining **4-ilovasidagi** oziq-ovqat mahsuloti toifalariga asosan qo‘llash shartlariga muvofiq ruxsat beriladi.

22. Quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari toifalariga oziq-ovqat qo‘shimchalarini kiritish mumkin emas:

qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari;

yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va emizikli bolalar uchun sut aralashmalari, maxsus shifobaxsh sut aralashmalari;

chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun qo‘shimcha ovqatlar.

23. Oziq-ovqat qo‘shimchalarining ayrim funksional sinflaridan yoki alohida ba’zi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan bir qator an’anaviy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish taqiqlanadi.

24. Bevosita oziq-ovqat mahsulotlariga tamg‘alash belgilarini, shu jumladan go‘sht mahsuloti uchun majburiy bo‘lgan tamg‘alash belgilarini, shuningdek tuxum po‘stlog‘ini, boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini muhrlash va dekorativ bo‘yash uchun faqat mazkur sanitariya qoidalarining **1-ilovasidagi** ro‘yxatga kiritilgan va oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tgan oziq-ovqat bo‘yoqlarini qo‘llanilishiga ruxsat beriladi.

25. Oziq-ovqat qo'shimchalarining yaroqlilik muddati ishlatiladigan xomashyo va tarkibiy qismlarning yaroqlilik muddatidan ortiq bo'lmasligi kerak.

4-bob. Oziq-ovqat mahsulotlariga boshqa manbalardan oziq-ovqat qo'shimchalarini o'tkazishga oid sanitariya-gigiyena talablari

26. Oziq-ovqat qo'shimchasini oziq-ovqat mahsuloti tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shishdan tashqari, boshqa manbalardan, jumladan, xom ashyo, tarkibiy qismlar, boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari, oziq-ovqat fermentlari va oziq-ovqat xushbo'ylashtiruvchi moddalaridan o'tkazilishi natijasida mavjud bo'lishiga yo'l qo'yiladi (mazkur sanitariya qoidalarining **5-ilovasida** ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno).

27. Quyidagilarning tarkibida oziq-ovqat qo'shimchasini bo'lishiga ruxsat beriladi:

ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlarida, ushbu sanitariya qoidalarining **22-bandida** ko'rsatilganlar bundan mustasno, agar oziq-ovqat qo'shimchasi ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotini tarkibiy qismlarining birida ruxsat etilgan bo'lsa;

oziq-ovqat qo'shimchasi, oziq-ovqat fermenti yoki oziq-ovqat xushbo'lashtirgichi qo'shilgan oziq-ovqat mahsulotida, agar oziq-ovqat qo'shimchasi:

ushbu sanitariya qoidalariga muvofiq oziq-ovqat qo'shimchalari, oziq-ovqat fermenti yoki oziq-ovqat xushbo'ylashtirgichining bir qismi sifatida ruxsat etilgan bo'lsa;

unga oziq-ovqat qo'shimchasi, oziq-ovqat fermenti yoki oziq-ovqat xushbo'ylashtirgichi qo'shilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotiga o'tkazilgan bo'lsa;

tayyor oziq-ovqat mahsuloti texnologik funksiyaga ega bo'lmasa;

faqat ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotida va bunday ko'p komponentli oziq-ovqat mahsuloti ushbu sanitariya qoidalariga muvofiq bo'lishi sharti bilan.

28. Mazkur sanitariya qoidalarining **27-bandi** qoidalari, bolalar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo'llanilmaydi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

29. Oziq-ovqat xushbo'y hid beruvchilar, oziq-ovqat fermentlari yoki oziq-ovqat qo'shimchalari tarkibidagi oziq-ovqat qo'shimchasi oziq-ovqat mahsulotiga qo'shilsa va ushbu mahsulotda muayyan texnologik funksiyani bajarsa, mazkur oziq-ovqat qo'shimchasi ushbu oziq-ovqat mahsuloti tarkibidagi oziq-ovqat qo'shimchasi hisoblanadi va bunday oziq-ovqat mahsuloti uchun ko'zda tutilgan qo'llash shartlariga muvofiq bo'lishi kerak.

30. Oziq-ovqat shirinlashtiruvchisiga, ushbu oziq-ovqat mahsulotining tarkibiy qismlaridan birida bunday shirinlashtiruvchi mavjud bo'lishiga ruxsat etilgan bo'lsa, quyidagi ko'p ingredientli oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud bo'lishiga ruxsat etiladi:

energetik qiymati kam bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari;

shakar qo'shilmagan oziq-ovqat mahsulotlari;

past kaloriyali parhezlar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari;

kariyes paydo bo'lishiga olib kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari;

yaroqlilik muddati uzoq bo'lgan ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mavjud bo'lishi mumkin.

5-bob. Oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga oid sanitariya-gigiyena talablari

31. Yorliqdagi oziq-ovqat qo‘shimchalari haqida ma’lumotlar ularni yolg‘on yoki chalg‘ituvchi tarzda tavsiflamasligi yoki ifodalamasligi yoxud ularning tabiati haqida noto‘g‘ri taassurotni yuzaga keltirmasligi kerak.

32. Yorliqdagi oziq-ovqat qo‘shimchalari haqida ma’lumotlar ularni bunday oziq-ovqat qo‘shimchalarini chalkashtirib yuborishi mumkin bo‘lgan yoki xaridor yoxud iste’molchiga oziq-ovqat qo‘shimchasini boshqa mahsulot bilan bog‘liq yoki mazkur sanitariya qoidalarining **33-bandiga** muvofiq undan olingan deb hisoblash imkonini beradigan har qanday boshqa mahsulotga bevosita yoki bilvosita mansub bo‘lgan yoki ishora qiladigan so‘zlar, rasmlar yoki boshqa vositalar yordamida tavsiflamasligi yoki ifodalamasligi lozim.

33. “... ta’mli” atamasidan ko‘rsatilgan ta’mdan kelib chiqmagan, lekin shu ta’mini takrorlaydigan tegishli xushbo‘ylashtiruvchi moddani ta’riflash uchun ham foydalanishga ruxsat etiladi.

34. Yakuniy iste’molchiga sotish uchun mo‘ljallanmagan, alohida yoki bir nechta oziq-ovqat qo‘shimchalari aralashmasida va/yoki boshqa tarkibiy qismlar bilan aralashgan holda sotiladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari bilan muomala qilishga ularda mazkur sanitariya qoidalarining **35-39-bandlarida** ko‘zda tutilgan yorliq bo‘lgan taqdiridagina ruxsat etiladi. Yorliq oson ko‘rinadigan, aniq o‘qiladigan va o‘chmaydigan bo‘lishi kerak.

35. Yakuniy iste’molchiga sotish uchun mo‘ljallanmagan oziq-ovqat qo‘shimchalari alohida yoki bir nechta oziq-ovqat qo‘shimchalari aralashmasida va/yoki boshqa tarkibiy qismlar bilan aralashgan holda yoxud ularga qandaydir boshqa moddalar qo‘shilgan holda sotiladigan bo‘lsa, ularning o‘rami yoki idishida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

ushbu sanitariya qoidalarida ko‘rsatilganidek, Yevropa raqamlash tizimiga (E-raqam) muvofiq har bir oziq-ovqat qo‘shimchasining nomi va/yoki indeks raqami yoki Yevropa raqamlash tizimiga (E-raqam) muvofiq har bir oziq-ovqat qo‘shimchasining indeks raqamini o‘z ichiga olgan mahsulot tavsifi;

“oziq-ovqat mahsulotlari uchun” yoki “oziq-ovqat mahsulotlarida cheklangan holda foydalanish» so‘zlari yoki oziq-ovqat qo‘shimchasini u o‘zi mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi aniq ko‘rsatmalar;

maxsus saqlash va/yoki foydalanish shartlari (zarur hollarda);

partiyani identifikatsiya qiluvchi belgi;

foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar - agar bunday ko‘rsatmalarning yo‘qligi oziq-ovqat qo‘shimchasidan to‘g‘ri foydalanishni qiyinlashtirsa;

ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlash yoxud sotishni amalga oshiruvchi xo‘jalik subyektining nomi va joylashgan joyi;

oziq-ovqat mahsuloti tarkibida bo‘lishning miqdoriy chekloviga ega bo‘lgan har bir tarkibiy qism yoki tarkibiy qismlar guruhining maksimal miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar va/yoki ushbu talablarni bajarishga imkon beruvchi ma’lumotlar. Bir xil maksimal darajalar alohida yoki bir-biri bilan uyg‘unlikda qo‘llaniladigan tarkibiy qismlar guruhiga tegishli bo‘lgan hollarda, tegishli maksimal darajalar yig‘indisini foizda aks ettiruvchi bitta raqam ko‘rsatilishi lozim. Maksimal daraja raqamli yoki “yetarli miqdor (quantum satis) prinsipi” so‘zlari bilan ifodalanishi kerak;

oziq-ovqat qo‘shimchasining nominal (sof) miqdori;

eng ma’qul iste’mol muddati yoki yakuniy iste’mol muddati;

oziq-ovqat mahsulotlari yoki allergenlar bilan bog'liq moddalar haqida, agar ular oziq-ovqat qo'shimchasi tarkibida mavjud bo'lsa.

36. Oziq-ovqat qo'shimchalari bir nechta oziq-ovqat qo'shimchalari va/yoki boshqa tarkibiy qismlar aralashmasida sotiladigan hollarda, ularning o'ramida yoki idishida ulardan har birining umumiy sof og'irlikdagi foizini ko'rsatuvchi barcha tarkibiy qismlar ro'yxati kamayish tartibida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

37. Tarkibida oziq-ovqat qo'shimchalariga ularni saqlash, sotish, suyultirish yoki eritish samaradorligini oshirish uchun qo'shiladigan moddalar (shu jumladan, oziq-ovqat qo'shimchalari yoki boshqa tarkibiy qismlar) mavjud bo'lgan oziq-ovqat qo'shimchalarining qadoqlari yoki idishlarida ulardan har birining butun o'ramdagi mahsulotning umumiy og'irlikdagi foizini ko'rsatuvchi barcha tarkibiy qismlar ro'yxati kamayish tartibida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

38. Xushbo'y hid beruvchi moddalar aralashmalarining o'ramida aralashmada mavjud bo'lgan har bir xushbo'y hid beruvchi moddaning nomi ko'rsatilishi shart emas. Organoleptik xususiyatlari (masalan, "olma hidli") va / yoki mahsulotning kelib chiqishi yoki manbasini ko'rsatish bilan birga umumiy "xushbo'ylashtiruvchi" iborasi qo'llanishi mumkin. Mahsulotning kelib chiqishi yoki manbasini ko'rsatishda umumiy ibora tabiiy lazzatli-xushbo'ylashtiruvchi moddalar uchun "tabiiy"so'zi, sintetik lazzatli-xushbo'ylashtiruvchi moddalar uchun "sintetik" so'zlari bilan yoki ushbu so'zlar birikmasi bilan aniqlashtirilishi kerak.

39. Mazkur sanitariya qoidalarining **35-38-bandlari** talablaridan istisno tariqasida, foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar, ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlash yoxud sotishni amalga oshiruvchi xo'jalik subyektining nomi va joylashgan joyi, oziq-ovqat mahsuloti tarkibida bo'lishning miqdoriy chekloviga ega bo'lgan har bir tarkibiy qism yoki tarkibiy qismlar guruhining maksimal miqdori, oziq-ovqat qo'shimchasining nominal (sof) miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar faqat partiyaga ilova qilinadigan hujjatlarda ko'rsatilishi mumkin va u tegishli mahsulotli o'ram yoki idishning qismini ko'zdan kechirish uchun ko'rinadigan qismida tekshirish uchun "chakana savdo uchun emas" deb ko'rsatilgan bo'lishi sharti bilan yetkazib berish vaqtida yoki undan oldin taqdim etilishi lozim.

40. Yakuniy iste'molchiga sotish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alash quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

a) ham alohida-alohida, ham bir nechta oziq-ovqat qo'shimchalari va/yoki oxirgi iste'molchiga sotish uchun mo'ljallangan boshqa tarkibiy qismlar aralashmasida sotiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari faqat quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsagina chakana savdoga chiqariladi:

har bir oziq-ovqat qo'shimchasining Yevropa raqamlash tizimiga (E-raqam) muvofiq nomi va/yoki indeks raqami yoki Yevropa raqamlash tizimiga (E-raqam) muvofiq bo'lgan har bir oziq-ovqat qo'shimchasining nomi va/yoki indeks raqamini o'z ichiga olgan oziq-ovqat qo'shimchasining tavsifi;

"oziq-ovqat mahsulotlari uchun» yoki "oziq-ovqat mahsulotlarida cheklangan holda foydalanish» so'zlari yoki oziq-ovqat qo'shimchasini u o'zi mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida qo'llash bo'yicha aniq ko'rsatmalar;

b) ushbu bandning a-kichik bandi talablaridan istisno tariqasida, oshxona shirinlashtirgichining yorlig'ida uning tarkibida mavjud bo'lgan shirinlashtirgichlarning nomi (nomlari) ko'rsatilgan "... asosidagi oshxona shirinlashtirgichi" iborasi bo'lishi kerak;

c) tarkibida poliol va/yoki aspartam va/yoki aspartam-atsesulfam tuzlari mavjud bo'lgan oshxona shirinlashtirgichlarining yorlig'i quyidagi ogohlantirishlarni o'z ichiga olishi kerak:

poliollar: “haddan ortiq iste’mol qilish surgi ta’siriga ega bo’lishi mumkin”;
aspartam va/yoki aspartam-atsesulfam tuzlari: “tarkibida fenilalanin manbai mavjud”.

d) Oshxonaga oid bo’lmagan shirinlashtirgichlar ishlab chiqaruvchilari tegishli vositalar bilan iste’molchilarga ulardan xavfsiz foydalanish imkonini beruvchi zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari kerak.

41. Oziq-ovqat mahsulotlarining yorlig’i qo’shimcha ma’lumotlarni o’z ichiga olishi kerak bo’lgan bo’yoqlar ro’yxati ushbu sanitariya qoidalarining 6-ilovasiga muvofiq bo’lishi lozim.

42. Agar oziq-ovqat xavfsizligi to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oziq-ovqat qo’shimchasi bo’lishi mumkin bo’lgan modda aslida oziq-ovqat mahsulotida boshqa funksiyani bajarayotgan bo’lsa, xususan, muayyan bir tarkibiy qismning o’rnini bosuvchi, vitamin yoki mineral modda shakli bo’lsa, u holda oziq-ovqat mahsuloti tarkibida boshqa funksiyani bajaruvchi bo’lsa, u holda bunday modda oziq-ovqat mahsuloti yorlig’ida oziq-ovqat qo’shimchasi sifatida emas, balki tarkibiy qism sifatida ko’rsatiladi.

43. Mazkur sanitariya qoidalarini ishlab chiquvchilar ro’yxati ushbu sanitariya qoidalarining **7-ilovasida** keltirilgan.

Izoh. Ushbu sanitariya qoidalariga 1 va 3-illovalar Yevropa oziq-ovqat qo’shimchalarini raqamlash tizimidan olingan yangi ilmiy ma’lumotlar va axborotlarga muvofiq davriy ravishda qayta ko’rib chiqilishi va yangilanishi kerak.

Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg'alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga

1-ilova

Ruxsat etilgan oziq-ovqat qo'shimchalari ro'yxati

1-jadval

Ruxsat etilgan bo'yoqlar ro'yxati

E-raqam	Nomi
E 100	Kurkumin
E 101	Riboflavinlar
E 102	Tartrazin
E 104	Xinolinli sariq
E 110	Sariq shafaq FCF/to'q sariq-sariq S
E 120	Karmin kislotasi, Karmin
E 122	Azorubin, Karmoisin
E 123	Amarant
E 124	Ponseau 4R, qizil koshenil A
E 127	Eritrozin
E 129	Qizil Allura AC
E 131	Patent Moviy V
E 132	Indigotin, Indigokarmin
E 133	Brilliant ko'k FCF
E 140	Xlorofillar va xlorofillinlar
E 141	Xlorofillar, xlorofillinlarning misli komplekslari
E 142	Yashil C
E 150a	Oddiy karamel
E 150b	Kaustik sulfitli karamel
E 150c	Ammiakli karamel
E 150d	Sulfitli-ammiakli karamel
E 151	Brilliant qora PN
E 153	O'simlik uglerodi
E 155	Braun XT
E 160a	Karotinlar
E 160b (ya)	Annato biksin
E 160b(ii)	Annatto norbiksin
E 160c	Qizil qalampir ekstrakti, kapsantin, kapsorubin.
E 160d	Likopin
E 160e	Beta-apo-8'-karotin (C 30)

E 161b	Lyutein
E 161 g	Kantaksantin (*1)
E 162	Lavlagirang qizil, betanin
E 163	Antotsiyanlar
E 170	Kalsiy karbonati
E 171	Titan dioksidi (*2)
E 172	Temir oksidi va gidroksidlari
E 173	Alyuminiy
E 174	Kumush
E 175	Oltin
E 180	Litolrubin BK

Eslatma:

(1) - Karamel atamasi bo'yash uchun mo'ljallangan ko'proq yoki kamroq quyuuq jigarrang tusli mahsulotlarga mansubdir. Bu shakarni qizdirish yo'li bilan olinadigan va oziq-ovqat mahsulotlarini (masalan, qandolat, un mahsulotlari, spirtli ichimliklar) xushbo'ylashtirish uchun ishlatiladigan shirador xushbo'y mahsulotga mos kelmaydi.

(*1) – Kantaksantindan D va E qismlarida sanab o'tilgan oziq-ovqat toifalarida foydalanishga ruxsat berilmagan. Modda B1 ro'yxatiga kiritilgan, chunki u Evropa Parlamenti va Kengashining 2009/35/EC direktivasiga muvofiq (OJ L 109, 30.4.2009, 10-bet) tibbiy mahsulotlarda qo'llaniladi.

(*2) - Titan dioksidi D va E qismlarida sanab o'tilgan oziq-ovqat toifalarida foydalanishga ruxsat berilmagan. Modda B1 ro'yxatiga kiritilgan, chunki u Yevropa Parlamenti va Kengashining 2009/35/EC direktivasiga muvofiq (OJ L 109, 30.4.2009, 10-bet) tibbiy mahsulotlarda qo'llaniladi.

2-jadval

Ruxsat etilgan shirinlashtiruvchilar ro'yxati

E-raqam	Nomi
E 420	Sorbitlar
E 421	Mannitol
E 950	Atsesulfame K
E 951	Aspartam
E 952	Siklamatlar
E 953	Izomalt
E 954	Saxarinlar
E 955	Sukraloza
E 957	Taumatina
E 959	Neogesperidin DC
E 960a	Steviadan olingan steviol glikozidlari
E 960c	Fermentlash yo'li bilan olingan steviol glikozidlari
E 960d	Glyukozalashtirilgan steviol glikozidlari
E 961	Neotam
E 962	Aspartam-atsesulfam tuzi

E 964	Poliglitsitol siropi
E 965	Maltitol
E 966	Laktitol
E 967	Ksilit
E 968	Eritrit
E 969	Advantame

3-jadval

Bo‘yoqlar va shirinlashtirgichlardan tashqari ruxsat etilgan qo‘shimchalar ro‘yxati

E-raqam	Nomi
E 170	Kalsiy karbonati
E 172	Temir oksidi va gidroksidlari
E 200	Sorbin kislotasi
E 202	Kaliy sorbati
E 210	Benzoy kislotasi
E 211	Natriy benzoati
E 212	Kaliy benzoati
E 213	Kalsiy benzoati
E 214	Etil p-gidroksibenzoat
E 215	Etil p-natriy gidroksibenzoat
E 218	Metil p-gidroksibenzoat
E 219	Metil p-natriy gidroksibenzoat
E 220	Oltinugurt dioksidi
E 221	Natriy sulfiti
E 222	Natriy gidrosulfiti
E 223	Natriy metabisulfiti
E 224	Kaliy metabisulfiti
E 226	Kalsiy sulfiti
E 227	Kalsiy gidrosulfiti
E 228	Kaliy gidrosulfiti
E 234	Nisin
E 235	Natamitsin
E 239	Geksametilentetramin
E 242	Dimetildikarbonat
E 243	Etillauroil arginat
E 246	Glikolipidlar
E 249	Kaliy nitriti
E 250	Natriy nitrati
E 251	Natriy nitrati
E 252	Azot kislotali kaliy

E 260	Sirka kislotasi
E 261	Kaliy atsetatlari
E 262	Natriy atsetatlari
E 263	Kalsiy atsetati
E 267	Bufer sirkasi
E 270	Sut kislotasi
E 280	Propion kislotasi
E 281	Natriy propionati
E 282	Kalsiy propionati
E 283	Kaliy propionati
E 284	Borat kislotasi
E 285	Natriy tetraborati (bura)
E 290	Karbonat anhidrid
E 296	Olma kislotasi
E 297	Fumar kislotasi
E 300	Askorbin kislotasi
E 301	Natriy askorbati
E 302	Kalsiy askorbati
E 304	Askorbin kislotaning yog' kislotali efirlari
E 306	Tokoferolga boy ekstrakt
E 307	Alfa-tokoferol
E 308	Gamma-tokoferol
E 309	Delta-tokoferol
E 310	Propilgallat
E 315	Eritorbin kislotasi
E 316	Natriy eritorbati
E 319	Tret-butildidroksinon (TBHQ)
E 320	Butillangan gidroksianizol (BHA)
E 321	Butillangan gidroksitoluol (BHT)
E 322	Letsitinlar
E 322a	Suli lesitini
E 325	Natriy laktati
E 326	Kaliy laktati
E 327	Kalsiy laktati
E 330	Limon kislotasi
E 331	Natriy sitratlari
E 332	Kaliy sitratlari
E 333	Kalsiy sitratlari
E 334	Vino kislotasi (L(+)-)
E 335	Natriy tartratlari
E 336	Kaliy tartratlari

E 337	Natriy-kaliy tartrati
E 338	Fosfor kislotasi
E 339	Natriy fosfatlari
E 340	Kaliy fosfatlari
E 341	Kalsiy fosfatlari
E 343	Magniy fosfatlari
E 350	Natriy malatlari
E 351	Kaliy malati
E 352	Kalsiy malatlari
E 353	Metavin kislotasi
E 354	Kalsiy tartrati
E 355	Adipin kislotasi
E 356	Natriy adipati
E 357	Kaliy adipati
E 363	Qahrabo kislotasi
E 380	Triammoniy sitrati
E 385	Kalsiy dinatriy etilendiamin tetraatsetati (Kalsiy dinatriy EDTA)
E 392	Rozmarin ekstraktlari
E 400	Algin kislotasi
E 401	Natriy alginati
E 402	Kaliy alginati
E 403	Ammoniy alginati
E 404	Kalsiy alginati
E 405	Propan 1,2-diolalginati
E 406	Agar
E 407a	Qayta ishlangan evxema dengiz o'tlari
E 407	Karraginan
E 410	Shoxli daraxt yelimi
E 412	Guar yelimi
E 413	Tragakant
E 414	Gummiarabik (Akatsiya yelimi)
E 415	Ksantan yelimi
E 416	Karaya yelimi
E 417	Tara yelimi
E 418	Gellan yelimi
E 422	Glitserin
E 423	Oktenilqahrabo kislotasi bilan modifikatsiyalangan arab yelimi
E 425	Konjak
E 426	Soya gemitsellyulozasi
E 427	Kassiya yelimi
E 431	Polioksietilen (40) stearat

E 432	Polioksietilensorbitanmonolaurat (polisorbat 20)
E 433	Polioksietilensorbitanmonooleat (polisorbat 80)
E 434	Polioksietilensorbitanmonopalmitat (polisorbat 40)
E 435	Polioksietilensorbitan monostearat (polisorbat 60)
E 436	Polioksietilensorbitantristearat (polisorbat 65)
E 440	Pektinlar
E 442	Ammoniy fosfatidlari
E 444	Saxaroza atsetat izobutirat
E 445	Yogʻ och kanifolining glitserinli efirlari
E 450	Difosfatlar
E 451	Trifosfatlar
E 452	Polifosfatlar
E 456	Kaliy poliaspartati
E 459	Beta-siklodekstrin
E 460	Sellyuloza
E 461	Metilsellyuloza
E 462	Etilsellyuloza
E 463	Gidroksipropilsellyuloza
E 463a	Past darajada almashtirilgan gidroksipropilsellyuloza (L-HPC)
E 464	Gidroksipropilmetilsellyuloza
E 465	Etilmetilsellyuloza
E 466	Natriy karboksimetilsellyuloza, sellyuloza yelimi
E 468	Tikilgan natriy karboksimetilsellyuloza, tikilgan sellyuloza yelimi
E 469	Fermentativ gidrolizlangan karboksimetilsellyuloza, fermentativ gidrolizlangan sellyuloza yelimi
E 470a	Yogʻ kislotalarining natriyli, kaliyli va kalsiyli tuzlari
E 470b	Yogʻ kislotalarining magniyli tuzlari
E 471	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitseridlari
E 472a	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlarining sirka kislotali efirlari
E 472b	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlarining sut kislotali efirlari
E 472c	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlarining limon kislotali efirlari
E 472d	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlarining vino kislotali efirlari
E 472e	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlari vino kislotasining mono- va diatsetil efirlari
E 472f	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlari sirka va vino kislotalarning aralash efirlari.
E 473	Saxaroza va yogʻ kislotalarining efirlari
E 474	Shakar glitseridlari
E 475	Yogʻ kislotalarining poligliserinli efirlari
E 476	Poligliserin poliritsinoleat
E 477	Yogʻ kislotalarining propan-1,2-diolti efirlari

E 479b	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitseridlari bilan oʻzaro taʼsir qiluvchi termik oksidlangan soya yogʻi
E 481	Natriy stearoil-2-laktilati
E 482	Kalsiy stearoil-2-laktilati
E 483	Stearil tartrati
E 491	Sorbitan monostearati
E 492	Sorbitan tristearati
E 493	Sorbitan monolaurat
E 494	Sorbitan monooleat
E 495	Sorbitan monopalmitat
E 499	Stigmasteringa boy oʻsimlik sterollari
E 500	Natriy karbonati
E 501	Kaliy karbonati
E 503	Ammoniy karbonati
E 504	Magniy karbonatlari
E 507	Xlorid kislota
E 508	Kaliy xloridi
E 509	Kalsiy xloridi
E 511	Magniy xloridi
E 512	Qalay xloridi
E 513	Sulfat kislota
E 514	Natriy sulfatlari
E 515	Kaliy sulfatlari
E 516	Kalsiy sulfati
E 517	Ammoniy sulfati
E 520	Alyuminiy sulfati
E 521	Alyuminiy-natriy sulfati
E 522	Alyuminiy va kaliy sulfati
E 523	Alyuminiy-ammoniy sulfati
E 524	Natriy gidroksidi
E 525	Kaliy gidroksidi
E 526	Kalsiy gidroksidi
E 527	Ammoniy gidroksidi
E 528	Magniy gidroksidi
E 529	Kalsiy oksidi
E 530	Magniy oksidi
E 534	Temir tartrati
E 535	Natriy ferrosiyanidi
E 536	Kaliy ferrotsiyanidi
E 538	Kalsiy ferrotsiyanidi
E 541	Natriy alyumofosfat kislota

E 551	Kremniy dioksidi
E 552	Kalsiy silikat
E 553a	Magniy silikat
E 553b	Talk
E 554	Natriy alyumosilikati
E 555	Kaliy alyumosilikati
E 556	Kalsiy alyumosilikati (²)
E 558	Bentonit (³)
E 559	Alyuminiy silikati (Kaolin) (²)
E 570	Yog' kislotalari
E 574	Glyukon kislotasi
E 575	Glyukon-delta-lakton
E 576	Natriy glyukonati
E 577	Kaliy glyukonati
E 578	Kalsiy glyukonati
E 579	Temir glyukonati
E 585	Temir laktati
E 586	4-geksilresorsinol
E 620	Glyutamin kislotasi
E 621	Natriy glyutamati
E 622	Monokaliy glyutamati
E 623	Kalsiy diglyutamati
E 624	Monoammoniy glyutamati
E 625	Magniy diglyutamati
E 626	Guanil kislotasi
E 627	Dinatriy guanilat
E 628	Dikaliy guanilat
E 629	Kalsiy guanilati
E 630	Inozin kislotasi
E 631	Dinatriy inozinati
E 632	Dikaliy inozinati
E 633	Kalsiy inozinati
E 634	Kalsiy 5'-ribonukleotidlar
E 635	Dinatriy 5'-ribonukleotidlar
E 640	Glitsin va uning natriyli tuzi
E 641	L-leytsin
E 650	Ruh atsetati
E 900	Dimetilpolisiloksan
E 901	Asalari mumi, oq va sariq
E 902	Candelilla mumi
E 903	Karnauba mumi

E 904	Shellak
E 905	Mikrokristal mum
E 907	Vodorodlangan poli-1-detsen
E 914	Oksidlangan polietilen mumi
E 920	L-sistein
E 927b	Karbamid
E 938	Argon
E 939	Geliy
E 941	Azot
E 942	Azot oksidi
E 943a	Butan
E 943b	Izobutan
E 944	Propan
E 948	Kislород
E 949	Vodorod
E 999	Kvillaya ekstrakti
E 1103	Invertaza
E 1105	Lizotsim
E 1200	Polidekstroza
E 1201	Polivinilpirrolidon
E 1202	Polivinilpolipirrolidon
E 1203	Polivinil spirti (PVA)
E 1204	Pullulan
E 1205	Asosiy metakrilat sopolimeri
E 1206	Neytral metakrilat sopolimeri
E 1207	Anionli metakrilat sopolimeri
E 1208	Polivinilpirrolidon va vinilatsetat sopolimeri
E 1209	Polivinil spirti va polietilenglikolning <i>payvandlangan</i> sopolimeri
E 1210	Karbomer
E 1404	Oksidlangan kraxmal
E 1410	Monokraxmalfosfat
E 1412	Dikraxmalfosfat
E 1413	Fosfatlangan dikraxmal fosfat
E 1414	Atsetillangan dikraxmalfosfat
E 1420	Atsetillangan kraxmal
E 1422	Atsetillangan dikraxmadipat
E 1440	Gidroksipropil kraxmal
E 1442	Gidroksipropildikraxmalfosfat
E 1450	Kraxmalli natriy oktenilsuksinati
E 1451	Atsetillangan oksidlangan kraxmal
E 1452	Kraxmalli alyuminiy oktenilsuksinati

E 1505	Trietilsitrat
E 1517	Glitserildiatsetat (diatsetin)
E 1518	Glitseriltriatsetat (triatsetin)
E 1519	Benzil spirti
E 1520	Propan-1,2-diol (propilenglikol)
E 1521	Polietilenglikol

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
2-ilova

Oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat qo‘shimchalari va oziq-ovqat fermentlaridagi oziq-ovqat qo‘shimchalarining funksional sinflari

Yo‘q.	Funksiyonal sinf	Texnologik funksiyalar
1	Antioksidantlar	Oziq-ovqat mahsulotlarini oksidlanish natijasida buzilishdan himoyalash orqali ularni saqlash muddatini uzaytiruvchi moddalar (masalan, yog‘larning taxirligi va rangi o‘zgarishi)
2	Yopishishga qarshi vositalar	Alohida oziq-ovqat zarralarining bir-biriga yopishish an‘anasini sustlashtiruvchi moddalar
3	Bo‘yoqlar	Oziq-ovqat mahsulotiga rang qo‘shadigan yoki tiklaydigan va tarkibida tabiiy oziq-ovqat komponentlari va tabiiy xom ashyolarni o‘z ichiga olgan moddalar, odatda oziq-ovqat sifatida iste‘mol qilinmaydi yoki oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiy qismlari sifatida qo‘llanilmaydi. Oziq-ovqatlar va boshqa tabiiy xom ashyolardan ozuqaviy yoki xushbo‘y tarkibiy qismlar tarkibiga kiruvchi pigmentlarning selektiv ekstratsiyasiga olib keluvchi fizikaviy va/yoki kimyoviy ekstraksiya yo‘li bilan olinadigan preparatlar.
4	Namlikni saqlab turuvchi agentlar	Past namlikdagi atmosfera havosining ta‘sirini neytrallashtirish yo‘li bilan oziq-ovqat mahsulotining qurib qolishining oldini oluvchi yoki kukunsimon moddaning suvli muhitda erishiga yordam beruvchi moddalar.
5	Sirlangan moddalar	Oziq-ovqat mahsulotining tashqi yuzasiga surtilganda unga jiloli ko‘rinish beruvchi va/yoki himoya qoplamasini yuzaga keltiruvchi moddalar.
6	Emulgatorlar	Oziq-ovqat mahsulotida ikki yoki undan ortiq nomutanosib fazalarning (masalan, o‘simlik moyi va suv) bir hil aralashmasini yaratish yoki saqlashga yordam beradigan moddalar
7	Emulsiya hosil qiluvchi tuzlar	Yog‘ va boshqa tarkibiy qismlarning bir xil taqsimlanishi uchun sharoit yaratgan holda pishloq oqsillarini dispersion shaklga aylantiradigan, moddalar (faqat yumshoq pishloqlar va yumshoq pishloq asosida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun)
8	Quyushlashtirgichlar	Oziq-ovqat mahsulotining qayishqoqligini oshiradigan moddalar
9	Jeleshtiruvchi vositalar	Jele hosil qilish yo‘li bilan oziq-ovqat mahsulotiga tuzilish beruvchi moddalar
10	Kislotalar	Oziq-ovqat mahsulotlarining kislotaliligini oshiradigan va/yoki ularga nordon ta‘m beruvchi moddalar
11	Sekvestrantlar	Metall ionlari bilan kimyoviy birikmalarni shakllantiruvchi moddalar
12	Konservantlar	Mahsulotlarni mikroorganizmlar tomonidan yuzaga keladigan buzilishdan himoya qilgan holda ularning, yaroqlilik muddatini uzaytiradigan va/yoki patogen mikroorganizmlarning ko‘payishiga to‘sqinlik qiladigan moddalar
13	Modifikatsiyalangan kraxmallar	Oziq-ovqat kraxmallarini bir yoki bir nechta kimyoviy ishlov berish natijasida hosil bo‘lgan, ehtimol moddalar fizikaviy yoki fermentli ishlovdan o‘tgan, shuningdek kislota yoki ishqor bilan qisqartirilgan yoki oqartirilgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan moddalar.
14	To‘ldiruvchilar	Oziq-ovqat mahsulotining energetik qiymatini jiddiy tarzda oshirmagan holda uning hajmini oshiruvchi moddalar
15	Tashuvchilar	Ishlov berish, qo‘llash yoki foydalanish samaradorligini oshirish uchun oziq-ovqat qo‘shimchasi yoki oziq-ovqat xushbo‘ylashtirgichi, oziq-

		ovqat fermenti, ozuqaviy modda va/yoki oziq-ovqat mahsulotiga parhez yoki fiziologik maqsadlarda ilova qilinadigan boshqa moddalarni, ularning funksiyasini o'zgartirmasdan (va hech qanday texnologik ta'sir ko'rsatmasdan) eritish, suyultirish, dispersiyalash yoki boshqa tarzda fizikaviy jihatdan o'zgartirish uchun ishlatiladigan moddalar
16	Qadoqlash gazlari	O'ramga oziq-ovqat mahsulotini joylashtirishdan oldin, joylashtirish jarayonida yoki undan keyin qo'shiladigan havodan tashqari gazlar.
17	Ko'pikni yo'qotuvchilar	Ko'pik hosil bo'lishining oldini oluvchi yoki kamaytiruvchi moddalar
18	Ko'pik hosil qiluvchi moddalar	Suyuq yoki qattiq oziq-ovqat mahsulotlarida gazsimon fazaning bir hil dispersiyalash uchun sharoit yarataduvchi moddalar
19	Ta'm va xushbo'ylikni kuchaytiruvchilar	Oziq-ovqat mahsulotining tabiiy ta'mini va/yoki xushbo'yligini oshiradigan moddalar
20	Shirinlashtiruvchi moddalar	Oziq-ovqatlar yoki oshxona shirinlashtirgichlariga shirin ta'm berish uchun qo'llaniladigan moddalar
21	Unni yaxshilovchilar	Unning non pishirish xususiyatlarini oshirish maqsadida un yoki xamirga qo'shiladigan emulgatorlardan tashqari moddalar.
22	Qarama-qarshilikni kuchaytirgichlar	Meva yoki sabzavotlarning muayyan qismlarini depigmentatsiya qilingandan so'ng (masalan, lazer bilan ishlov berilgandan) ularning tashqi yuzasiga qo'llanganda, yuzaning ayrim tarkibiy qismlari bilan o'zaro ta'sirlashgandan keyin rang berish yo'li bilan bu qismlarni qolgan sirtidan ajratishga yordam beradigan moddalar.
23	Propellentlar	Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqdan siqib chiqaradigan havodan tashqari gazlar
24	Kislota miqdorini sozlagichlar	Oziq-ovqat mahsulotining kislotaliligi yoki ishqoriyligini o'zgartiruvchi yoki tartibga soluvchi moddalar
25	Yumshatkichlar	Gaz ajralishini keltirib chiqaradigan va shu bilan xamir yoki ko'pchigan xamir hajmini oshiradigan moddalar yoki moddalar birikmalari
26	Stabilizatorlar	Oziq-ovqat mahsulotida ikki yoki undan ortiq aralashmaydigan moddalarning bir hil dispersiyasini saqlashga imkon bergan holda mahsulotining doimiy fizikaviy-kimyoviy holatini saqlab turishga yordam beradigan moddalar. Stabilizatorlarga shuningdek, oziq-ovqat mahsulotining asl rangini barqarorlashtiradigan, saqlaydigan yoki kuchaytiradigan va ularning bog'lanish qobiliyatini oshiradigan moddalar, shu jumladan oziq-ovqat mahsuloti zarralarini uning tiklanish holatida bog'lanishini kuchaytiruvchi oqsillar o'rtasidagi kesishma bog'lanishlarni shakllantiruvchi moddalar kiradi.
27	Zichlagichlar	Meva va sabzavotlarni zich va karsillama qilib saqlaydigan yoki gel hosil qilish yoki mustahkamlash uchun yelimlovchi agentlar bilan o'zaro aloqaga kirishadigan moddalar

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
3-ilova

Oziq-ovqat qo‘shimchalaridan foydalanish shartlari

1-jadval

Bo‘yoqlardan foydalanish shartlari

E-raqami	Nomi	Foydalanish shartlari
E 100	Kurkumin	<p>1.7.5 Yumchoq pishloq: ML = 100 mg/kg, faqat xushbo‘ylashtirilgan eritilgan pishloq Maksimum alohida yoki E 100, E 102, E 120, E 122, E 160e va E 161b kombinatsiyasi uchun.</p> <p>2.1 Tarkibida deyarli suv bo‘lmagan yog‘lar va moylar: Quantum Satis, faqat yog‘lar Quantum Satis, kam yog‘li sariyog‘ bundan mustasno</p> <p>4.2.5 Jemlar, marmeladlar va shunga o‘xshash mahsulotlar: Quantum Satis, kashtan pyuresidan tashqari</p> <p>4.2.5.3 Boshqa shunga o‘xshash meva yoki sabzavot pastalari: Quantum Satis, qora olxo‘ridan qilingan qaymoqli kremdan tashqari</p> <p>4.2.6 Qayta ishlangan kartoshka mahsulotlari: Quant Satis, faqat quritilgan kartoshka granulalari va parchalari</p> <p>8.3.1 Termik ishlov berilmay qayta ishlangan go‘sh: ML = 20 mg/kg, faqat kolbasalar Quantum Satis, faqat <i>pasturma</i></p> <p>8.3.2 Termik ishlov berilib qayta ishlangan go‘sh: ML = 20 mg/kg, faqat kolbasa, pashtet va terrinlar</p> <p>8.3.3 Go‘sh uchun qobiqlar, qoplamalar va bezaklar: Quantum satis, pasturmaning faqat tashqi qobig‘i yeyishli</p> <p>9.2 Qayta ishlangan baliq va baliqchilik mahsulotlari: ML = 100 belgilanmagan, faqat baliqdan tayyorlangan pasta va qisqichbaqasimonlardan tayyorlangan pasta ML = 250 belgilanmagan, faqat oldindan tayyorlangan qisqichbaqasimonlar ML = 100 belgilanmagan, faqat dudlangan baliq Maksimum alohida yoki E 100, E 102, E 120, E 122, E 142, E 151, E 160e, E 161b kombinatsiyasi uchun Maksimum alohida yoki E 100, 102, E 120, E 122, E 129, E 142, E 151, E 160e, E 161b kombinatsiyasi uchun Maksimum alohida yoki E 100, E 102, E 120, E 151, E 160e kombinatsiyasi uchun</p> <p>14.2.7.1 Xushbo‘ylashtirilgan sharoblar: ML = 100 mg/l, faqat <i>Amerikano, achchiq sharob</i></p>

E 576	Natriy glyukonati	<i>Quantum satis</i>
E 577	Kaliy glyukonati	<i>Quantum satis</i>
E 578	Kalsiy glyukonati	<i>Quantum satis</i>
E 579	Temir glyukonati	4.2.2 Sirka moyi yoki namakobdagi meva va sabzavotlar: ML = 150 mg/kg, faqat oksidlanish natijasida qoraygan zaytun mevalari Fe sifatida ifodalangan 4.2.3 Konservalangan yoki shisha idishlarga yopilgan meva va sabzavotlar: ML = 150 mg/kg, faqat oksidlanish natijasida qoraygan zaytun mevalari Fe sifatida ifodalangan
E 585	Temir laktati	4.2.2 Sirka moyi yoki namakobdagi meva va sabzavotlar: ML = 150 mg/kg, shved jigar pashtetlari va oksidlanish natijasida qoraygan zaytun mevalarining ozuqaviy tarkibiy qismi sifatida faqat <i>Albatrellus ovinus</i> zamburug'i ishlatiladi. Fe sifatida ifodalangan 4.2.3 Konservalangan yoki shisha idishlarga yopilgan meva va sabzavotlar: ML = 150 mg/kg, shved jigar pashtetlari va oksidlanish natijasida qoraygan zaytun mevalarining ozuqaviy tarkibiy qismi sifatida faqat <i>Albatrellus ovinus</i> zamburug'i ishlatiladi. Fe sifatida ifodalangan

E 586	4-geksilresorsinol	9.1.2 Qayta ishlanmagan mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar: DN = 2 mg/kg, faqat yangi, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan qisqichbaqasimonlar.
E 620	Glyutamin kislotasi	10 g/kg alohida yoki kombinatsiyalangan holda, glyutamin kislotaga hisoblaganda
E 621	Natriy glyutamati	
E 622	Monokaliy glyutamati	
E 623	Kalsiy diglyutamati	
E 624	Monoammoniy glyutamati	
E 625	Magniy diglyutamati	
E 626	Guanil kislotasi	500 mg/kg alohida yoki kombinatsiyalangan holda, guanil kislotaga hisoblaganda
E 627	Dinatriy guanilat	
E 628	Dikaliy guanilat	
E 629	Kalsiy guanilati	
E 630	Inozin kislotasi	
E 631	Dinatriy inozinati	
E 632	Dikaliy inozinati	
E 633	Kalsiy inozinati	
E 634	Kalsiy 5'-ribonukleotidlar	
E 635	Dinatriy 5'-ribonukleotidlar	
E 640	Glitsin va uning natriyli tuzi	<i>Quantum satis</i>
E 641	L-leytsin	11.4.3 Tabletkalar shaklidagi stolusti shirinlashtirgichlari: ML = 50,000 mg/kg,
E 650	Ruh atsetati	5.3 Saqich: ML = 1000 mg/kg
E 900	Dimetilpolisiloksan	2.1 Tarkibida deyarli suv bo'lmagan yog' va moylar: ML = 10 mg/kg, faqat moylar ML = 10 mg/kg, faqat qovurish uchun yog'lar va moylar 4.2.3 Konservalangan yoki shisha idishlarga yopilgan meva va sabzavotlar: ML = 10 mg/kg 4.2.5 Jemlar, marmeladlar va shunga o'xshash mahsulotlar: ML = 10 mg/kg 4.2.5.3 Boshqa shunga o'xshash meva yoki sabzavot pastalari: ML = 10 mg/kg 5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: ML = 10 mg/kg 5.4 Dekorativ qoplamalar va to'ldiruvchilar: ML = 10 mg/kg 6.6 Klyarlar (suyuq xamirlar): ML = 10 mg/kg 12,5 Sho'rvalar va bulyonlar: ML = 10 mg/kg 5.3 Saqich: ML = 100 mg/kg

		<p>14.1.2 Meva sharbatlari: ML = 10 mg/l, faqat ananas sharbati va shirin....sharbati va shirinlashtirilgan....sharbati</p> <p>14.1.4 Xushbo‘ylashtirilgan ichimliklar: ML = 10 mg/l</p> <p>14.2.3 Sidr va perri: ML = 10 mg/l, <i>tiqinlangan sidrdan tashqari</i></p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 10 mg/kg, faqat vijillovchi tabletka shaklidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari. Maksimal daraja 200 ml suv bilan suyultirilganda iste‘mol qilishga tayyor bo‘lgan erigan oziq-ovqat qo‘shimchaga qo‘llaniladi.</p>
E 901	Asalari mumi, oq va sariq	<p>3 Yeyishli muz: Quantum Satis, faqat qadoqlangan muzqaymoqli vafllilar</p> <p>5.1 Kakao va shokolad mahsulotlari: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.3 Saqich: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to‘ldiruvchilar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>15.1 Kartoshkali don uni yoki kraxmal asosidagi gazaklar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>15.2 Ishlov berilgan yong‘oqlar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>7.2 Tansiq non-bulka mahsulotlari: Quant Satis, faqat shokolad bilan qoplangan tansiq non-bulka mahsulotlaridan tayyorlangan kichik mahsulotlar uchun qiyom sifatida</p> <p>14.1.5.1 Qahva ekstraktlari-qahva: Quantum satis, faqat qahva donachalari, sirlovchi vosita sifatida</p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: Quantum satis</p> <p>4.1.1 Yangi meva va sabzavotlar butunligicha: Quantum satis, faqat mevalar: sitrus, qovun, olma, nok, shaftoli, ananas, banan, mango, avakado va anorlarga sirdan ishlov berish uchun, shuningdek yong‘oqlar uchun qiyom sifatida.</p>
E 902	Candelilla mumi	<p>5.1 Kakao va shokolad mahsulotlari: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.3 Saqich: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to‘ldiruvchilar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>15.1 Kartoshkali don uni yoki kraxmal asosidagi gazaklar: Quantum satis, faqat sir sifatida</p> <p>15.2 Ishlov berilgan yong‘oqlar: Quantum satis, faqat sir sifatida</p>

		<p>7.2 Tansiq non-bulka mahsulotlari: Quant Satis, f faqat shokolad bilan qoplangan tansiq non-bulka mahsulotlaridan tayyorlangan kichik mahsulotlar uchun qiyom sifatida</p> <p>14.1.5.1 Qahva-qahva ekstraktlari: Quantum satis, faqat qahva donachalari, sirlovchi vosita sifatida</p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: Quantum Satis</p> <p>4.1.1 Yangi meva va sabzavotlar butunligicha: Quantum Satis, faqat sitrus, qovun, olma, nok, shaftoli va ananaslarga sirdan ishlov berish, shuningdek yong‘oqlar uchun qiyom sifatida</p>
E 903	Karnauba mumi	<p>5.1 Kakao va shokolad mahsulotlari: ML = 500 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: ML = 500 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>5.3 Saqich: ML = 1200 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>Maksimal miqdor barcha foydalanish turlari uchun qo‘llaniladi.</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to‘ldiruvchilar: ML = 500 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>ML = 200 mg/kg, faqat shokolad bilan qoplangan kichik tansiq non-bulka mahsulotlari uchun sirlovchi modda sifatida.</p> <p>7.2 Tansiq non-bulka mahsulotlari: ML = 200 mg/kg, faqat shokolad bilan qoplangan tansiq non-bulka mahsulotlaridan tayyorlangan kichik mahsulotlar uchun sirlovchi modda sifatida</p> <p>14.1.5.1 Qahva ekstraktlari-qahva: ML = 200 mg/l, faqat qahva donachalari, sirlovchi vosita sifatida</p> <p>15.1 Kartoshkali don uni yoki kraxmal asosidagi gazaklar: ML = 200 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>15.2 Ishlov berilgan yong‘oqlar: ML = 200 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 200 mg/kg</p> <p>10.2 Qayta ishlangan tuxum va tuxum mahsulotlari: ML = 3600 mg/kg, faqat tozalanmagan rangli qaynatilgan tuxum yuzasida</p> <p>4.1.1 Yangi meva va sabzavotlar butunligicha: ML = 200 mg/kg, faqat mevalar: sitrus, qovun, olma, nok, shaftoli, ananas, banan, mango, avakado va papayyalarga sirdan ishlov berish uchun, shuningdek yong‘oqlar uchun sirlovchi vosita sifatida.</p>
E 904	Shellak	<p>5.1 Kakao va shokolad mahsulotlari: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p>

		<p>5.3 Saqich: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to'ldiruvchilar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>15.1 Kartoshkali don uni yoki kraxmal asosidagi gazaklar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>15.2 Ishlov berilgan yong'oqlar: Quantum satis, faqat qiyom sifatida</p> <p>7.2 Tansiq non-bulka mahsulotlari: Quant Satis, faqat shokolad bilan qoplangan tansiq non-bulka mahsulotlaridan tayyorlangan kichik mahsulotlar uchun sirlovchi modda sifatida</p> <p>14.1.5.1 Qahva ekstraktlari-qahva: Quantum satis, faqat qahva donachalari, sirlovchi vosita sifatida</p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo'shimchalari: Quantum satis</p> <p>10.2 Qayta ishlangan tuxum va tuxum mahsulotlari: Quantum satis, faqat tozalanmagan qaynatilgan tuxumlar yuzasida</p> <p>4.1.1 Yangi meva va sabzavotlar butunligicha: Quantum Satis, faqat mevalar: sitrus, qovun, olma, nok, shaftoli, ananas, anor, mango, avakado va papayyalarga sirdan ishlov berish uchun, shuningdek yong'oqlar uchun qiyom sifatida.</p>
E 905	Mikrokristal mum	<p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: Quantum satis, faqat sirtiga ishlov berish</p> <p>5.3 Saqich: Quantum satis, faqat sirtiga ishlov berish</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to'ldiruvchilar: Quantum satis, faqat sirtiga ishlov berish</p> <p>4.1.1 Yangi uzilgan meva va sabzavotlar: Quantum satis, faqat mevalar: qovun, papayya, mango, avakado va ananaslarga sirdan ishlov berish uchun.</p>
E 907	Vodorodlangan poli-1-detsen	<p>4.2.1 Quritilgan meva va sabzavotlar: ML = 2000 mg/kg, sirlovchi vosita sifatida faqat quritilgan mevalar qo'llaniladi.</p> <p>5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: ML = 2000 mg/kg, faqat shakarli qandolat mahsulotlari uchun qiyom sifatida.</p> <p>5.3 Saqich: ML = 2000 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p> <p>5.4 Dekorativ qoplamalar va to'ldiruvchilar: ML = 2000 mg/kg, faqat sirlovchi vosita sifatida</p>
E 914	Oksidlangan polietilen mumi	<p>4.1.1 Yangi meva va sabzavotlar butunligicha: Quantum Satis, faqat mevalar: qovun, papayya, mango, avakado va ananasga sirdan ishlov berish uchun</p>
E 920	L-sistein	<i>Quantum satis</i>
E 927b	Karbamid	5.3 Saqich: ML = 30 000 mg/kg, faqat shakar qo'shilmasdan
E 938	Argon	<i>Quantum satis</i>

E 939	Geliy	<i>Quantum satis</i>
E 941	Azot	<i>Quantum satis</i>
E 942	Azot oksidi	<i>Quantum satis</i>
E 943a	Butan	2.3 Tovalar uchun o‘simlik moyi purkagich: Quant Satis, faqat tovalar uchun o‘simlik moyi purkagichi (faqat malakali foydalanish uchun) va suv asosidagi emulsion purkagich.
E 943b	Izobutan	2.3 Tovalar uchun o‘simlik moyi purkagich: Quant Satis, faqat tovalar uchun o‘simlik moyi purkagichi (faqat malakali foydalanish uchun) va suv asosidagi emulsion purkagich.
E 944	Propan	2.3 Tovalar uchun o‘simlik moyi purkagich: Quant Satis, faqat tovalar uchun o‘simlik moyi purkagichi (faqat malakali foydalanish uchun) va suv asosidagi emulsion purkagich.
E 948	Kislrorod	<i>Quantum satis</i>
E 949	Vodorod	<i>Quantum satis</i>
E 999	Kvillaya ekstrakti	14.1.4 Xushbo‘ylashtirilgan ichimliklar: ML = 200 mg/l Suvsiz ekstraktga hisoblaganda 14.2.3 Sidr va perri: ML = 200 mg/l, <i>tiqinlangan sidrdni hisobga olmagam holda</i> Suvsiz ekstraktga hisoblaganda
E 1103	Invertaza	<i>Quantum satis</i>
E 1105	Lizotsim	1.7.2 Yetilgan pishloq: <i>Quantum satis</i> 1.7.6 Pishloq mahsulotlari (16-toifaga kiruvchi mahsulotlar bundan mustasno): Quantum Satis, faqat yetilgan mahsulotlar 14.2.1 Pivo va solodli ichimliklar: Quantum satis, faqat na pasterizatsiya qilinmaydigan, na sterillovchi filtratsiya qilinmaydigan pivoda. 14.2.4 Mevali sharoblar va tayyor sharob: Quantum satis, <i>faqat uzum sharbati sharobi va xushbo‘ylashtirilgan uzum sharbati sharobi</i> 14.2.8 Boshqa alkogolli ichimliklar, shu jumladan alkogolli ichimlik aralashmalari: Quant satis, faqat mevali sharob damlamasi, xushbo‘ylashtirilgan mevali sharob damlamasi, uzum sharbati damlamasi, xushbo‘ylashtirilgan uzum sharbati sharobi damlamasi, mevali yoki asalli sharob ichimligi, xushbo‘ylashtirilgan mevali yoki asalli sharob ichimligi, past alkogolli mevali sharob va xushbo‘ylashtirilgan past alkogolli mevali sharob
E 1200	Polidekstroza	<i>Quantum satis</i>
E 1201	Polivinilpirrolidon	11.4.3 Tabletkalar shaklidagi stolusti shirinlashtirgichlari: <i>Quantum satis</i> 17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: Quantum Satis, faqat tabletkalar va

		qobiq bilan qoplangan tabletkalar ko‘rinishidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari. 13.2 Maxsus tibbiy maqsadlar uchun parhezli oziq-ovqat mahsulotlari: <i>Quantum satis</i>
E 1202	Polivinilpolipirrolidon	11.4.3 Tabletkalardagi stolusti shirinlashtirgichlar: <i>Quantum satis</i> 17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: Quantum Satis, faqat tabletkalar va qobiq bilan qoplangan tabletkalar ko‘rinishidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari.
E 1203	Polivinil spirti (PVA)	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 18 000 mg/kg, faqat kapsula va tabletkalar ko‘rinishidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari
E 1204	Pullulan	5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar: Quantum satis, faqat plyonkalar ko‘rinishidagi nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar 17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: Quantum Satis, faqat kapsula va tabletkalar ko‘rinishidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari
E 1205	Asosiy metakrilat sopolimeri	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 100,000 mg/kg, chaynaladigan shakldagi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tashqari.
E 1206	Neytral metakrilat sopolimeri	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 200,000 mg/kg, chaynaladigan shakldagi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tashqari
E 1207	Anionli metakrilat sopolimeri	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 100,000 mg/kg, chaynaladigan shakldagi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tashqari.
E 1208	Polivinilpirrolidon va vinilatsetat sopolimeri	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 100,000 mg/kg, chaynaladigan shakldagi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tashqari.
E 1209	Polivinil spirti va polietilenglikolning <i>payvandlangan</i> sopolimeri	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 100,000 mg/kg, chaynaladigan shakldagi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tashqari.
E 1210	Karbomer	17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 200,000 mg/kg 17.2 Suyuq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 30,000 mg/kg
E 1404	Oksidlangan kraxmal	<i>Quantum satis</i>
E 1410	Monokraxmalfosfat	<i>Quantum satis</i>
E 1412	Dikraxmalfosfat	<i>Quantum satis</i>
E 1413	Fosfatlangan dikraxmal fosfat	<i>Quantum satis</i>
E 1414	Atsetillangan dikraxmalfosfat	<i>Quantum satis</i>

E 1420	Atsetillangan kraxmal	<i>Quantum satis</i>
E 1422	Atsetillangan dikraxmadipat	<i>Quantum satis</i>
E 1440	Gidroksipropil kraxmal	<i>Quantum satis</i>
E 1442	Gidroksipropildikrax malfosfat	<i>Quantum satis</i>
E 1450	Kraxmalli natriy oktenilsuksinati	<i>Quantum satis</i>
E 1451	Atsetillangan oksidlangan kraxmal	<i>Quantum satis</i>
E 1452	Kraxmalli alyuminiy oktenilsuksinati	Faqat inkapsulyatsiya maqsadlari uchun oziq-ovqatga parhezli qo'shimchalarda: tayyor mahsulotda 35 000 mg/kg
E 1505	Trietilsitrat	10.2 Qayta ishlangan tuxum va tuxum mahsulotlari (muayyan oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanishga nisbatan Evropa Parlamenti va Kengashining 1333/2008-sonli Reglamentiga II va III-ilovalariga tuzatish kirituvchi va to'g'rilovchi 2015 yil 24 apreldagi 2015/647-sonli (ES) Komissiya reglamenti). EEA talablariga mos bo'lgan matn 15.05.2015 dan amal qiladi.) Individual cheklovlar/istisnolar Quantum satis, faqat quruq tuxum oqi 17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo'shimchalari: ML = 3500 mg/kg, faqat kapsula va tabletkalar shaklidagi oziq-ovqat qo'shimchalari.
E 1517	Glitseril diatsetat (diatsetin)	Barcha xushbo'ylashtirgichlar: 3000 mg/kg, Ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq iste'mol qilinayotgan yoki qayta tiklangan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha manbalaridan alohida yoki kombinatsiyalangan holda olingan. Qaymoqli likyorlardan tashqari ichimliklar uchun maksimal daraja E 1520 barcha manbalardan 1000 mg/l ni tashkil etishi kerak.
E 1518	Glitseril triatsetat (triatsetin)	5.3 Saqich: <i>Quantum satis</i>
E 1519	Benzil spirti	Tayyorlash uchun xushbo'ylashtiruvchi moddalar: - likyorlar, xushbo'ylashtirilgan sharoblar, xushbo'ylashtirilgan sharob ichimliklari va xushbo'ylashtirilgan sharob mahsuloti kokteyllari: tayyor mahsulotlarda 100 mg/l - qandolat mahsulotlari, shu jumladan shokolad va tansiq non-bulka mahsulotlari: 250 mg/kg, barcha manbalardan, ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq iste'mol qilingan yoki qayta tiklangan oziq-ovqat mahsulotlarida.

E 1520	Propan-1,2-diol (propilenglikol)	<p>Barcha taomga parhezli qo‘shimchalar: 1000 mg/kg tayyor ovqatda oziq-ovqat mahsulotida (qoldiq sifatida)</p> <p>Bo‘yoqlar, emulgatorlar va antioksidantlar: 1000 mg/kg, tayyor oziq-ovqat mahsulotida (qoldiq sifatida)</p> <p>Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari (ozuqa mahsulotlaridan tashqari): Barcha manbalardan maksimal daraja 3000 mg/kg</p> <p>Qaymoqli likyorlardan tashqari ichimliklar: maksimal daraja E 1520 barcha manbalardan 1000 mg/l ni tashkil qilishi kerak.</p> <p>Fermentlar: 500 g/kg</p>
E 1521	Polietilenglikol	<p>11.4.2 Kukun shaklidagi stol usti shirinlashtirgichlari: Quantum satis</p> <p>11.4.3 Tabletkalar shaklidagi stol usti shirinlashtirgichlari: <i>Quantum satis</i></p> <p>17.1 Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari: ML = 10 000 mg/kg, faqat kapsula va tabletka shaklidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari.</p>

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
4-ilova

Oziq-ovqat toifalari

№	Toifa raqami	Oziq-ovqat mahsulotlari toifalarining nomi va tavsifi
1	0	Barcha oziq-ovqat mahsulotlari toifalari
2	01	<p>Sut mahsulotlari va o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari.</p> <p>Ushbu toifaga har qanday sut beruvchi hayvonlarning sutidan (masalan, sigir, qo‘y, echki, buyvol, eshak, ot) olingan sut mahsulotlarining barcha turlarini o‘z ichiga oladi, 02 toifadagi “Yog‘ va moylar, shuningdek yog‘ va moy emulsiyalari”, 03-toifadagi “Oziq-ovqat muzi”, 14-toifadagi “Ichimliklar” va 16-toifadagi “Shirinliklar” bundan mustasno.</p> <p>Bu toifa shuningdek, 01.8-toifa “Sut mahsulotlariga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, ichimliklarni oqartiruvchi vositalar” toifasini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu toifada “xushbo‘ylashtirilgan” mahsulot - har qanday turdagi ta‘m va/yoki xushbo‘y hid beruvchi qo‘shilgan mahsulot (shakar, shirinlashtirgich, xushbo‘ylashtiruvchi moddalar, meva mahsuloti, ziravorlar, sabzavotlar va sh.k.); bu “xushbo‘ylashtirilmagan”ning teskarisini bildiradi. Ushbu toifa tarkibida shuningdek tegishli laktozasiz oziq-ovqat mahsulotlari ham mavjud.</p>
3	01.1	<p>Xushbo‘ylashtirilmagan pasterizatsiyalangan va sterilizatsiyalangan sut, (shu jumladan, ultrapasterizatsiyalangan) (UHT). Ushbu toifa qaymog‘i olinmagan, yog‘sizlantirilgan va yarim yog‘sizlantirilgan sut, shuningdek, suyuq sut ko‘rinishida iste‘mol qilish uchun mo‘ljallangan sutni (masalan, laktozasiz oziq-ovqat mahsulotlari) qamrab oladi.</p>
4	01.2	<p>Sut-qatiq mahsulotlari (fermentlangan sut mahsulotlari) xushbo‘ylashtirilmagan, xususan, tabiiy xushbo‘ylashtirilmagan (sterilizatsiyalangan moydan tashqari) va achitilgandan keyin termik ishlov berilmagan (fermentlanmagan) ardob.</p> <p>Sut-qatiq mahsulotlari achitish yoki bakteriyalar ta‘siri ostida o‘z-o‘zidan achishi yo‘li bilan yoki sut kislotasi hosil qiluvchi bakteriyalar yoxud ta‘m hosil qiluvchi bakteriyalarni emlash yo‘li bilan ishlab chiqariladi.</p> <p>Ardob - bu moy tayyorlash jarayonida qoladigan deyarli yog‘sizlantirilgan suyuqlik (masalan, fermentlangan yoki fermentlanmagan sut va qaymoqni ko‘pirtirish). Ardob shuningdek tarkibidagi yog‘ miqdori nisbatan kam bo‘lgan suyuq sutni yuqorida umumiy fermentlangan sut mahsulotlari uchun tavsiflangan texnologiyalar yordamida achitish yo‘li bilan ham ishlab chiqariladi.</p> <p>Bu toifaga ta‘m qo‘shimchalarisiz kefir, ta‘m qo‘shimchalarisiz yogurt, ta‘m qo‘shimchalarisiz yogurt va ta‘m qo‘shimchalarisiz ayron kiradi.</p> <p>Ushbu toifaga 01.6 toifasiga mansub bo‘lgan ryajenka kirmaydi.</p>
5	01.3	<p>Sut-qatiq mahsulotlari (fermentlangan sut mahsulotlari) xushbo‘ylashtirilmagan, achitilgandan (fermentlangandan) keyin issiqlik bilan qayta ishlangan.</p> <p>Pasterizatsiyalangan yoki sterilizatsiyalangan sariyog‘ni o‘z ichiga oladi.</p> <p>Ushbu toifaga 01.6 toifasiga kiritilgan qaymoq kirmaydi</p>

6	01.4	Xushbo'ylashtirilgan sut-qatiq mahsulotlari (fermentlangan sut mahsulotlari), xususan, termik ishlov berilgan oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifaga termik ishlov berishdan o'tgan va termik ishlov berishdan o'tmagan mahsulotlar kiradi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlaridan shirinliklar sifatida foydalanish mumkin. Ushbu toifaga kirmaydigan boshqa shirinliklar 16-toifaga kiritilgan. Bu toifaga xushbo'y qo'shimchali yogurt, xushbo'y qo'shimchali yogurtli ichimliklar va xushbo'y qo'shimchali ayron kiradi. Ushbu toifaga 01.6 toifasiga kiritilgan xushbo'ylashtirilgan fermentlangan qaymoqlar kirmaydi.
7	01.5	Quruq sut. Bu toifaga qisman suvsizlantirilgan sut va to'liq suvsizlantirilgan konservatsiyalangan sutni qamrab oladi.
8	01.6	Qaymoq va quruq qaymoq. Qaymoq - sutga qaraganda yog'lilik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan suyuq sut mahsuloti. Barcha suyuq, yarim suyuq va yarim qattiq qaymoqli mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Quruq qaymoq - bu qaymoqdan suvni qisman chiqarib tashlash yo'li bilan olish mumkin bo'lgan sut mahsuloti. Ryajenka - pishirilgan sutni sof termofilli sut-qatiq streptokokk ekini bilan ivitish yo'li bilan olinadigan sut-qatiq mahsuloti.
9	01.6.1	Pasterizatsiyalangan qaymoq xushbo'ylashtirilmagan (yog' miqdori kam bo'lgan qaymoqdan tashqari). Tegishli termik ishlov berish orqali pasterizatsiyalanadigan qaymoq
10	01.6.2	Fermentlangan xushbo'ylashtirilmagan qaymoq mahsulotlari va yog' miqdori 20% dan kam bo'lgan o'rnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifaga yog' miqdori 20% dan kam bo'lgan xushbo'ylashtirilmagan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. U fermentlar ta'siri ostida hosil bo'lgan qalin, yopishqoq qaymoqni, shuningdek smetanani (sut kislotasi fermentatsiyasiga duchor bo'lgan qaymoq) qamrab oladi. Unga, shuningdek, yog' miqdori 20% dan kam bo'lgan achitilgan qaymoqdan va smetana o'rnini bosuvchi mahsulotdan olingan, tez tayyorlanadigan xushbo'ylashtirilmagan ko'pirtirilgan qaymoq ham kiradi. Birinci va ikkinchi bandlar xatboshlari maqsadlari uchun o'rnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari - sut mahsulotlariga o'xshash funksiyalarga ega bo'lgan va tarkibida qo'shilgan masalliqalar bo'lishi mumkin bo'lgan oziq-ovqatlardir (lekin sutli tarkibiy qismlarning o'rnini bosmaydi).
11	01.6.3	Boshqa turdagi qaymoqlar. Ushbu toifaga 01.6.1 va 01.6.2 toifalarida qayd etilmagan, harorati pasterizatsiya haroratidan yuqori bo'lgan termik ishlovdan o'tgan oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, sterilizatsiyalangan qaymoq va UVT qaymoq), "Clotted cream" ko'pirtirilgan qaymoq (sariq rangli quyuq qaymoq), pirtirilgan qaymoq (mikser, ko'pirtirgich yoki vilka bilan yengil va ko'pchigan holga kelgunga qadar ko'pirtirilgan qaymoq), 01.6.2 toifasiga kiritilganidan ko'ra yog' miqdori kam bo'lgan boshqa qaymoqlar; xushbo'ylashtirilgan ryajenka ichimligi kabi barcha turdagi qaymoq va quruq qaymoqlar kiradi. Xushbo'ylashtirilgan ko'pirtirilgan ta'm qo'shimchalari qo'shilgan qaymoq 05.4 toifasi bilan qamrab olingan.
12	01.7	Pishloq va tvorog mahsulotlari. Ushbu toifa o'ralgan sut-oqsil tuzilma tarkibida suv va yog'ga ega bo'lgan mahsulotlar deb ta'riflangan pishloq va tvorog mahsulotlarini o'z ichiga oladi.

13	01.7.1	<p>Yumshoq pishloq (yetilmagan), 16-toifaga kiradigan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno.</p> <p>Ushbu toifa tayyorlanganidan keyin darhol iste'mol qilishga tayyor bo'ladigan pishloqlar, masalan, yangi pishloq, tuzli suvdagi yetilmagan pishloqlarni qamrab oladi.</p> <p>Ushbu toifaga:</p> <p>motssarella: cho'ziluvchan yumshoq pishloq;</p> <p>mascarpone: sut qo'shish ehtimoli bilan, sut qaymog'ini kislotali-issiqlik bilan ivitish yo'li bilan olingan yumshoq, yangi, pastasimon pishloq kiradi</p>
14	01.7.2	<p>Qattiq (yetilgan) pishloq.</p> <p>Ushbu toifa tayyorlangandan so'ng darhol iste'mol qilishga tayyor bo'lmagan, lekin muayyan pishloqni tavsiflovchi zarur biokimyoviy va fizikaviy o'zgarishlarning oldini olish uchun vaqt va harorat rejimida saqlanadigan pishloqlarni o'z ichiga oladi. Yetilgan pishloq yumshoq, yarim qattiq, qattiq yoki o'ta qattiq bo'lishi mumkin. Ushbu toifaga:</p> <p>provolone - yetuk qattiq/o'rtacha qattiq cho'ziluvchan pishloq kiradi</p>
15	01.7.3	<p>Pishloqning yeyish mumkin bo'lgan qobig'i - pishloq massasining tashqi, dastlab pishloqning ichki qismi bilan bir xil tarkibga ega bo'ladigan, ammo tuzlangan va / yoki yetilganidan keyin qurib qolishi mumkin bo'lgan qismi. Ruxsat etilgan oziq-ovqat bo'yoqlari faqat pishloqning sirtiga ishlov berish uchun mo'ljallangan.</p>
16	01.7.4	<p>Sut zardobidan tayyorlangan pishloq.</p> <p>Bu toifa sut, qaymoq yoki sutdan olingan boshqa materiallar, va texnologik zarurat tug'ilganda 5% gacha shakar qo'shilgan yoki qo'shilmagan holda zardobni quyushtirish yo'li bilan olingan qattiq yoki ma'lum darajada yarim qattiq oziq-ovqat mahsulotlari, va texnologik zarurat tug'ilganda, quyushtirilgan oziq-ovqat mahsuloti, shu jumladan, asosan sut zardobidan ajratilgan zardob oqsillarini koagulyatsiya qilish orqali ishlab chiqariladigan zardob oqsilli pishloqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu toifaga kiradi quyidagilar kiradi:</p> <p>rikotta - sut va/yoki yumshoq qaymoq va/yoki zardob qaymog'i qo'shilishi ehtimoli bilan zardobni termal yoki kislotali-termik ivitish yo'li bilan olingan, qattiq yangi sut mahsuloti.</p>
17	01.7.5	<p>Eritilgan pishloq.</p> <p>Ushbu toifa pishloq, pishloq aralashmasi va sut yog'i, sut oqsili, quruq sut va turli miqdordagi ichimlik suvi kabi boshqa sut masallqlarini eritish va emulgatsiyalash natijasida olingan pastasimon yoki qattiq oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Eritilgan pishloq ta'm beruvchi qo'shimchali yoki ularsiz bo'lishi mumkin</p>
18	01.7.6	<p>Pishloq mahsulotlari (16-toifaga kiradigan oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari).</p> <p>Ushbu toifa pishloqdan tashqari sut oqsili koagulyatsiyasidan iborat ishlov berish texnologiyasi yordamida olingan va/yoki sutdan olingan oziq-ovqat mahsulotlari, pishloqqa o'xshash yakuniy fizikaviy yoki organoleptik xususiyatli sut mahsulotlarini o'z ichiga oladi.</p>
19	01.8	<p>Shunga o'xshash sutli oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, ichimliklarni oqartiruvchi vositalar.</p> <p>Ushbu toifa sut oqsillari yoki sut yog'lari kelib chiqishi sutga bog'liq bo'lmagan oqsillar, yog'lar yoki moylar bilan qisman yoki to'liq almashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ushbu toifaga, shuningdek, qaymoqqa o'xshash sutdan olinmagan va xom oziq-ovqat mahsulotlari kiradi, shuningdek, ichimliklarni oqartiruvchilar yoki</p>

		qaymoqqa o'xshash oziq-ovqat mahsulotlarini qamrab oladi. Bu qahva, choy, issiq shokolad va boshqa ichimliklarga oziq-ovqat qo'shimchalari sifatida sut yoki qaymoqning o'rni bosish uchun mo'ljallangan suyuq yoki donador moddalardir. Ba'zi qaymoqqa o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari vanil, funduq yoki irland qaymog'i kabi xushbo'ylashtiruvchi moddalarni o'z ichiga oladi. Qaymoqqa o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari past kaloriyali va yog'siz bo'lishi mumkin.
20	01.9	Yeyishli kazeinatlar
21	02	Yog' va moylar, shuningdek yog' va moy emulsiyalari. Ushbu toifa o'simlik yoki hayvonot manbalaridan yoki ularning aralashmalaridan, shu jumladan dengiz manbalaridan olingan barcha yog'li mahsulotlarni o'z ichiga oladi.
22	02.1	Suvsizlantirilgan yog'lar va moylar (suvsizlantirilgan sut yog'idan tashqari). Ozuqaviy yog'lar va moylar asosan o'simlik yoki hayvonlardan, shu jumladan dengiz manbalaridan olingan triglitseridlaridan tashkil topgan oziq-ovqat mahsulotlaridir.
23	02.2	Asosan "moydagi suv" turidagi yog' va moy emulsiyalari
24	02.2.1	Sariyog', quyultirilgan sariyog', eritilgan sariyog' va suvsiz sut yog'i. Ushbu toifa faqat sutdan olingan oziq-ovqat mahsulotlari va/yoki sutdan suv va yog'sizlantirilgan qattiq moddalarni, shuningdek suyuq emulsiyalarni deyarli butunlay yo'q qiladigan tashlaydigan jarayon orqali olingan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Toifaga kam yog'li sariyog' kirmaydi.
25	02.2.2	Boshqa yog' va moy emulsiyalari, xususan, spredlar va suyuq emulsiyalar. Ushbu toifa boshqa moy-yog' emulsiyalari, shu jumladan spredlar va suyuq emulsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu toifaga quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari kiradi: sut yog'lari (faqat sutdan va/yoki ular uchun yog'lar muhim tarkibiy qism hisoblanadigan ba'zi sut mahsulotlaridan olinadigan, qattiq plastik emulsiya shaklidagi asosan "moydagi suv" turidagi mahsulotlar): yog'liligi $\frac{3}{4}$ bo'lgan moy, yarim yog'li moy, x% sutli spred; yog'lar (tarkibida yog' lili 3% dan ko'p bo'lmagan sut yog'i bo'lgan qattiq va/yoki suyuq o'simlik va/yoki hayvon yog'laridan olingan, qattiq plastik emulsiya shaklidagi asosan "moydagi suv" turidagi mahsulotlar): margarin, $\frac{3}{4}$ yog'lilikdagi margarin, yarim yog'li margarin, x% yog'li spredlar; o'simlik va/yoki hayvonot mahsulotlaridan tarkib topgan yog'lar (odam iste'moli uchun yaroqli bo'lgan, sut yog'ining zarrasi oziq-ovqat mahsulotidagi jami yog' miqdorining 10% dan 80% gacha bo'lgan qattiq va/yoki suyuq o'simlik va/yoki hayvon yog'laridan olingan qattiq plastik emulsiya shaklidagi asosan "moydagi suv" turidagi oziq-ovqat mahsulotlari): aralashma, $\frac{3}{4}$ yog'lilikdagi aralashma, yarim yog'li aralashma, x% aralashmali spred; suyuq emulsiyalar: hatto salqin sharoitda ham o'z xossasiga ko'ra suyuqligicha qoladigan, qattiq margarin yoki sariyog'ga muqobil sifatida ishlatiladigan suyuq margarin.
26	02.3	O'simlik yog'i asosidagi oshpazlik spredi. Oshpazlik spredi - ovqat yopishishining oldini olish uchun tova va boshqa idishlarga surtiladigan o'simlik moyi purkagichi.
27	03	Yeyishli muz: oziq-ovqat mahsuloti: suyuq holatdan yopishqoqroq tuzilishga qadar muzlatilgan; muzlatilgan holda saqlanadi, tashiladi, sotiladi va iste'mol qilinadi;

		qonunda ruxsat etilgan barcha oziq-ovqat tarkibiy qismlarini o'z ichiga olishi mumkin
28	04	Meva va sabzavotlar. Ushbu toifa meva, sabzavot, qo'ziqorinlar, ildizmeva va tugunaklar, dukkaklilar, dengiz o'tlari, yong'oqlar va urug'larni o'z ichiga oladi.
29	04.1	Qayta ishlanmagan meva va sabzavotlar. Ushbu toifa barcha qayta ishlanmagan meva va sabzavotlarni o'z ichiga oladi.
30	04.1.1	Butun yangi meva va sabzavotlar. Yangi uzilgan meva va sabzavotlar
31	04.1.2	Tozalangan, to'g'ralgan va maydalangan meva va sabzavotlar. Ushbu toifa tozalanmagan, tozalash, to'g'rash, kesish yoki maydalashdan tashqari qayta ishlov berilmagan meva va sabzavotlarni o'z ichiga oladi.
32	04.1.3	Muzlatilgan meva va sabzavotlar. Ushbu toifa muzlashdan oldin bug'lanishi, bo'linishi yoki to'g'ralishi mumkin bo'lgan yangi meva va yangi sabzavotlarni o'z ichiga oladi. Mahsulot sharbat yoki shakar siropida muzlatilishi mumkin. Masalan, muzlatilgan mevali salat va muzlatilgan qulupnay. Agar meva va sabzavotlar asl holatidan sezilarli o'zgaradigan tarzda bug'latiladigan bo'lsa, oziq-ovqat 04.2.4.1 toifasi ostiga tushishi mumkin.
33	04.2	Qayta ishlangan meva va sabzavotlar. Ushbu toifa quritilgan, konservalangan, shisha idishlarga qadoqlangan meva va sabzavotlar, sirka, yog' yoki tuzli suvdagi meva va sabzavotlar; mevali va sabzavotli yarim mahsulotlar va shinni, jele va marmelad va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi.
34	04.2.1	Quruq mevalar va quritilgan sabzavotlar. Muhim ozuqaviy moddalarga ta'sir qilmasdan, tabiiy suv miqdori mikroorganizmlarning o'sishi uchun zarur bo'lgandan ko'ra kamroq darajagacha kamaytirilgan meva va sabzavotlar. Xususan, quritilgan olma qoqisi, mayiz, quritilgan maydalangan yoki archilgan kokos, qora olxo'ri, anjir qoqisi, quritilgan qo'ziqorin, pomidor qoqisi va quritilgan yasmiq, quritilgan dukkaklar, quritilgan no'xat. Mahsulotni iste'mol qilishdan oldin suvlantirishga mo'ljallangan bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Sharbatni quritish yo'li bilan tayyorlangan, masalan pomidor kukuni va lavlagi kukuni kabi sabzavot kukunlarini o'z ichiga oladi. "Qizil mevalar" atamasi (shuningdek, 04.2.2, 04.2.3 va 04.2.4.1 toifalarida qo'llaniladi) po'choqlari va sharbati/eti qizil bo'lgan qizil-binafsharang rezavor turlariga va qizil-binafsharang danakli meva turlariga kiradi. "Oq sabzavotlar" atamasi (04.2.3 va 04.2.4.1 toifalarida ham qo'llaniladi) quyidagi sabzavotlarni o'z ichiga oladi: maniok, gulkaram, oq selderey, xitoy turpi, sarimsoq va oq piyoz, yerqalampir, topinambur, ko'k piyoz, petrushka ildizi, pasternak, bryukva, sarsabil, karam, oq qo'ziqorin, oq turp, oq sholg'om va oq dukkaklilar.
35	04.2.2	Sirka, moy yoki tuzli suv ichidagi meva va sabzavotlar. Xom sabzavot yoki mevalarga tuz va sirka eritmasi va moydan foydalangan holda ishlov berish yo'li bilan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, bu taomning barqarorligiga yordam beradi. Misollar: marinadlangan karam, marinadlangan bodring, zaytun, marinadlangan piyoz, marinadlangan gulkaram, marinadlangan sabzi, sariyog' ichida qo'ziqorinlar, marinadlangan artishok o'zaklari, marinadlangan olxo'ri, marinadlangan mango bodringlari va marinadlangan yarus.

		Ushbu toifaga shuningdek sirka, moy yoki tuzli suv ichidagi shirin-nordon konservalar ham kiradi.
36	04.2.3	Konservalangan yoki shisha idishga solingan meva va sabzavotlar. Yangi meva yoki sabzavotlar tozalangan, bu'latilgan va suyuq muhit bilan konserva bankalariga, paketlarga, shisha bankalarga yoki boshqa idishlarga joylashtirilgan va issiqlik bilan sterilizatsiyalangan to'liq konservalangan mahsulot, 04.2.4-toifasi bilan qamrab olinadi. Sousli sabzavotlardan iborat konservalangan mahsulot qisman 04.2.3 toifasi bilan qamrab olinadi va unga nisbatan ko'chirish tamoyili qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'p masalliqli oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.
37	04.2.4	Meva va sabzavotlardan qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari, 05.4 toifasiga kiruvchi mahsulotlar bundan mustasno. Ushbu toifa yuqori konsentratsiyadagi shakarli qaynab turgan suv yordamida tayyorlangan meva yoki sabzavot quyqasi, pyuresi, kompoti va shunga o'xshash mahsulotlar kabi yarim mahsulotlarni, shuningdek, butun yoki bo'laklar ko'rinishidagi meva yoki sabzavot yarim mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu toifaga sirka, moy yoki sho'r suv ichidagi oziq-ovqatlar (bu oziq-ovqat mahsulotlari 04.2.2 toifasi bilan qamrab olinadi), shuningdek, 04.2.3 toifasidagi oziq-ovqatlar kirmaydi.
38	04.2.4.1	Meva va sabzavotlarni qayta ishlashdan olingan oziq-ovqat mahsulotlari, kompotdan tashqari. Ushbu toifa 04.2 toifadagi boshqa kichik toifalar bilan qamrab olinmagan qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini o'z ichiga oladi; ularni ishlov berilgandan keyin muzlatish mumkin. "Qayta ishlangan meva va sabzavotlar" atamasi qizil mevalardan tayyorlangan konservalar, dengiz o'tlari asosidagi yarim mahsulotlar, mikro suv o'tlaridan tayyorlanga yarim mahsulotlar, mevali souslar, meva asosidagi siroplar, sardaklar, tayyor zaytun va zaytun asosidagi oziq-ovqatlar, sabzavot pyuresi kabi oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavot pyuresi, meva quyqasi va sharbatlar va kokos sutini o'z ichiga oladi. Ushbu toifaga quyidagilar kiradi: "Mostarda di frutta" - xantalli siropdagi shakarlangan mevalar. Mevali bo'lmagan qo'shimchalar 5.4 toifaga kiritilgan. Shakar siroplari 11-toifaga kiritilgan. Xushbo'y ichimliklar tayyorlash uchun mo'ljallangan quyuqlashtirilgan ko'rinishdagi meva siroplari 14.1.4 toifasiga kiritilgan.
39	04.2.4.2	Kompot, 16-toifaga kiruvchi mahsulotlar bundan mustasno. Kompot - bir yoki bir necha turdagi mevalarning yeyishli qismini, yaxlit yoki bo'laklarga bo'lib, elangan yoki elanmagan, sezilarli quyuqlashuvsiz termik ishlov berish yordamida olingan mahsulot. Shakar, suv, sidr, ziravorlar va limon sharbatidan foydalanish mumkin. Eng keng tarqalgani olma va shaftoli kompotidir.
40	04.2.5	Shinni, jele, marmelad va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa shinni, jele, marmelad, jeleli marmelad, shirin qilingan kashtan pyuresi va boshqa meva yoki sabzavot pastalari, jumladan, past kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari va shakar miqdori kam bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlaridagi eruvchan qattiq moddalar miqdori 60% yoki undan ortiqni tashkil qiladi (qonun bilan belgilangan ba'zi holatlar bundan mustasno), refraktometr tomonidan aniqlanganidek, shakar to'liq yoki qisman shirinlashtirgichlar bilan almashtirilgan mahsulotlar bundan mustasno. Ushbu toifaga, shuningdek,

		marmelad, yong‘oq moyi va yong‘oqli pasta kabi boshqa meva va sabzavotlar, jumladan past kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
41	04.2.5.1	<p>Yuqori sifatli shinni va jelelar.</p> <p>Ekstra shinni - shakar, bir yoki bir nechta mevaning quyultirilmagan quyqasi va suvning tegishli jelesimon konsistensiyaga keltirilgan aralashmasi.</p> <p>Ekstra jele - shakar va bir yoki bir nechta turdagi meva sharbati va/yoki suvli ekstraktlarining jelesimon holatga keltirilgan aralashmasi.</p> <p>1000 g “Ekstra shinni” tayyor mahsulotini tayyorlash uchun ishlatiladigan meva quyqasining miqdori, umumiy qoidaga ko‘ra, 450 g dan kam bo‘lmasligi kerak.</p> <p>1000 g “Extra jele” tayyor mahsulotini tayyorlash uchun ishlatiladigan meva sharbati va/yoki suvli ekstraktlari miqdori, umumiy qoidaga ko‘ra, 450 g dan kam bo‘lmasligi kerak.</p> <p>Ushbu toifa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:</p> <p>Mermelada ekstra - shakarni butun, to‘g‘ralgan, maydalangan, elankdan o‘tkazilgan yoki boshqa mevalar bilan aralash quyuq yoki yarim suyuq holga kelguncha qaynatish orqali tayyorlanadigan mahsulot. Meva tarkibi kamida 50% bo‘lishi kerak. Refraktometr tomonidan aniqlanganidek, eruvchan quruq moddalar miqdori 40 dan 60% gacha.</p> <p>Pekmez (Xorvatiyaning an‘anaviy mahsuloti) - bir yoki bir necha turdagi mevalardan olingan meva quyqasi va/yoki meva pyuresini shakar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan holda qaynatish yo‘li bilan olinadigan, tegishlicha quyuq konsistensiyadagi oziq-ovqat mahsuloti. “Pekmez”ga umumiy meva miqdorining 25% -igacha shakar qo‘shishga ruxsat beriladi.</p>
42	04.2.5.2	<p>Shinni, jele, marmelad va shirin kashtan pyuresi.</p> <p>Ushbu toifaga quyidagilar kiradi:</p> <p>Shinni – shakar, bir yoki bir necha turdagi meva quyqasi va/yoki pyuresining tegishli jelesimon konsistensiyasi va suv aralashmasi (1000 g tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan meva quyqasi va/yoki pyure miqdori, qoidaga ko‘ra, kamida 350 g bo‘lishi kerak).</p> <p>Jele – shakar, bir yoki bir necha turdagi mevaning suvli ekstraktlarning jelesimon quyulikka keltirilgan aralashmasi. 1000 g tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan sharbat va/yoki suvli ekstraktlar miqdori shinni ishlab chiqarish uchun belgilanganidan kam bo‘lmasligi kerak.</p> <p>Marmelad – suv, shakar va sitrus mevalaridan olingan quyidagi mahsulotlardan biri yoki bir nechtasining aralashmasidir: quyqasi, pyuresi, sharbati, suv ekstraktlari va qobig‘i. 1000 g tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan sitrus mevalari miqdori 200 g dan kam bo‘lmasligi kerak, shundan kamida 75 g endokarpiydan olinishi kerak.</p> <p>Jeleli marmelad nomi, agar mahsulot tarkibida kam miqdordagi mayda to‘g‘ralgan qobiqdan tashqari erimaydigan moddalar bo‘lmaganda qo‘llaniladi.</p> <p>Shirinlashtirilgan kashtan pyuresi - suv, shakar va 1000 g tayyor mahsulot uchun 380 g tegishli konsistensiyaga keltirilgan kamida kashtan pyuresi aralashmasi.</p> <p>Mermelada - shakarni butun, to‘g‘ralgan, maydalangan, elakdan o‘tkazilgan yoki boshqa usulda qayta ishlangan mevalar bilan aralashma quyuq yoki yarim suyuq holatga kelguncha qaynatish yo‘li bilan tayyorlangan mahsulot. Meva miqdori kamida 30%, eruvchan quruq moddalar miqdori esa refraktometr tomonidan aniqlanganidek, 40% dan 60% gachani tashkil etadi.</p>
43	04.2.5.3	Shinni, jele, marmelad va shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari.

		Ushbu toifa shinni, jele, marmelad, jeleli marmelad, shirin qilingan kashtan pyuresi va boshqa meva yoki sabzavot pastalari, jumladan, past kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari va shakar miqdori kam bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlaridagi eruvchan qattiq moddalar miqdori 60% yoki undan ortiqni tashkil qiladi (qonun bilan belgilangan ba'zi holatlar bundan mustasno), refraktometr tomonidan aniqlanganidek, shakar to'liq yoki qisman shirinlashtirgichlar bilan almashtirilgan mahsulotlar bundan mustasno. Ushbu toifaga, shuningdek, marmelad, yong'oq moyi va yong'oqli pasta kabi boshqa meva va sabzavotlar, jumladan past kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
44	04.2.5.4	Yong'oq moyi va yong'oq pastalari (spredlar)/ Yong'oq moyi - yong'oqlarni maydalash yo'li bilan tayyorlangan pastasimon mahsulot. Tayyor mahsulot yuqori darajada yog'li tarkibga ega va uni sariyog' kabi surtish mumkin. Misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: yeryong'oq moyi (qovurilgan va maydalangan yeryong'oqlardan yeryong'oq moyi qo'shib tayyorlangan surtma pasta), boshqa yong'oq moylari (masalan, keshyu moyi) va qovoq moyi. Ushbu toifaga 5.2-toifada qamrab olinadigan shirinlashtirilgan kashtan pyuresi va kakao asosidagi yong'oqlar kirmaydi.
45	04.2.6	Ishlov berilgan kartoshka mahsulotlari. Ushbu toifa quyidagi kartoshkali oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi: fri kartoshkasi, muzlatilgan yoki sovutilgan kartoshka taomlari va suvsizlantirilgan kartoshka mahsulotlari (bodroq, granulalar, kukun). Ushbu toifaga 6.4.4 toifasiga kiruvchi kartoshkali nyokki, 15.1 toifasiga kiruvchi kartoshkadan tayyorlangan gazaklar kirmaydi.
46	05	Qandolat mahsulotlari. 5.1 toifadagi barcha kakao va shokolad mahsulotlarini; tarkibida kakao bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan va 5.2 toifasiga kiritilgan boshqa qandolat mahsulotlari; 5.3 toifasiga kiruvchi saqich; 05.4 toifasiga kiruvchi bezaklar va qiyomni qamrab oladi.
47	05.1	Kakao va shokoladdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa kakao va shokoladdan tayyorlangan barcha turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlarini qamrab oladi: kakao moyi, kakao kukuni, yog' miqdori kam bo'lgan kakao kukuni, kukunli shokolad, shirinlashtirilgan kakao kukuni, shokolad, sutli shokolad, oilaviy sutli shokolad, oq shokolad, to'ldirmali shokolad, "a la taza" shokoladi, "familiar a la taza" shokoladi va shokoladli konfetlar.
48	05.2	Boshqa qandolat mahsulotlari, xususan, nafasni yangilash uchun kichik obakilar. Ushbu toifa 05.1, 05.3 va 05.4 toifalaridan tashqari, konfetlar yoki shirinliklar deb ataladigan barcha qandolat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. U tarkibida asosan shakar bo'lgan (shakarli qandolat mahsulotlari) yoki shakar bo'lmagan (kaloriyaliligi (energetik qiymati) past bo'lgan yoki shakar qo'shilmagan), tarkibida kakao bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan barcha turdagi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Konfet va obakilar kabi qattiq qandolat mahsulotlari/konfetlar, jelatin/mevali saqichlar kabi yumshoq qandolat mahsulotlari/jeleli qandolat mahsulotlari/ chaynaydigan konfetlar, jele va shakar ko'pigi/zefir, shuningdek, fondant va pomadka, qizilmiya, karamel, iris, yong'oqholva, marzipan, turrón va mazapan, draje, marmelad, qiyom, holva kabi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Qandolat mahsulotlari (shakar, kraxmal, kakao, quritilgan mevalar asosidagi), sendvich uchun spredlar (kakao asosida, sut asosida, quritilgan

		mevalar asosida, yogʻasosida), shakarlangan mevalar hamda kristallangan va sirlangan meva va sabzavotlar, shirin popkornli gazaklar, oʻxshatib ishlangan shokolad, shokolad oʻrnini bosuvchilar va kakao asosidagi oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kuchli xushboʻy taʼmli tomoq pastilkalari va nafasni tetiklashtiruvchi mikroshirinliklar (xarakterli oʻlchami 1,5 sm dan ortiq boʻlmagan nafasni tetiklashtiruvchi shirinliklar mikroshirinlik hisoblanmaydi)
49	05.3	Saqich. Ushbu toifa tarkibida xushboʻy lashtiruvchi moddalar va xushboʻy moddalar, shirinlashtirgichlar (ozuqaviy yoki noozuqaviy) va boshqa masalliqalar boʻlgan tabiiy yoki sintetik rezinali asosdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini oʻz ichiga olgan. Ularga saqichlar va nafasni tetiklashtiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
50	05.4	Bezakli pardozlash, qoplama/sirlash, toʻldirmalar, 4.2.4 toifasiga kiruvchi meva asosidagi toʻldirmalar, masalan, non va unli qandolat mahsulotlari, yeyishli muz, konfetlar va qandolat mahsulotlari bundan mustasno. Ushbu toifa shuningdek, mevali boʻlmagan toʻldirma, qiyom, qoplamalar, siroplar, shirin souslar va toʻldirmalar, shuningdek xushboʻy lashtirilgan koʻpirtirilgan qaymoq (mikser, koʻpirtirgich yoki vilka bilan yengil va yumshoq boʻlgunga qadar koʻpirtirilgan, istalgan taʼm va/yoki qoʻshimchali qaymoq), bezatish maqsadlari uchun, oziq-ovqat mahsulotlarini qoplash va toʻldirish uchun purkagichli ballonchalardagi xushboʻy lashtirilgan qaymoq va qiyomlarni oʻz ichiga oladi. Bu toifaga quyidagilarga mansub oziq-ovqat mahsulotlari kirmaydi: 8.3.3 toifa oziq-ovqat mahsulotlari; 5.1 toifa, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ishlatiladigan toʻldirma, bezash va qoplash uchun oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno, agar ularga kakao va shokolad mahsulotlariga qoʻyiladigan talablar tatbiq etilmasa; 11 toifa oziq-ovqat mahsulotlari; shuningdek, 04.2.4-toifadagi meva asosidagi toʻldirmalar. Oziq-ovqat qoʻshimchalarining oʻzi (masalan, rang beruvchilar, sirlash agentlari) va ularning tarkibida boshqa oziq-ovqat qoʻshimchalari yoki tashuvchi sifatida ishlatiladigan oziq-ovqat masalliqalari boʻlishi mumkin boʻlgan yarim mahsulotlar ushbu oziq-ovqat mahsulotlari toifasiga kirmaydi.
51	06	Yormalar va don mahsulotlari. Bu toifa 07-toifadagi mahsulotlardan tashqari, boshqali donlardan, baʼzi hollarda esa toifalarda tavsiflanganidek, ildiz va ildizmevalardan, soyali dukkaklardan, donli dukkaklarda va dukkaklilardan olingan qayta ishlanmagan va qayta ishlangan oziq-ovqatlarni oʻz ichiga oladi. 06.2.2 kichik toifasi boshqa botanika manbalaridan olingan kraxmallarni ham qamrab olishi mumkin.
52	06.1	Butun, maydalangan va yassi bodroq qilingan don. Bu toifa muzlatish mumkin boʻlgan yoki mumkin boʻlmagan butun, poʻsti tushgan, qayta ishlanmagan yorma va donlarni oʻz ichiga oladi. Misollar: arpa, makkajoʻxori (mais), suli, javdar, polba, guruch (shu jumladan boyitilgan guruch va bugʻlatilgan guruch), joʻxori, soya va bugʻdoy
53	06.2	Un va boshqa yanchilgan mahsulotlar va kraxmallar. Don ekinlaridan yanchilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari (va baʼzi hollarda ildizmeva, tugunak va dukkaklilar)
54	06.2.1	Un. Don, ildizmevalar, tugunaklar (masalan, manioka), dukkakli gʻalla,

		dukkaklilar, soyali dukkaklilar, kartoshka kabi o'simlik manbalaridan olinadigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, kraxmal bundan mustasno
55	06.2.2	Kraxmallar. Kraxmal – ba'zi o'simlik turlarida, xususan, urug'larda (masalan, don, dukkakli ekinlar, makkajo'xori, bug'doy, guruch, loviya, no'xat) va tugunaklarda (masalan, kartoshka) donador shaklda uchraydigan D-glyukoza polimeri. Polimer alfa-glikozidli aloqalar orqali kondensatsiyalanuvchi D-angidroglyukopiranoza birliklaridan tarkib topgan. Tabiiy kraxmal har bir xom ashyo uchun o'ziga xos bo'lgan jarayonlar bilan ajralib turadi. Toifaga maltodekstrinlar kiradi.
56	06.3	Quruq nonushtalar. Ushbu toifa barcha iste'molga tayyor bo'lgan tez tayyorlanadigan bodroqlar va oddiy issiq nonushta uchun bodroqlarni, shu jumladan yassi bodroqlarni o'z ichiga oladi. Misollarga quyidagilar kiradi: granula turidagi quruq nonushtalar, tez tayyorlanadigan suli bodroqlari, makkajo'xori bodroqlari, bug'doy yoki guruch bodroqlari, ko'p donli (masalan, guruch, bug'doy va makkajo'xori), quruq nonushtalar, myusli, soya, don uni yoki kukuni, "Farina"dan tayyorlangan quruq nonushtalar
57	06.4	Makaron mahsulotlari (makaron). Makaron mahsulotlari manna yormasi/qattiq bug'doy uni yoki manna yormasi/butun qattiq bug'doy uni va suv va/yoki tuxumdan tayyorlangan xamirni ekstruditsiyalash yoki qoliplash yo'li bilan olingan har qanday turdagi qoliplangan mahsulotdan iborat. Makaron mahsulotini quritish yoki quritilmaslik mumkin. Boshqa donlardan olingan undan ham foydalanish mumkin; boshqa masalliqlar (masalan, sabzavot yoki ziravorlar) xamirga ma'lum tuzilish, rang, jihatlar yoki ozuqaviy xossalarni baxsh etish uchun qo'shilishi mumkin.
58	06.4.1	Yangi makaron mahsulotlari. Ushbu toifa konservalash va gigiyenik maqsadlarda ishlab chiqarish jarayonida termik ishlov beriladigan makaron mahsulotlarini qamrab oladi. Yangi xamirning namligi taxminan 25% ni tashkil qiladi. Bu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
59	06.4.2	Quruq makaron mahsulotlari (xamir). Ushbu toifa quruq moddalari bo'yicha namlik miqdori odatda 13% dan oshmaydigan makaron mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Bu toifaga shuningdek, quruq, oldindan qaynatib olingan, termik ishlov berilgan (oldindan pishirilgan) makaron mahsulotlari ham kiradi. Bu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
60	06.4.3	Yangi oldindan ishlov berilgan makaron mahsulotlari (xamir). Ushbu toifa termik ishlov berilgan yangi xamirni (bug'langan) qamrab oladi. Bu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
61	06.4.4	Kartoshkali pilakchalar. Bu toifa kartoshka va/yoki bug'doy uni va/yoki manna yormasi va/yoki tuzdan tayyorlangan xamirdan olingan yuzasida ma'lum chiziqli yoki chiziqsiz kichik sharchalar yoki silindrsimon tayoqchalarni qamrab oladi. Tuxum, sut, sabzavot va oz miqdorda yog' qo'shish mumkin. Oldindan pishirilgan kartoshkadan tayyorlangan nyokki va sovutilgan nyokkini o'z ichiga oladi.
62	06.4.5	Qiyima to'ldirilgan ziravorli makaron (xamir) mahsulotlari (ravioli va boshqa shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari).
63	06.5	Boshqa makaron mahsulotlari (ishlov berilgan).

		Ushbu toifa ishlov berilgan (ya'ni, qizdirilgan, qaynatilgan, bug' bilan ishlangan, pishirilgan, oldindan jelatinlangan yoki muzlatilgan), odatda ishlov berilgandan keyin quritilgan, asosan don va suvdan tayyorlangan xamirdan iborat bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ularga oldindan jelatinlangan, iste'molchiga sotilishidan oldin qizdirilgan va quritilgan tez tayyorlanadigan makaron mahsulotlari kiradi.
64	06.6	Klyarlar (suyuq xamir). Ushbu toifa bulash, bulash uchun qoq non va odatda go'sht, baliq, parranda go'shti, kartoshkali oziq-ovqatlar va shunga o'xshash mahsulotlarni qoplash uchun ishlatiladigan xamirni o'z ichiga oladi.
65	06.7	Oldindan tayyorlangan yoki qayta ishlangan yormalar. Bu toifaga tayyorlangan va qayta ishlangan guruch mahsulotlari, jumladan guruchli kulchalar (faqat sharqona turdagi) va tez tayyorlanadigan guruch, polenta va Semmelknodelteig kabi oldindan qaynatib olingan boshqa donlar kiradi.
66	07	Non mahsulotlari va qandolat un mahsulotlari. Bu toifa asosan don yoki g'alla unidan tayyorlanadigan va, ehtimol, qayta ishlangan, masalan, toblangan, bug'da pishirilgan, ekstruziya qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Har biriiga tayyor xamirni kiritish mumkin bo'lgan 7.1 va 7.2 toifalarini o'z ichiga oladi.
67	07.1	Non va bulochkalar. Bu toifaga barcha oddiy non mahsulotlarini o'z ichiga oladi: non (masalan, bug'doy noni, javdar noni, butun donli non, ko'p donli non, solod noni, pumpernikelli non), bulochkalar (gamburger uchun bulochkalar, butun bug'doyli bulochkalar, sutli bulochkalar), shoxchalar, lavash, Meksika kulchalari va bug'langan karsillama non. Bu toifaga non asosidagi oziq-ovqatlar, masalan, qovurilgan non, nonli to'ldirmalar, tayyor xamir (6.6-toifada qamrab olingan bulash va xamirdan tashqari) kiradi.
68	07.1.1	Faqat quyidagi masalliqlardan tayyorlangan non: bug'doy uni, ichimlik suvi, xamirturush yoki achitqi, tuz
69	07.1.2	Fransuz noni "Pain courant frangais" - bu asosan quyidagi masalliqlardan tayyorlanadigan non: non poshirish uchun uni (bug'doy uni, javdar uni, meslin uni), ichimlik suvi, xamirturush va/yoki achitqi, tuz. Boshqa oziq-ovqat masalliqdari umumiy milliy tamoyillarga muvofiq tenologik maqsadlarida qo'shilishi mumkin. "Feher kenyerek" - xamirturush yoki xamirturush o'rnini bosuvchi modda solingan 100% bug'doy unidan iborat bo'lgan, xamirni yopish, shakl berish, oshirish va pishirish yo'li bilan tayyorlangan oq non; "Felbarna kenyerek" - xamirturush yoki xamirturush o'rnini bosuvchi modda solingan 85% yarim oq bug'doy uni va 15% yengil javdar unidan iborat bo'lgan, xamir qorish, shakl berish, oshirish va pishirish yo'li bilan tayyorlanadigan yarim oq non.
70	07.2	Unli qandolat un mahsulotlari va nafis non mahsulotlari (fine bakery wares). Ushbu toifa pechenye, pirojnoye, keks, ponchik, biskvit, makaron (ya'ni, odatda tuxum oqidan qilinadigan dumaloq mahsulotlar), qoq non, donli batoncha, pirog, bulochka, kulcha, vafli, tort, quymoq, pryanik, ekler, kruassan kabi shirin, sho'r va xushta'm oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek krekerlar, karsillama non va non o'rnini bosuvchi mahsulotlar, shu jumladan tayyor xamir*, uni tayyorlash uchun aralashmalar*). Bularga, shuningdek, biskvitli tortlar, essoblaten va vafli qog'ozlari, shuningdek, yeyishli qog'ozlarni o'z ichiga oladi ("yeyishli qog'oz" qog'ozga emas, balki bozorda "yeyishli qog'oz" nomi ostida joylashtirilgan va odatda quritilgan

		<p>kraxmal barglaridan tarkib topgan yoki har xil qalinlikdagi yoki quyuvlikdagi va shunday sifatda iste'mol qilinadigan guruch yoki kartoshka kraxmalidan tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlariga talluqlidir). Ushbu toifada kreker – quruq pechenye (don uniga asoslangan pishiriq), masalan, sodali krekerlar, javdar chipslari, matsa.</p> <p>Qandolat non mahsulotlari uchun bezak, qoplama va to'ldirma materiallari (fine bakery wares) bezak, qoplama va to'ldirmalarning tabiati asosida tegishli toifa, masalan, 04.2.5, 05.4 toifalari bilan qamrab olinadi.</p>
71	08	<p>Go'sht</p> <p>Ushbu toifaga barcha turdagi go'sht, parranda va yovvoyi qush go'shtlari kiradi. Ushbu toifa shuningdek go'sht uchun submahsulotlar, qobiq va bulamalarni ham o'z ichiga oladi.</p>
72	08.1	<p>Qayta ishlanmagan go'sht.</p> <p>Qayta ishlanmagan xom go'sht, parranda va yovvoyi qushlar go'shti, kepak va qiyma. Misollar: mol go'shti va cho'chqa go'shti nimtasi, yangi qoni, yangi butun tovuqlar va tovuq qismlari, yangi bo'laklar, masalan, mol go'shti, cho'chqa go'shti, sovliq yoki qo'y go'shti, steyklar, mol organlari (masalan, yurak, buyrak, ichaklar), cho'chqa tili va cho'chqa gismlari</p>
73	08.2	<p>Yarim tayyor go'sht mahsulotlari.</p> <p>Yangi go'sht, shu jumladan bo'laklarga maydalangan, oziq-ovqat mahsulotlari, ziravorlar yoki qo'shimchalar qo'shilgan yoki go'sht mushak tolalarining ichki tuzilishini yangi go'shtning xususiyatlari yo'qolishiga olib keladigan darajada o'zgartirish uchun yetarli bo'lmagan jarayonlarga tortilgan go'sht.</p> <p>Yarimtayyor go'sht mahsulotlari "qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari" yoki "qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari" ta'rifi ostiga tushishi mumkin.</p> <p>Misol uchun, agar "qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari" ta'rifida qo'llaniladigan harakatlar aniq mahsulotning ichki mushak tolasi to mushak tolasining markaziga qadar to'liq o'zgartirish uchun yetarli bo'lmasa va bu bilan yangi go'sht xususiyatlarini bartaraf bo'lsa, yarimtayyor go'sht mahsuloti "qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari" ta'rifi ostiga tushadi.</p> <p>Ushbu toifa shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <p>"Ahjupraad": cho'chqa go'shtining butun bo'lagidan go'sht tanavori. Yog'liligi 20% dan kam, tuz miqdori 1,1 - 1,7% (NaCl). Sirka, ziravorlar, dorivorlar va oziq-ovqat qo'shimchalari qo'shiladi. Mahsulot vakuumli stakanga solinadi va har 30 daqiqada 2 marta aralashtiriladi. Foydalanish vaqtida termik ishlov berilishi lozim.</p> <p>"Bifteki": Yunoniston va Kipr mahsuloti bo'lgan, >50% qiyma go'shtdan, kamida 8% non mahsulotlari va turli sabzavotlar, ziravorlar, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari va, ushbu toifa uchun ruxsat etilgan oziq-ovqat ranglaridan tashqari, ruxsat etilgan oziq-ovqat qo'shimchalari, shuningdek, qizil qalampir oziq-ovqat bo'yog'i ekstrakti (E160c) qo'shilgan holda tayyorlangan mahsulot. 2% gacha oqsil (tuxum, sut, soya), 1,5% gacha tabiiy tolalar va shakar qo'shishga ruxsat etiladi.</p> <p>"Bila klobasa": cho'chqa go'shtidan chexiyacha go'sht tanavori tayyorlash. Shuningdek mol go'shti ham ishlatilishi mumkin (maksimal miqdori 20%). Aralashma tarkibida tuz, dorivorlar va ziravorlar (odatda qalampir va muskat yong'og'i), bulochka yoki non bolash uchun qoq non va suv mavjud. "Bila klobasa" ning turli xil retseptlari sut va/yoki qaymoq, tuxum melanji, limon qobig'i, dekstroza va ruxsat etilgan oziq-ovqat qo'shimchalaridan iborat bo'lishi mumkin. Aralashma asosan yaxshilab maydalangan bo'ladi, lekin</p>

	<p>tarkibida yarim yanchilgan go'sht bo'laklari bo'lishi mumkin. Yeyishli (odatda tabiiy) qobiqlarga to'ldirilgan va ko'proq burash yo'li bilan bo'g'imlanadi.</p> <p>“Burger uchun go'shti”: go'shtdagi sabzavot va/yoki donlarning minimal miqdori 4% ni tashkil qiladi.</p> <p>“Brate”: an'anaviy (kolbasa go'shti), ko'proq janubiy Germaniyada (Bavariya, Baden-Vyurtemberg, Gessen) tarqalgan, xom, uy sharoitlarida tayyorlash (pishirish) uchun mo'ljallangan, mayda to'gralgan NO₂ va tuzli aralashma.</p> <p>Nonushta uchun kolbasa: Irlandiya va Buyuk Britaniya mahsuloti bo'lgan yarimtayyor go'sht. Ushbu mahsulotda go'sht mushak va yog' to'qimalari to'liq yoyilib ketadigan darajada maydalanadi, shuning uchun tolalar mahsulotga o'ziga xos ko'rinish bergan holda yog'li emulsiya hosil qiladi. Boshqa masalliq'larga misollar don, ziravorlar va o'tlarni o'z ichiga oladi.</p> <p>“Nonushta uchun kolbasa” odatda yeyishli qobiqda yoki usiz sotiladi. Mahsulot odatda, xom holda sotiladi, yuqori suv faolligiga va neytral holatga yaqin bo'lgan pH qiymatiga ega. “Nonushta uchun kolbasa”ni muzlatgichda saqlash va doimo iste'mol qilishdan oldin qovurish, grilda tayyorlash, ochiq olovda pishirish, toblash yo'li bilan tayyorlash yoki “Bangers and Mash”, (sosiska va pyure), “Toad in the Hole” (Uyadagi qurbaqa), “Sausage Rolls” (sosiska) yoki “Scottish Lorn” (Lorn kolbasasi) (kvadrat haklda, qobiqsiz) kabi an'anaviy retseptlardan foydalanish kerak.</p> <p>“Careta de cerdo adobada”: “adobo” bilan ishlov berilgan cho'chqa yonoqlaridan tayyorlangan ispancha qayta ishlangan yarimtayyor go'sht mahsuloti. Bu jarayon an'anaviy ispancha marinadlash va quritish usuli bo'lib, u 4 dan 7 ° C gacha bo'lgan haroratda yuz beradi va 2 dan 5 sutkagacha davom etadi. Bu go'shtni “uqalash” yoki go'shtni masalliq'lar va ziravorlar (odatda tuz, qizil qalampir, sarimsoq, petrushka va/yoki oregano), shuningdek keyinchalik yetiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari aralashmasidan iborat sho'r suvga botirib qo'yish/go'sht ichiga yuborishdan iborat.</p> <p>“Chevapchichi”: har xil turdagi yangi to'g'ralgan go'sht (mol, cho'chqa yoki qo'y go'shti), 0 - 24% qattiq yog', tuz, ziravorlar (sarimsoq, qalampir va hk.), ba'zan esa boshqa oziq-ovqat masalliq'lari (sabzavot, pishloq va hk.) va ruxsat etilgan an'anaviy ravishda ishlatiladigan oziq-ovqat qo'shimchalaridan (masalan, natriy karbonat, karmin, askorbin kislotasi, kislotaliik regulyatorlari va mahsulotlarda ruxsat etilgan boshqa toifalar) tayyorlangan Xorvatiya yarim tayyor go'sht mahsuloti. “Chevapchichi” asosan silindrsimon qismlar shaklida, ba'zan plastina yoki kvadrat shaklda shakllanadi. Bundan tashqari, silindrsimon qismlar yog'och cho'qmorda (“sis-cevapcici” deb ataladi) bo'lishi mumkin. “Chevapchichi” har xil o'lcham va vaznda bo'lishi mumkin. “Chevapchichi” turli xilda foydalanish uchun mo'ljallangan, ammo an'anaviy ravishda grilda pishiriladi.</p> <p>“Costilla adobada de cerdo”: “adobo” bilan ishlov berilgan cho'chqa qovurg'alaridan tayyorlangan ispancha qayta ishlangan yarimtayyor go'sht mahsuloti. Bu jarayon an'anaviy ispancha marinadlash va quritish usuli bo'lib, u 4 dan 7 ° C gacha bo'lgan haroratda yuz beradi va 2 dan 5 sutkagacha davom etadi. Bu go'shtni uqalash yoki go'shtni masalliq'lar va ziravorlar (odatda tuz, qizil qalampir, sarimsoq, petrushka va/yoki oregano), shuningdek keyinchalik yetiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari aralashmasidan iborat sho'r suvga botirib qo'yish/go'sht ichiga yuborishdan iborat.</p>
--	---

	<p>“Gyros”: bir turdagi go’shtning butun bo‘laklaridan yoki har xil turdagi aralashmalardan tayyorlanadi. Cho‘chqa, mol, qo‘y, tovuq va boshqa go’shtlardan foydalanish mumkin. Go’sht bo‘laklari quruq yoki suv yoki yog‘ asosidagi noyob ziravorlar, tuz, ruxsat etilgan qo‘shimchalar va bog‘lovchi material bilan aralashtiriladi. Keyin go’sht tanavori qovuruvchi issiqlik manbai oldida aylanadigan tegishli uskunaga (baland vertikal sixga) joylashtiriladi, keyin esa kichik bo‘laklarga kesiladi. 2% gacha oqsillar, 2% gacha kraxmal, 1% gacha o‘simlik tolalari va shakar va ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘shishga ruxsat beriladi.</p> <p>“Gehakt”: kesilmagan, xamirsimon, yog‘liligi 25% dan ko‘p bo‘lmagan, so‘yish uchun bir yoki bir nechta hayvondan chopish, maydalash yoki boshqa usullar bilan olingan, go’sht qiymasi; uni har xil shaklga keltirish imkonini beradigan tarzda qorishtiriladi.</p> <p>“Golonka peklowana”: iste’mol qilishdan oldin iste’molchilarga keyingi termik ishlov berish taklif qilinadigan polyakcha mahsuloti. U cho‘chqaning old yoki orqa boldirini terisi bilan yoki terisiz, suyagi bilan yoki suyaksiz quritish va, ehtimol, yetiltirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Uch xil quritish usulidan foydalanish mumkin, xususan, sho‘r suv yordamida in’yeksiya yuborish, marinadlash yoki ikkala usulning kombinatsiyasi (ichimlik suvi, tuz, maltodekstrinlar va boshqa qo‘shimchalar - masalan, quritish samaradorligini oshirish uchun natriy askorbat qo‘shilishi mumkin bo‘lgan) nitritlar va/yoki ziravorlar, sabzavotli qaynatma yoki ziravorlar yoki ta’mini yaxshilash uchun boshqa masalliqalar. Quritish muddati quritish usuliga bog‘liq va 1 dan 14 kungachani tashkil etadi. Quritish vaqtida boldirlarni “varaqlash”dan foydalanish mumkin. Marinadlashdan foydalanganda, boldirlar 1-3 kun (yoki undan ko‘p) vaqt davomida pishishi mumkin.</p> <p>“Finnish gray salted Christmas ham” (Fincha xom tuzlangan rojdestvo dudlangan cho‘chqa go’shti): Bu tarkibida suv, tuz, askorbatlar (E 300 - 301) va fosfatlar (E 450, E 451) bo‘lgan sho‘r suvga solingan cho‘chqa soni/son go’shti. In’yeksiyalashdan keyin muzlatish mumkin, muzlatilgan holda qadoqlash va sotish mumkin yoki yangi holda ham sotish mumkin.</p> <p>“Kasseler”: Germaniya va Lyuksemburgdagi an’anaviy (dudlangan yumchatilgan cho‘chqa go’shti), xom, nitritlar (NO₂ va tuz) bilan quritilgan, uy sharoitlarida tayyorlash uchun mo‘ljallangan mahsulot.</p> <p>“Kebap”: Yunoniston va Kipr mahsuloti bo‘lgan, > 75%mol va/yoki qo‘y go’shti qiymasidan non mahsulotlari va turli sabzavot hamda boshqa oziq-ovqatlar qo‘shib tayyorlangan mahsulot.</p> <p>“Kielbasa biala turidagi kielbasa surowa”: uy sharoitlarida termik ishlov berishdan so‘ng iste’mol qilinadigan xom quritilgan (masalan, “biala kielbasa”) - bo‘laklarga bo‘lingan yog‘, ziravorlar va dorivorlar hamda qo‘shimchalar qo‘shilgan go’shtdan tayyorlangan; qobiqlarga tiqilgan polyakcha kolbasa.</p> <p>“Kielbasa surowa typo metka”: termik ishlov berilmasdan iste’mol qilinadigan, cho‘chqa yoki mol go’shtidan olinib, bo‘laklarga bo‘lingan go’sht va yog‘dan tayyorlangan, (“metka tatarska” faqat mol go’shtidan tayyorlanadi) suv, ziravorlar (shu jumladan piyoz), dorivorlar va qo‘shimchalar qo‘shilgan, sun’iy qobiqlarga yoki boshqa to‘siqli qadoqlash birliklariga qadoqlangan polyakcha xom kolbasa.</p> <p>“Lomo adobado de cerdo”: “adobo” bilan ishlov berilgan cho‘chqa to‘sh go’shtining butun bo‘lagidan tayyorlangan ispancha go’sht tanavori. Bu jarayon an’anaviy ispancha marinadlash va quritish usuli bo‘lib, u 4 dan 7 ° C gacha bo‘lgan haroratda yuz beradi va 2 dan 5 sutkagacha davom etadi.</p>
--	---

	<p>Bu go'shtni uqalash yoki go'shtni masalliqalar va ziravorlar (odatda tuz, qizil qalampir, sarimsoq, petrushka va/yoki oregano), shuningdek keyinchalik yetiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari aralashmasidan iborat sho'r suvga botirib qo'yish/go'sht ichiga yuborishdan iborat.</p> <p>“Lomo adobado, pincho moruno, careta adobada, costillas adobadas”: bu oziq-ovqat mahsulotlari “adobo” bilan ishlov berilgan an'anaviy ispancha yarimtayyor go'sht mahsulotidir. Bu jarayon an'anaviy ispancha marinadlash va quritish usuli bo'lib, u 4 dan 7 ° C gacha bo'lgan haroratda yuz beradi va 2 dan 5 sutkagacha davom etadi. Bu go'shtni uqalash yoki go'shtni masalliqalar va ziravorlar (odatda tuz, qizil qalampir, sarimsoq, petrushka va/yoki oregano), shuningdek keyinchalik yetiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari aralashmasidan iborat sho'r suvga botirib qo'yish/go'sht ichiga yuborishdan iborat.</p> <p>“Longaniza fresca va butifarra fresca”: tuz, qalampir va boshqa ziravor va qo'shimchalar bilan ziravorlangan, tabiiy yoki sun'iy qobiqqa to'ldirilgan, yangi maydalangan go'sht, yog' va/yoki yetishtirilgan hayvonlarning yeyishli go'sht submahsulotlaridan tayyorlangan yarimtayyor go'sht mahsulotlari.</p> <p>“Merguez turidagi sosiskalar”: hayvonlar, mol yoki qo'y go'shti va yog'ini maydalash va aralashtirish orqali olingan an'anaviy fransuz oziq-ovqat mahsulotlari. O'ziga xos xususiyatlari - qizil rangi va o'tkir ta'mi.</p> <p>“Mici”: an'anaviy ravishda Ruminiyada tuz, turli ziravorlar va ushbu toifa uchun ruxsat berilgan oziq-ovqat qo'shimchalari (natriy karbonat, karmin va boshqalar) bilan aralashtirilgan gamburgerlar go'shtiga o'xshash (cho'chqa go'shti, mol go'shti, qo'zichoq, parranda go'shti) go'shtning bir yoki bir nechta turlaridan ishlab chiqariladi. Natriy karbonat o'ziga xos ta'm va hid beradi, shuningdek, go'shtni bog'laydi. Karmin grilda pishirgandan keyin ham yangi go'shtning o'ziga xos rangini saqlab qoladi. Mahsulot grilda pishirish uchun mo'ljallangan, taxminan 50 g lik silindrsimon qismlarga qo'lda yoki avtomatik tarzda shakllantiriladi.</p> <p>“Pljeskavice”: har xil turdagi (mol go'shti, cho'chqa go'shti yoki qo'y go'shti) chopilgan yangi go'sht, 0 - 24%-lik qattiq yog', tuz, ziravorlar va dorivorlar (sarimsoq, qalampir va hk.), ba'zan esa boshqa oziq-ovqat masalliqalari (sabzavot, pishloq va hk.) va ruxsat etilgan an'anaviy ravishda ishlatiladigan oziq-ovqat qo'shimchalaridan (masalan, natriy karbonat, karmin, askorbin kislotasi, kislotalik regulyatorlari va boshqa, ushbu toifadagi mahsulotlarda ruxsat etilgan moddalar) tayyorlangan Xorvatiya yarim tayyor go'sht mahsuloti. “Pljeskavice” asosan turli qalinlik va og'irlikdagi oval va yumaloq shakllarda shakllantiriladi va ba'zan turli xil oziq-ovqat masalliqalari bilan to'ldiriladi. “Pljeskavice” turli maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, ammo an'anaviy ravishda grilda pishiriladi.</p> <p>“Pincho moruno”: cho'chqa go'shti bo'laklaridan tayyorlangan, odatda “adobo” bilan ishlov berilgan kabob sifatida sotiladigan ispancha yarimtayyor go'sht mahsuloti. Bu jarayon an'anaviy ispancha marinadlash va quritish usuli bo'lib, u 4 dan 7 ° C gacha bo'lgan haroratda yuz beradi va 2 dan 5 sutkagacha davom etadi. Bu go'shtni uqalash yoki go'shtni masalliqalar va ziravorlar (odatda tuz, qizil qalampir, sarimsoq, petrushka va/yoki oregano), shuningdek keyinchalik yetiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari aralashmasidan iborat sho'r suvga botirib qo'yish/go'sht ichiga yuborishdan iborat.</p>
--	--

	<p>“Salsicha fresca”: tuz, qalampir va boshqa ziravorlar qo‘shilgan qiyma go‘shtdan tayyorlangan va tabiiy yoki sun‘iy qobiqlarga to‘ldirilgan yangi go‘shтли kolbasa mahsulotlari.</p> <p>“Saslokk”: cho‘chqa yoki tovuq go‘shти kesimlari yoki bo‘laklaridan tayyorlangan yarim tayyor go‘shт mahsuloti. Yog‘liligi 20% dan kam, tuz miqdori 1,1 - 1,7% (NaCl). Sirka, ziravorlar va oziq-ovqat qo‘shimchalari qo‘shiladi. Mahsulot shprintslandi, vakuumli stakanda 2 marta 30 daqiqa davomida aralashtiriladi, so‘ngra marinadda bilan marinadlanadi. Foydalanish vaqtida termik ishlov berilishi lozim.</p> <p>“Seftalia”: kipurcha an‘anaviy go‘shтли mahsulot. Qiymadan (cho‘chqa go‘shти yoki cho‘chqa va mol go‘shти aralashmasidan) tayyorlanadi. Qiymaga ziravorlar qo‘shiladi va piyoz hamda petrushka bilan aralashtiriladi. Go‘shт to‘pchalari shakllantiriladi, yog‘ to‘riga solinadi va ovqatdan oldin grilda qovuriladi.</p> <p>“Souvlaki (kabob)”: butun go‘shт bo‘laklaridan, kichik kubchalardan (o‘lchamlari 2X2X2 dan 5X5X5 sm gacha), yog‘och tayoqchaga terilgan Yunoniston va Kipr mahsuloti. Go‘shт bo‘laklari ziravorlar va dorivorlar, zaytun moyi yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, tuz va ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari (askorbatlar, atsetatlar, sitratlar va laktatlar) va bog‘lovchi materiallar bilan aralashtiriladi, so‘ngra yog‘och tayoqchaga teriladi. “Souvlaki” yangi yoki muzlatilgan holda sotilishi mumkin. 1% gacha oqsillar, 1% gacha kraxmal, 1% gacha o‘simlik tolalari va shakar va ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘shishga yo‘l qo‘yiladi.</p> <p>“Soutzoukaki”: > 50% qiyma go‘shtdan non mahsulotlari va kamida 8% turli sabzavotlar, ziravorlar, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari va ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari, ushbu toifa uchun ruxsat etilgan oziq-ovqat bo‘yoqlaridan tashqari, shuningdek, qizil qalampir oziq-ovqat bo‘yoqlari ekstrakti (E 160c) qo‘shilgan holda tayyorlangan Yunoniston va Kipr mahsuloti. 2% gacha oqsillar (tuxum, sut, soya), tabiiy tolalar va 1,5% shakar qo‘shishga yo‘l qo‘yiladi.</p> <p>“Surfleisch”: Germaniya (Gessenda - “Solber”), Avstriya va Lyuksemburgdagi an‘anaviy mahsulot, NO₂ yordamida mol go‘shtidan (bo‘lak, til) sho‘r suvda (masalan, Surhaxen) marinadlangan xom cho‘chqa go‘shти bo‘laklari. Uy sharoitlarida pishirish uchun ishlatiladi.</p> <p>“Svatecm klobasa”: chexiyacha cho‘chqa go‘shти tanavori; shuningdek mol go‘shtidan ham foydalanish mumkin (maksimal miqdori 25%). Aralashma tarkibida tuz, ziravorlar (odatda qalampir va muskat yong‘og‘i), bulochka yoki bulash uchun qoq non, suv va oq sharob mavjud. Har xil “Svatecm klobasa” turlarining retseptlari shuningdek sut va/yoki qaymoq, tuxum melanji, limon qobig‘i, dekstroza va ruxsat etilgan qo‘shimchalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Aralashma yaxshilab maydalangan bo‘lishi, ammo shuningdek ichida yarim maydalangan go‘shт bo‘laklari ham bo‘lishi mumkin. U yeyishli (odatda tabiiy) qobiqlarga to‘ldiriladi va segmentlantirilmay (yaxlit ip bilan) qoldiriladi.</p> <p>“Syrova klobasa”: chexiyacha cho‘chqa go‘shти tanavori; shuningdek mol go‘shtidan ham foydalanish mumkin (maksimal miqdori 25%). Aralashma tarkibida tuz, ziravorlar (odatda qalampir va muskat yong‘og‘i), bulochka yoki bulash uchun qoq non, suv va oq sharob mavjud. Har xil “Syrova klobasa” turlarining retseptlari shuningdek sut va/yoki qaymoq, tuxum melanji, limon qobig‘i, dekstroza va ruxsat etilgan qo‘shimchalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Aralashma yaxshilab maydalangan bo‘lishi, ammo shuningdek ichida o‘rtacha maydalangan yoki yirik maydalangan go‘shт</p>
--	--

		<p>bo'laklari ham bo'lishi mumkin. U yeyishli (odatda tabiiy) qobiqlarga to'ldiriladi va asosan burash yo'li bilan segmentlanadi.</p> <p>Tatar (Danie tatarskie): termik ishlovsiz iste'mol qilinadigan, mayda to'gralgan mol go'shtidan suv, ziravorlar, dorivorlar va qo'shimchalar qo'shib tayyorlangan polyakcha yarim tayyor go'sht mahsulotlari; to'siqli qadoqlarga qadoqlangan.</p> <p>“Toorvorst”: to'g'ralgan cho'chqa yoki tovuq go'shtidan (5 - 7 mm) tayyorlangan xom kolbasa. Yog'liligi 25% dan kam, tuz miqdori 1,1 - 1,7% (NaCl). Sirka, ziravorlar va oziq-ovqat qo'shimchalari qo'shiladi, aralashma tabiiy yoki sun'iy qobiqqa to'ldiriladi. Foydalanish vaqtida termik ishlov berilishi lozim.</p> <p>“Vinna klobasa”: chexiyacha cho'chqa go'shti tanavori; shuningdek mol go'shtidan ham foydalanish mumkin (maksimal miqdori 15%). Aralashma tarkibida tuz, ziravorlar (odatda qalampir va muskat yong'og'i), bulochka yoki bulash uchun qoq non, suv va oq sharob mavjud, va bir qancha miqdorda suv bo'lishi mumkin. Har xil “Vinna klobasa” turlarining retseptlari shuningdek sut va/yoki qaymoq, tuxum melanji, limon qobig'i, dekstroza va ruxsat etilgan qo'shimchalarni o'z ichiga olishi mumkin. Aralashma asosan yaxshilab maydalangan bo'lishi, ammo shuningdek ichida yarim maydalangan go'sht bo'laklari ham bo'lishi mumkin. U yeyishli (odatda tabiiy) qobiqlarga to'ldiriladi va segmentlantirilmay (yaxlit ip bilan) qoldiriladi.</p>
74	08.3	<p>Go'sht mahsulotlari.</p> <p>Go'shtni qayta ishlash yoki bunday qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlariga kelgusida kesilgan sirt mahsulot endi yangi go'shtning xususiyatlariga ega emasligini ko'rsatadigan holatgacha ishlov berish natijasida hosil bo'lgan qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlaridir. Ishlov berish asl mahsulotni sezilarli darajada o'zgartiradigan har qanday harakat, shu jumladan isitish, dudlash, qoqlash, yetiltirish, quritish, marinadlash, ekstraksiya, ekstruziya qilishni yoki ushbu jarayonlarning kombinatsiyasini anglatadi.</p>
75	08.3.1	<p>Termik ishlov berilmagan go'sht mahsulotlari.</p> <p>Ushbu toifa go'shtni saqlaydigan va saqlash muddatini uzaytiradigan bir necha qayta ishlash (masalan, qoqlash, tuzlash, dudlash, quritish, fermentlash, marinadlash, konservalash, yetiltirish) usullarini o'z ichiga oladi. Misollar: qoqlangan va quritilgan vetchina, fermentlangan va quritilgan kolbasa. Ushbu toifaga quyidagilar kiradi:</p> <p>“Sobrasada”: cho'chqa (yoki boshqa hayvonlar) go'shti qiymasi va yog'dan tayyorlangan, qizil qalampir, tuz va ziravorlar bilan ziravorlangan, surtiladigan pasta hosil bo'lgungacha aralashtirilgan, tabiiy yoki qayta tiklangan sun'iy qobiqlarga qadoqlangan, kelgusida yetiltiriladigan va quritiladigan kolbasa mahsulotlari.</p> <p>“Bratwurst”: cho'chqa go'shti va/yoki mol go'shti (yoki boshqa hayvonlar go'shti), yog', suv, ziravorlar, tuzlangan (kamida 1,5% tuz) yoki qoqlangan (kamida 0,4-0,6% natriy nitratili 1,5% tuz bilan), surtiladigan kolbasa to'ldirmasi hosil bo'lguncha maydalangan va oziq-ovqat qobiqlariga to'ldirilgan go'shtli kolbasa mahsuloti; isitgandan keyin iste'mol qilish uchun mo'ljallangan oraliq mahsulot.</p> <p>“Leberkase”: cho'chqa go'shti va/yoki mol go'shti (yoki boshqa hayvonlar go'shti), yog', suv, kartoshka kraxmali, ziravorlar, tuzlangan (kamida 1,5% tuz) yoki qoqlangan (kamida 0,4-0,6% natriy nitratili 1,5% tuz bilan), surtiladigan kolbasa to'ldirmasi hosil bo'lguncha maydalangan va toblash</p>

		<p>uchun idishga joylashtirilgan go'shtli kolbasa mahsuloti; isitgandan keyin iste'mol qilish uchun mo'ljallangan oraliq mahsulot.</p> <p>“Julskinka” va (shvedcha) an'anaviy qoqlangan cho'chqa va mol go'shti: go'sht qoqlash uchun eritma (odatda 2,3-3% tuz), jumladan konservant sifatida natriy nitrat (har bir mahsulot uchun maksimal 150 mg/kg) va boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari (askorbin kislotasi yoki askorbatlar va ba'zan fosfatlar) bilan shpritslanadi, va shundan so'ng varaqlanishi, yetiltirish uchun uchun saqlanishi yoki qoqlovchi eritmaga botirib qo'yilishi mumkin. Uy sharoitlarida tayyorlash uchun mo'ljallangan.</p> <p>“Julkorv, grynkorv, varmlandskorv va flaskkorv”: Bu cho'chqa go'shti va/yoki mol go'shti qiymasidan va/yoki yog'dan tayyorlangan an'anaviy shved kolbasalari. Emulsiya xususiyatlari bilan yoki ularsiz, tuz va ziravorlar qo'shilishi, tabiiy yoki sun'iy qobiqqa to'ldirilib ishlab chiqariladi, ko'pincha keyinchalik yetiladi. Ushbu kolbasalarning ba'zilarida don yoki kartoshka kabi o'simlik tolalari qo'llaniladi. Uy sharoitlarida tayyorlash uchun mo'ljallangan.</p> <p>“Pasturmas”: kuchli quritilgan, fermentlangan, qoqlangan go'sht mahsuloti. Suvsizlantirish jarayoniga kuchli kompressiyani qo'llash yordam beradi. Asosan kengligi 12 - 20 sm, qalinligi taxminan 5 - 8 sm va uzunligi 40 - 50 sm qilib kesilgan mol go'shtidan (shuningdek, qo'y va echki go'shtidan) tayyorlanadi. Mahsulot 3 bosqichli: tuzlash, presslash va qoqlash bosqichlaridan iborat jarayon yordamida ishlab chiqariladi. Tuzlash jarayoni doimo quruq muhitda sodir bo'ladi va 7-10 kun davom etadi. Tuzlashdan keyin go'sht ko'p miqdordagi sovuq suv bilan yuviladi va suvsizlantirish uchun maxsus xonalarga ilib qo'yiladi. Suvsizlantirishda go'sht presslanadi, bu esa namlikni yo'qotishga yordam beradi. Suvsizlantirishdan so'ng go'sht bo'laklari tashqi tomondan sarimsoq, fenugrek (shuningdek, trigonella nomi bilan tanilgan), qizil qalampir va boshqa ziravorlar/dorivorlar aralashmasi bilan qoplanadi. Keyin go'sht “creole” tashqi qoplamasini quritish va barqarorlashtirish uchun dastlabki suvsizlantirilgan xonada qoldiriladi: bular Fransiyaning dengizorti hududlaridagi (xususan, Reyunyon oroli, fransuz Karib orollari, Fransiya Gayanasi) xarakterli pushti rang, tuzga boy an'anaviy ovqatlardir. Mahsulotlar yoki sho'r suvda, yoki sho'r suvsiz vakuumli qadoqda sotiladi. Mikrobiologik barqarorlik va uzoq saqlash muddatini (odatda 12 oy) ta'minlash uchun tarkibidagi tuz miqdori 1 kg uchun kamida 70 g ni tashkil qiladi. Qaynatishdan oldin oziq-ovqat mahsulotlarini suvda tuzsizlantirish lozim.</p>
76	08.3.2	<p>Termik ishlov berilgan go'sht mahsulotlari.</p> <p>Qaynatilgan (shu jumladan qoqlangan va qaynatilgan, dudlangan va qaynatilgan, quritilgan va qaynatilgan), termik ishlov berilgan (shu jumladan sterilizatsiyalangan) va konservalangan go'sht bo'laklarini o'z ichiga oladi. Misollarga: “fua-gra” va pashtetlar, go'sht pastalari, sterilizatsiyalangan kolbasa, qoqlangan, qaynatilgan vetchina, qoqlangan, qaynatilgan cho'chqa kuragi, konservalangan tovuq go'shti va “tsukudani” soya sousida qaynatilgan go'sht bo'laklari.</p> <p>Ushbu toifaga quyidagilar kiradi:</p> <p>“Libamaj egeszben” (tabiiy g'oz jigari): kamida 90% semirtirilgan g'oz jigaringa bir yoki bir nechta zarralaridan tashkil topgan, va faqat termik ishlov berish orqali tuzlanadigan va konservatsiyalanadigan jigar mahsuloti.</p> <p>“Libamaj tombben” (g'oz jigari bloki): bir parcha cho'chqa yog'i bilan qoplangan bo'lishi mumkin bo'lgan qolipga joylashtirilgan jigar mahsuloti; u yog'siz jigar pastasi qismida va jigarning ko'rinadigan qismlari bilan birga</p>

		<p>kamida 85% g'oz jigarini o'z ichiga oladi; termik ishlov berish orqali konservatsiyalanadi.</p> <p>“Fua gra entier” - bu jigar mahsuloti bo'lib, butun semirtirilgan jigardan yoki semirtirilgan g'oz yoki o'rdak jigarining bir yoki bir nechta qismidan va ziravorlardan tarkib topgan jigar mahsuloti.</p> <p>“Fua gra”: semirtirilgan g'oz yoki o'rdak jigari bo'laklaridan va ziravorlardan tarkib topgan jigar mahsuloti.</p> <p>“Le bloc de foie gras”: Bu qayta tiklangan g'oz yoki o'rdak fu grasi va ziravorlardan tarkib topgan jigar mahsuloti.</p>
77	08.3.3	<p>Go'sht uchun qobiqlar, qoplamalar va bezaklar (bezatish).</p> <p>“Go'sht uchun bezaklar” atamasi go'sht mahsulotlarining yuzasini bezash uchun ishlatiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi.</p> <p>“Qobiq” atamasi kollagen, sellyuloza yoki kelib chiqishi tabiiy bo'lgan moddalardan (masalan, cho'chqa yoki qo'y ichaklari) tayyorlangan, kolbasa aralashmasi uchun mo'ljallangan yeyishli naychalarga kiradi.</p> <p>Ushbu toifaga: go'sht mahsulotlari uchun jeleli sir, shuningdek go'sht uchun sir kiradi.</p> <p>Oziq-ovqat qo'shimchalarining o'zlari (masalan, bo'yoqlar) va ularning tarkibida tashuvchi sifatida qo'llaniladigan boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari yoki oziq-ovqat masalliqalari bo'lishi mumkin bo'lgan preparatlari ushbu oziq-ovqat toifasiga tushmaydi va ularni qo'llash uchun ular ishlatiladigan tegishli oziq-ovqat toifasidagi ruxsatnoma talab qilinadi.</p>
78	08.3.4	<p>Nitritlar va nitratlar to'g'risidagi maxsus qoidalarga ega an'anaviy go'sht mahsulotlari.</p>
79	08.3.4.1	<p>Suvga botirish yo'li bilan tuzlangan an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlari (Go'sht mahsulotlari nitritlar va/yoki nitratlar, tuzlar va boshqa tarkibiy qismlar bo'lgan eritmaga botirish orqali qattiqlashdi).</p> <p>Ushbu toifa quyidagilar kiradi:</p> <p>“Uiltshire bekoni va vetchinasi”: go'shtga konservalangan eritma yuboriladi, so'ngra 3 dan 10 kungacha eritmaga botirib quritiladi. Botirish uchun tuzli eritma tarkibida mikrobiologik achitqiga ega.</p> <p>“Entremeada, entrecosto, chispe, orelheira e cabeza (salgados), toucinhofumado”: 3-5 kun davomida eritmaga botirib quritish. Mahsulotga termik ishlov berilmaydi va yuqori suv faolligiga ega:</p> <p>“Qoqlangan til”: bu toifadagi “qoqlangan til” atamasi faqat oldindan qaynatish bilan kamida 4 kun qoqlangan tillarni qamrab oladi.</p> <p>“Kylmasavustettuporonliha renkott”: go'shtga qoqlash uchun eritma yuboriladi, so'ngra suvga botirib qoqlanadi. Qoqlash vaqti 14-21 kunni tashkil etadi, so'ngra 4-5 hafta davomida sovuq dudlashda yetiltiladi.</p> <p>“Bekon, bekon filesi”: 5 - 7 ° C haroratda 4 - 5 kun davomida botirib qo'yish yo'li bilan qoqlanadi, odatda 22 ° C da 24 - 40 soat davomida yetiladi, 20 - 25 ° C da 24 soat davomida dudlanishi va 12-14 ° C haroratda 3 - 6 hafta saqlanishi mumkin.</p> <p>“Rohschinken, nassgepokelt”: qoqlash vaqti go'sht bo'laklarining shakli va vazniga qarab kelgusida barqarorlashtirish/yetilish bilan taxminan 2 kun/kg. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari ham xuddi shunday tarzda tayyorlanadi.</p>
80	08.3.4.2	<p>Quruq tuzlangan an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlari (quruq ishlov berish jarayoni go'sht yuzasiga ishlov beriladigan nitritlar va/yoki nitratlar, tuz va boshqa tarkibiy qismlardan iborat eritmadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Keyin barqarorlashish/yetilish jarayoni yuz beradi).</p> <p>Quruq bekon va vetchina:</p> <p>kelgusida kamida 4 kun yetiltirish bilan quruq qoqlash.</p>

		<p>“Xamon kurado, paleta kurada”, “lomo embuchado y cecina”: kamida 10 kunlik barqarorlashish davri va 45 kundan ortiq yetilish davri bilan quruq qoqlash.</p> <p>"Presunto, presunto da pa i paio do lombo":</p> <p>“Jambon sec, jambon sel” va boshqa shunga o‘xshash quritilgan qoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari: 3 kun davomida quruq qoqlash + 1 kun / kg, kelgusida tuzlashdan keyin 1 haftalik davr va 45 kundan 18 oygacha saqlash/yetiltirish davri bilan.</p> <p>“Rohschinken, trockengepokelt”: qoqlash vaqti, go‘sh bo‘laklarining shakli va og‘irligiga qarab, taxminan 10 - 14 kun kelgusida barqarorlashtirish/yetiltirish bilan. Shu kabi oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.</p> <p>“Jamón curado”, “paleta curada”: vetchina yoki cho‘chqa kuragidan tayyorlangan, butun yoki bo‘laklarga bo‘lingan, tuyoqli va suyakli yoki ularsiz, kelgusida yuvish, dam olish yoki qo‘shimcha tuzlash va boshqariladigan haroratda quritish va yetiltirish bilan dorivorlar, ziravorlar va qo‘shimchalar bilan qoqlash jarayoniga tortilgan go‘sh mahsulotlari.</p> <p>“Lomo embuchado”: cho‘chqa to‘sh go‘shidan tayyorlangan, qoqlash jarayoniga tortilgan, kelgusida quritish va yetiltirish bilan ziravorlangan va tabiiy yoki qayta tiklangan sun‘iy qobiqlarga to‘ldirilgan mahsulot.</p> <p>“Cecina”: tuyoqli uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlar go‘shining old/orqa choragidan tayyorlangan, kelgusida yuvish, dam berish yoki xona haroratida yetiltirish bilan qoqlash jarayoniga totilgan go‘sh mahsuloti. Qo‘shimcha ravishda dudlash bilan ishlov berish mumkin.</p>
81	08.3.4.3	<p>Boshqa an’anaviy tuzlangan oziq-ovqatlar (imersiv jarayon/ mahsulot nitritlar va/yoki nitratlar o‘z ichiga olganda va tayyorlashdan oldin sho‘r suv mahsulotning ichiga kirganda, botirish jarayoni va quruq tuzlash jarayoni birga uyg‘unlashadi). Bu toifaga quyidagilar kiradi: quruq qoqlash va suvga botirish bilan rombinatsiyada qoqlash (qoqlash eritmasini yubormasdan). Qoqlash vaqti go‘sh bo‘laklarining shakli va og‘irligiga qarab, kelgusida barqarorlashish / yetilish bilan taxminan 14-35 kunni tashkil qiladi.</p> <p>“Buzoq go‘sh va to‘sh go‘sh”: kamida 2 kundan so‘ng, qaynab turgan suvda 3 soatgacha qaynatish bilan qoqlash eritmasini yuborish.</p> <p>“Rohwurst” (salyami va kantwurst) : mahsulot kamida 4 haftalik yetilish davri va 1,7 dan kam suv/oqsil nisbatiga ega.</p> <p>“Salchichon y chorizo tradicionales de larga curacion”: cho‘chqa (yoki boshqa hayvonlar) go‘shining qiymasi va yog‘idan tayyorlangan, qoqlangan, qalampir, qizil qalampir va boshqa ziravorlar bilan ziravorlangan, tabiiy yoki qayta tiklangan sun‘iy qobiqlarga to‘ldirilgan, fermentlangan va dudlangan, boshqariladigan haroratda kamida 30 kun yetiltirilgan va quritilgan kolbasa mahsulotlari.</p> <p>“Vysocina”, “selsky salam”, “turisticky Irvanlivi salam”: kelgusida quritish va 8-12 kun davomida dudlash bilan 70° C da qaynatilgan quritilgan mahsulot.</p> <p>“Polican”, “hercules”, “lovecky salam”, “dunjaska klobasa”, “paprikas”: fermentlangan, 14-30 kun davomida kelgusida dudlash bilan uch bosqichli fermentatsiya jarayoniga tortilishi lozim bo‘lgan mahsulot.</p> <p>“Saucissons secs”: nitritlar qo‘shilmagan fermentlangan quritilgan xom kolbasa. Mahsulot 18-22° C yoki undan past haroratda (10-12 ° C) fermentlanadi va keyin kamida 3 hafta saqlash/ yetilish davriga ega. Mahsulot 1,7 dan kam suv/protein nisbatiga ega. Xususan, shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari.</p>
82	09	Baliq va baliq mahsulotlari.

		Ushbu toifa baliq va baliq mahsulotlari, jumladan, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar va ignatanlilarni o'z ichiga oladi.
83	09.1	<p>Qayta ishlanmagan baliq va baliq mahsulotlari.</p> <p>Bu toifa qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tozalangan, ichak-chavoqlari olingan, kallasi, filelarga bo'lingan, terisidan tozalangan, bo'laklarga bo'lingan va hokazo bo'lishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish, muzlatish va chuqur muzlatish mumkin.</p> <p>File – iste'mol qilish uchun yaroqli bo'lgan bir turdagi baliqning tana go'shtidan umurtqa pog'onasiga parallel ravishda kesilgan nosimmetrik o'lchamdagi va shakldagi baliq tilimchalari, bunday filening qismlari esa qadoqlashni osonlashtirish uchun kesiladi. File terisi bilan yoki usiz, suyaklari bilan yoki suyaksiz, lekin umurtqasiz sotilishi mumkin.</p>
84	09.1.1	<p>Bu toifa baliqlar guruhini qamrab oladi.</p> <p>Bular qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, dengiz, ko'l yoki boshqa suv havzalaridn tutilgandan keyin irish va buzilishining oldini olish uchun sovutilgan, muzda saqlangan yoki muzlatilgan holatlar bundan mustasno.</p>
85	09.1.2	<p>Qayta ishlanmagan qisqichbaqasimonlar va qisqichbaqasimonlar.</p> <p>Bu toifa mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar guruhini qamrab oladi. Bular qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, dengiz, ko'l yoki boshqa suv havzalaridn tutilgandan keyin irish va buzilishining oldini olish uchun sovutilgan, muzda saqlangan yoki muzlatilgan holatlar bundan mustasno.</p>
86	09.2	<p>Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, xususan, mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar.</p> <p>Bu toifa dudlangan, fermentlangan, qoqlangan, termik ishlov berilgan va/yoki tuzlangan baliq va baliq ovlash mahsulotlari, shu jumladan mollyuskalar va qisqichbaqasimonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mahsulotlarni suyuqlik solingan yoki suyuqliksiz (masalan, ichimlik suvi, sho'r suv, moy) bankalarga joylash yoki vakuum yoki modifikatsiyalangan atmosferada qadoqlash mumkin. Ushbu toifa shuningdek baliq oqsillaridan olinadigan va turli shakllarga qayta ishlanadigan surimi va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, baliq to'ldirmalari, baliq pastalari va qisqichbaqasimonlardan tayyorlangan pastalarni o'z ichiga oladi. Qaynatilgan yoki dudlangan ikra ham kiritilgan. Ishlov berilgandan so'ng oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish mumkin.</p> <p>Yarim konservalangan baliq va baliq mahsulotlari: marinadlash, tuzlash va qisman pishirish kabi usullar bilan qayta ishlangan, yaroqlilik muddati cheklangan va sovuqda (< 10°C) saqlash talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari.</p> <p>To'liq konservalangan baliq va baliq mahsulotlari: yaroqlilik muddati uzaytirilgan, pasterizatsiyalash yoki bug'li avtoklav yo'li bilan tayyorlangan va sterillikni ta'minlash uchun vakuumli germetik idishlarga qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari. Oziq-ovqat mahsulotlari o'z shirasida yoki yog' yoki sous qo'shib qadoqlanishi mumkin.</p>
87	09.3	<p>Baliq ikra.</p> <p>Ikra odatda yuviladi, tuzlanadi va shaffof bo'lgunga qadar yetiltiriladi. So'ngra ikra shisha yoki boshqa mos bo'lgan idishlarga qadoqlanadi. "Caviar" (ikra) atamasi faqat osetsimon baliqlarning ikrasiga (masalan, beluga) taalluqli. Ikraning o'rnini bosuvchi mahsulotlar turli xil dengiz va chuchuk suv baliqlarining (masalan, tolstyanka, shep va seld balig'i) tuxumidan tayyorlanadi, ular tuzlanadi, ziravorlar qo'shiladi, rang beriladi</p>

		va konservant bilan ishlov beriladi. Ba’zida ikrani pasterizatsiyalash mumkin. Qaynatilgan yoki dudlangan ikra mahsulotlari va ikra pastasi 9.2 toifa bilan qamrab olinadi; yangi baliq ikra 9.1 toifa bilan qamrab olinadi.
88	10	Tuxum va tuxum mahsulotlari. Ushbu toifa barcha yangi po’stloqli tuxumlarni va boshqa tuxum mahsulotlarini o’z ichiga oladi.
89	10.1	Qayta ishlanmagan tuxum. Ushbu toifa ishlov berilmagan po’stloqli tuxumlarni qamrab oladi.
90	10.2	Qayta ishlangan tuxum va tuxum mahsulotlari. Ushbu toifa muzlatish, suvsizlantirish, quritilish yoki konsentratsiyalash mumkin bo’lgan tuxum va tuxum mahsulotlarini, shuningdek qaynatilgan tuxumni o’z ichiga oladi.
91	11	Shakar, sirop, asal va oshxona shirinlashtirgichlari. Barcha standartlashtirilgan shakarlar (11.1), standartlashtirilmagan oziq-ovqat mahsulotlari (11.2), asal (11.3) va oshxona shirinlashtirgichlarini (11.4) o’z ichiga oladi.
92	11.1	Shakar va siroplar. Ushbu toifa yarim oq shakar, shakar yoki oq shakar, ekstra oq shakar, shakar eritmasi, invert shakar eritmasi, invert shakar siropi, glyukoza siropi, quruq glyukoza siropi, dekstroza yoki dekstroza monohidrat, dekstroza yoki suvsiz dekstroza, fruktozani o’z ichiga oladi. Shakar tolqoni, obakili shakar va konus shaklidagi shakar istisnoni tashkil qiladi.
93	11.2	Boshqa shakar va siroplar. Ushbu toifa xushbo’ylashtirilmagan shakar va siroplar, jumladan shakar pishirish jarayoniga hamroh mahsulotlar, zarang siropi, shakar tolqoni, obakili shakar yoki konus shaklidagi shakarni o’z ichiga oladi. Quyish uchun maxsus shakar va siroplar, masalan, pechene uchun rangli shakar to’ldirmalari va 07.2 toifa mahsulotlari va muzqaymoqlar uchun “Bezak uchun qoplamalar va to’ldirmalar” 5.4 toifasiga kiradigan xushbo’ylashtirilgan siroplar istisno qilinadi.
94	11.3	Asal. Asal - Apis mellifera asalarilari tomonidan o’simlik nektarlarining o’ziga xos moddalari yoki tirik o’simlik qismlari sekretsiyasining yoki asalarilar to’planadigan tirik o’simlik qismlarida o’simlik shirasini so’radigan hasharotlar ajratmasi bilan qo’shish yo’li bilan hosil qilinadigan, kelgusida chiqarish, suvsizlantirish, mumkatalarda dozalash uchun saqlanadigan tabiiy shirin moddadir. Ushbu toifa kelib chiqishi va ishlab chiqarish/taqdim etish usuliga ko’ra asalning asosiy turlarini, shu jumladan qandolat asalini qamrab oladi.
95	11.4	Oshxona shirinlashtirgichlari
96	11.4.1	Suyuqlik shaklidagi oshxona shirinlashtirgichlari
97	11.4.2	Kukun shakldagi oshxona shirinlashtirgichlari
98	11.4.3	Tabletka shakldagi oshxona shirinlashtirgichlari. Ushbu toifa tabletka shaklida sotiladigan, iste’mol qilishdan oldin suyuqlikda eritish uchun mo’ljallangan shirinlashtirgichlarni o’z ichiga oladi.
99	12	Tuzlar, ziravorlar, sho’rvalar, souslar, salatlar va oqsilli mahsulotlar. Bu toifa ovqatga xushbo’ylik va ta’min berish uchun qo’shiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini (tuz va tuz o’rnini bosuvchi moddalar; o’tlar, dorivorlar, ziravorlar va xushta’m moddalar, sirka va xantal), asosan soya yoki boshqa manbalardan olingan oqsildan tarkib topgan alohida tayyor taomlar va oziq-ovqat mahsulotlarini o’z ichiga oladi.

100	12.1	Tuz va tuz o‘rnini bosuvchi moddalar. Ushbu toifa osh tuzi (natriy xloridi) va tuz o‘rnini bosuvchi moddalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ammoniy xlorid va kaliy xloridi bo‘lishi mumkin.
101	12.1.1	Tuz. Bu osh tuzi, yod, fluor va/yoki foliy kislotasi bilan boyitilgan tuz, shuningdek dendrit (osh) tuzi
102	12.1.2	Tuz o‘rnini bosuvchi moddalar. Tuz o‘rnini bosuvchi moddalar - bu oziq-ovqat mahsulotlari, taomlar va mahsulotlarda tuzning muqobili sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan natriy miqdori kamaytirilgan aralashmalar.
103	12.2	O‘tlar, dorivorlar, ziravorlar. Ushbu toifa ulardan foydalanish oziq-ovqat mahsulotlari, taomlar va mahsulotlarning xushbo‘yiligi va ta‘mini kuchaytirishga mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.
104	12.2.1	O‘tlar va xushta‘m moddalar. O‘tlar va xushta‘m moddalar botanik manbalardan olinadi va suvsizlantirilgan, maydalangan yoki butun bo‘lishi mumkin. O‘tlar va xushta‘m moddalar – o‘simliklarning yeyishli qismlari bo‘lib, ular an‘anaviy ravishda taomning xushbo‘yiligi yoki ta‘mini kuchaytirish uchun o‘zlarining tabiiy ta‘m va xushbo‘y xususiyatlari tufayli oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘shiladi. O‘tlar o‘simlik qismlaridan, ayniqsa yaproqlari, ba‘zan poyasidan iborat bo‘ladi; O‘tlarga misol sifatida kinza, marvak, petrushka, rayhon, oregano, rozmarin, mayoran, estragon, kervel, lavr yaprog‘i, yalpiz yoki toshcho‘pni keltirish mumkin. Xushta‘m moddalar butun, maydalangan yoki tuyilgan ko‘rinishdagi har qanday quritilgan, muattar, xushbo‘y yoki o‘tkir, yeyishli sabzavotlar yoki xushbo‘y o‘simliklarni anglatadi, an‘anaviy oziq-ovqat mahsulotlari hisoblangan piyoz, sarimsoq va selderey kabi o‘simliklar bundan mustasno. Bu o‘simlikning bir qismi yoki bu qismdan olingan kukun bo‘lib, u lazzat va xushbo‘ylik berish uchun taomga qo‘shiladi. Ular o‘tlarga qaraganda o‘simlikning boshqa qismlari: masalan, urug‘lari, qobig‘i, ildizlari, gullari va mevalaridan tayyorlanadi. Ziravorlarga misol sifatida: muskat yong‘og‘i, zira, kardamon va kashnich (urug‘lari), kassiya va dolchin (po‘stlog‘i), zanjabil (tuyilgan), qalampirunchoq (gul kurtagi) va matsis (mace), no‘xatli murch (qora, oq, qizil), xushbo‘y qalampir, yulduzli qizilmiya (yulduzcha). Ularning ovqatdagi asosiy vazifasi mahsulotning ozuqaviy qiymatiga emas, balki ta‘mga hissa qo‘shishdir. Ushbu toifa muzlatilgan o‘tlar va xushbo‘y moddalar, tarkibida faqat o‘tlar va ziravorlar bo‘lgan aralashmalarni, shuningdek, agar bu alohida mahsulotlarga taalluqli bo‘lsa, cheklangan miqdorda ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalarini o‘z ichiga oladi. Quritish vaqtida o‘tlarni dudlash mumkin. Yangi holatda taqdim etilgan o‘tlar “Qayta ishlanmagan meva va sabzavotlar” 4.1 toifasi bilan qamrab olinadi.
105	12.2.2	Ziravorlar va qaylalar. Ziravorlar - zarur hollarda taomning ta‘mini, ozuqaviy sifatini va/yoki funktsionalligini yaxshilash uchun qo‘shiladigan oziq-ovqat masallig‘lari aralashmasi. Ular odatda ta‘mni yaxshilaydigan yoki lazzat beradigan bir yoki bir nechta o‘t va/yoki ziravorlar va boshqa masallig‘larni o‘z ichiga oladi. Ziravor odatda oziq-ovqat mahsulotlariga va ovqatga (taomlar va

		<p>mahsulotlarga) alohida ta'm berish yoki uning xushbo'yligini oshirish uchun qo'shiladi. FCSda qo'llaniladigan "ziravorlar" atamasi piyoz tuzi, sarimsoq tuzi, sharq ziravorlari aralashmasi (dashi), guruchga qo'shish uchun to'ldirma (masalan, quritilgan dengiz o'tlari parchalari, kunjut urug'lari va ziravorlardan tarkib topgan furikake) kabi ziravorlarni o'z ichiga oladi, lekin ketchup, mayonez, xantal yoki qaylalar kabi ziravorlar unga kirmaydi.</p>
106	12.3	<p>Sirka va (hajmi bo'yicha 4-30% gacha suv, distillangan spirt va solod bilan suyultirilgan) yoki past bosim ostida solod sirkasini distillash orqali suyultirilgan sirka kislotasi. O'simliklar yoki o'simlik qismlari, shu jumladan ziravorlar va mevalar, shakar, tuz, asal va meva sharbatlari xushbo'ylashtirish uchun qo'shilishi mumkin.</p> <p>Ushbu toifa, faqat xuddi sirka kabi ishlatilsagina suyultirilgan sirka kislotasini (4-30%) o'z ichiga oladi.</p> <p>Ushbu toifagi 14.2.2-toifadagi sharob sirkasi kirmaydi.</p>
107	12.4	<p>Xantal</p> <p>Ichimlik suvi, sirka, tuz, yetilmagan uzum sharbati, uzum shirasi, meva sharbati, alkogolli ichimlik yoki boshqa ichimlik suyuqliklari va boshqa ziravorlar kabi masalliqalar bilan bo'tqa qilib aralashiriladigan, tuyilgan, ko'pincha yog'sizlantirilgan xantal urug'idan tayyorlangan ziravorli sous.</p>
108	12.5	<p>Sho'rvalar va bulyonlar.</p> <p>Ushbu toifa iste'mol qilish uchun tayyor sho'rvalar va iste'mol qilishdan oldin qayta tiklanishi kerak bo'lgan quyushtirilgan (masalan, kukun shaklida yoki yarim suvsizlantirilgan) oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi.</p>
109	12.6	<p>Souslar</p> <p>Ushbu toifa iste'mol qilishga tayyor, suvsizlantirilgan yoki quyushtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan, souslar, qaylalar, zaytunli qayla, mayonez, ketchup va pomidor asosidagi souslar, salat uchun qaymoqlar, ziravorlar, marinadlar va shunga o'xshash mahsulotlarni o'z ichiga oladi.</p> <p>Emulsiyalangan souslar qisman bo'lsa ham yog' yoki moyning suvdagi emulsiyasiga asoslanfdi. Emulsiyalanmagan souslarga, xususan, barbekyu sousi, pomidor ketchupi, tvorogli sousi, chili sousi, nordon-shirin dip-sous va sh.k.lar kiradi.</p> <p>Ushbu toifaga sous uchun asos bo'lib xizmat qiladigan sabzavotli tanavorlar (4.2-toifaua kiradi), shuningdek, 5.4-toifa bilan qamrab olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari, masalan mevali bo'lmagan to'ldirmalar, qiyomlar, qoplamlar, siroplar, bezak, qoplama va/yoki to'ldirma uchun shirin souslar kirmaydi.</p> <p>Ushbu toifaga 8.3.3-toifada bilan qamrab olinadigan go'sht mahsulotlarining jele qoplamlari ham, go'shtni sirlash mahsulotlari ham kirmaydi.</p>
110	12.7	<p>Sendvichlar uchun salatlar va ajoyib pastalar (muhitlar).</p> <p>Ushbu toifa tayyor yoki qaylalangan salatlar, pastasimon salatlar, go'shtli salatlar yoki baliqli salatlarini o'z ichiga oladi. Kartoshkali salat, baqlajonli salat, tsatsiki, xumus va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari sabzavotli salatlar yoki buterbrodlar uchun surtmalar hisoblanadi.</p> <p>Ushbu toifa "Leitsatze des Deutschen Lebensmittelbuchs fur Feinkostsalate" (tansiq salatlar uchun nemis taomlari kitobi tamoyillari) tomonidan belgilangan "Feinkostsalatni o'z ichiga oladi, unda "feinkostsalat" hayvon va/yoki o'simlikdan olingan masalliqalardan tayyorlangan iste'molga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari sifatida tavsiflanadi. Go'sht mahsulotlari, baliqni qayta ishlash mahsulotlari, qisqichbaqasimonlar va/yoki</p>

		qisqichbaqasimonlar, sabzavotlar, mevalar, qo‘ziqorinlar, pishloq, tuxum, makaron mahsulotlari, guruch asosida ishlab chiqarilishi mumkin.
111	12.8	Xamirturush va xamirturush mahsulotlari. Ushbu toifa novvoylik xamirturushlari va non mahsulotlari va spirtli ichimliklar ishlab chiqarishda ishlatiladigan achitqilar kiradi. U shuningdek, xamirturush ekstrakti kabi xamirturush hosilalarini ham qamrab oladi.
112	12.9	Oqsilli mahsulotlar, 1.8-toifaga kiruvchi mahsulotlardan tashqari. Ushbu toifa oqsil o‘xshash mahsulotlari yoki go‘sht, baliq yoki sut kabi standart oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni, jumladan ta‘msiz jelatin va soyali ichimliklarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mahsulotlar tarkibida ta‘m hissini yaxshilash uchun shakar va/yoki xushbo‘ylashtiruvchi moddalar bo‘lishi mumkin, lekin ular yaqqol ifodalangan shirin va/yoki xushbo‘ylashgan ta‘mga ega emas.
113	13	Maxsus parhezli ehtiyojlari bo‘lgan kishilar tomonidan iste‘mol qilinishi uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa o‘ziga xos tarkibi yoki ishlab chiqarish jarayoniga ko‘ra oddiy iste‘mol uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlaridan farq qiladigan, belgilangan ozuqaviy maqsadlarga mos keladigan va shunday yaroqliligi ko‘rsatilgan holda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.
114	13.1	Emizikli bolalar va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa boshlang‘ich va keyingi oziqlantirish uchun mo‘ljallangan bolalar aralashmalari, don asosidagi bolalar ozuqalari va qo‘shimcha oziqlantirish mahsulotlari, kichik yoshdagi bolalar uchun boshqa oziq-ovqat mahsulotlari va emizikli bolalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlarini qamrab oladi.
115	13.1.1	Boshlang‘ich bolalar aralashmalari
116	13.1.2	Keyingi oziqlantirish uchun bolalar aralashmalari
117	13.1.3	Don asosidagi bolalar ozuqalari
118	13.1.4	Qo‘shimcha oziqlantirish mahsulotlari. Ushbu toifaga 17-toifada tatbiq etiladigan emizikli bolalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun parhezli qo‘shimchalar kirmaydi
119	13.1.5	Emizikli bolalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlari (boshlang‘ich bolalar aralashmalari) Ushbu toifa emizikli bolalar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni oziqlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan, sog‘liqni saqlash muassasalarida va/yoki undan tashqarida shifokor ko‘rsatmasi bo‘yicha iste‘mol qilinishi lozim bo‘lgan maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlarini qamrab oladi.
120	13.1.5.1	Emizikli bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlari. Bu toifa emizikli bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari hamda erta tug‘ilgan chaqaloqlar uchun aralashmalar, kasalxonadan chiqarish uchun aralashmalar, kam va o‘ta kam vaznli chaqaloqlar uchun aralashmalar va ona sutini boyituvchilar kabi maxsus aralashmalarni qamrab oladi.
121	13.1.5.2	Emizikli bolalar va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa emizikli bolalar va kichik yoshdagi bolalarni oziqlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan va sog‘liqni saqlash muassasalarida va/yoki undan tashqarida shifokor ko‘rsatmasi bo‘yicha iste‘mol qilinishi lozim bo‘lgan maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlarini qamrab oladi. Masalan, metabolik yoki oshqozon-ichak kasalliklari, bir yoki ko‘p martalik

		oziq-ovqat allergiyasi yoki chidamsizlik (masalan, sigir suti oqsiliga allergiya, oqsil so‘rilishining buzilishi) bilan og‘rigan chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalarning ovqatlanish, shuningdek umumiy naycha bilan oziqlantirish tartibiga rioya qilinishini o‘z ichiga oladi.
122	13.2	Maxsus tibbiy maqsadlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari (13.1.5-toifa bilan qamrab olinganlardan tashqari)
123	13.3	Butun kunlik ratsionni yoki muayyan bir taom qabulini (butun sutkalik ratsionni yoki uning bir qismini) almashtirish uchun mo‘ljallangan, umumiy kundalik ratsionni butunlay yoki uning bir qismini almashtirish sifatida maxsus taqdim etilgan, vaznni nazorat qilish uchun oziq-ovqat mahsulotlari.
124	13.4	Glyutenga chidamsiz bo‘lgan kishilar iste‘mol qilishi mumkin bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa glyutenga chidamsiz bo‘lgan kishilarning alohida parhez ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus ishlab chiqarilgan, tayyorlangan va/yoki qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.
125	14	Ichimliklar Ushbu toifa quyidagi ichimlik toifalarini o‘z ichiga oladi: alkogolsiz (14.1) va alkogolli (14.2). 1-toifaga kiradigan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga olmaydi.
126	14.1	Alkogolsiz ichimliklar. Ushbu toifa suv va gazlangan suv (14.1.1), meva va sabzavot sharbatlari (14.1.2), meva va sabzavot nektarlari (14.1.3), suv, sut, don asosidagi xushbo‘ylashtirilgan gazlangan va gazlanmagan ichimliklarni, oziq-ovqat uchun ichimliklar yoki boshqa oziq-ovqat ichimliklari (14.1.4), 14.1.5 toifasiga kiruvchi qahva, choy va damlamalarni o‘z ichiga oladi.
127	14.1.1	Ichimlik suvi, xususan, tabiiy mineral suv, buloq suvi va boshqa butilikalangan ichimlik suvlari. Bu toifaga tabiiy mineral suvlar, buloq suvlari, oshxona suvlari va gazlangan suvlar kiradi. “Butilikalangan ichimlik suvi” tabiiy mineral va buloq suvlaridan tashqari, karbonat angidrid qo‘shish yo‘li bilan gazlash va filtrlash yoki boshqa tegishli usullar bilan ishlov berish mumkin bo‘lgan ichimlik suvini qamrab oladi. “Gazlangan suv” - sun‘iy ravishda karbonat angidrid gazi bilan boyitilgan vijillama ichimlik suvi. Sinonimlari: “carbonated water” (gazlangan suv), “sparkling water” (sodali), “seltzer” (selsler suvi) yoki “fizzy water” (gazlangan suv). Suvning vijillama ta‘sirini yaratish uchun unga qo‘shilgan ichimlik sodasi (natriy karbonat) uning tarkibiy qismi hisoblanadi.
128	14.1.2	Meva va sabzavot sharbatlari, shuningdek sabzavot sharbatlari va quyqali sharbatlar
129	14.1.3	Meva va sabzavot nektarlari va shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifa: suv va/yoki shakar va/yoki asal va/yoki shirinlashtirgichlar va 14.1.2 toifasiga kiruvchi mahsulotlar aralashmalari va/yoki meva pyuresi va/yoki quyulashtirilgan meva pyuresi va/yoki ushbu mahsulotlarning aralashmasi kabi meva nektarlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu toifa shuningdek sabzavot nektarlarini ham qamrab oladi.
130	14.1.4	Xushbo‘ylashtirilgan ichimliklar. Bu toifa xushbo‘ylashtirilgan gazlangan va gazlanmagan ichimliklar, meva siroplari, pyuresi va alkogolsiz ichimliklar kabi konsentratlar, ularni tayyorlash uchun kukunlarni o‘z ichiga oladi. Ularga suv, sut mahsulotlari, donlar, urug‘lar, yong‘oqlar, sabzavotlar va mevalarga asoslangan

		<p>ichimliklar, xususan, “sportga oid”, “energetik” yoki “elektrolitli” deb ataladigan ichimliklar kiradi. Ular tarkibida fermentlar bo‘lishi mumkin. Ushbu toifaga 14.1.1, 14.1.2, 14.1.3, 14.1.5 va 12.9 toifalari bilan qamrab olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari kirmaydi.</p> <p>“Gaseosa” – odatiy ispancha rangsiz ichimlik. U gazlangan suvdan iborat bo‘lib, unga xushbo‘ylashtiruvchi moddalar, shakar va/yoki shirinlashtirgichlar va ruxsat etilgan, odatda sharob bilan aralashtirib iste‘mol qilinadigan qo‘shimchalar qo‘shilishi mumkin.</p>
131	14.1.5	<p>Qahva, qahva va tsikoriy ekstrakti, choy, giyohli va mevali damlamalar; qahva o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, qahva aralashmalari va “issiq ichimliklar” uchun aralashmalar.</p> <p>Iste‘mol qilish uchun tayyor oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, konservalangan yoki butilikalarga), shuningdek, ularning aralashmalari, tez eruvchan aralashmalar va konsentratlarni o‘z ichiga oladi. kukunli ichimliklar/ichimliklar 14.1.4-toifaga kiradi Qahva va choy ta‘miga ega ichimliklar va kukunli sut aralashgan shokoladli ichimliklar tatbiq etiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi/ ichimliklar 14.1.4 toifasi bilan qamrab olinadi.</p>
132	14.1.5.1	<p>Qahva va qahva ekstraktlari.</p> <p>Ushbu toifa (eruvchan) qahva ekstrakti va eruvchan yoki tez eruvchan qahva ishlab chiqarish uchun ishlov berilgan qahva donalarini (asosan endospermdan iborat qahva o‘simligining urug‘lari) o‘z ichiga oladi.</p> <p>“Qahva” - “Coffea arabica” (arabika) yoki “Coffea robusta” (robusta) qahva donalarini qovurish, maydalash yoki ham qovurish, ham maydalash yo‘li bilan tayyorlangan mahsulotni bildiradi. Qovurilgan qahva donalari yoki maydalangan qahva ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.</p> <p>Qahva ichimligi damlangan qahva donalari yoki maydalangan qahvadan olinadi. Unga kofeinli qahva ham, kofeinsiz qahva ham kiradi.</p> <p>“Qahva ekstrakti”, “eruvchan qahva ekstrakti”, “eruvchan qahva” yoki “tez eruvchan qahva” qahva ekstraktlari va tsikoriy ekstraktlariga qo‘yiladigan talablarga javob berishi kerak - <i>havolani ko‘rsatish kerak</i>.</p> <p>Ushbu toifa kukun yoki granulalar shaklidagi, xushbo‘ylashtirilmagan tez eruvchan qahva hamda eruvchan qahva deb ataladigan iste‘molga tayyor qahva kristallari va qahva kukuni, shuningdek, quyuqlashtirilgan Suyuqlik shaklidagi xushbo‘ylashtiruvchi moddalarsiz tez eruvchan qahvani o‘z ichiga oladi. Bankalardagi suyuq qahva ushbu toifaga kiradi.</p>
133	14.1.5.2	<p>Ushbu toifa choy, giyohli va mevali damlamalar, xushbo‘ylashtirilgan choy damlamalari, xushbo‘ylashtirilgan tez eruvchan qahva, xushbo‘ylashtirilgan qovurilgan qahva, qahva o‘rnini bosuvchi moddalar, qahva aralashmalari (2-tasi 1-da yoki 3-tasi 1-da) va “issiq ichimlik”lar uchun aralashmalarni (masalan, kapuchino issiq ichimliklari uchun kukun) o‘z ichiga oladi.</p> <p>Qahva va choy ta‘miga ega ichimliklar va kukunli sut aralashgan shokoladli ichimliklar / ichimliklar 14.1.4 toifasiga kiradi</p> <p>Choy (“xushbo‘ylashtiruvchi moddalarsiz choy”) “Camellia sinensis” (L.) turining bir yoki bir qancha xillari va navlarining barglari va barg kurtaklaridan tayyorlangan mahsulotni anglatadi, odatda barglariga issiq yoki qaynoq suv quyib tayyorlanadi. Ushbu toifa kofeinsiz choy (kofein/deteinning ko‘p qismi chiqarib tashlangan), suyuq choy konsentratlari va (kofeinsiz/deteinsiz) tez eruvchan yoki eruvchan choy yoki choy ekstraktini (ya‘ni, quritilgan eruvchan qattiq moddalar) o‘z ichiga oladi. Giyohli va mevali damlamalar o‘t-o‘lanlar, ziravorlar yoki boshqa o‘simlik materiallari, masalan, na‘matak, moychechak, qalampirunchaq, roybush,</p>

	<p>“yerba mate/matē” va sh.k.larning qaynoq suvdagi damlamasi yoki qaynatmasidan tayyorlangan har qanday ichimlikni anglatadi; odatda tarkibida tein bo‘lmaydi (masalan, jigarrang guruchli choy** (Genmaich)). Bu ichimliklar haqiqiy choylardan (choy o‘simligining (Camellia sinensis) quritilgan barglaridan tayyorlangan, shuningdek tozalangan choydan) farq qiladi. Bu ichimliklar giyohli va mevali damlamalar yoki giyohli qaynatmalar sifatida ma’lum, bu ularni odatda talqin qilinganidek “choy” dan ajratib turadi va shuning uchun giyohli damlamalar yoki qaynatmalar deb belgilanadi.</p> <p>Giyohli va meva damlamalari, shuningdek, giyohli va mevali damlamalarning choy bilan aralashmalarini ikkinchi darajali tarkibiy qism sifatida o‘z ichiga oladi (masalan, ko‘k choy bilan uyg‘unlashtirilgan jigarrang guruch choyi (Genmaycha)). Ushbu toifaga mevali va giyohli damlamalarning suyuq konsentratlari va eruvchan giyohli damlamalar kiradi.</p> <p>Giyohli va mevali damlamalar - choy o‘simligidan (Camellia sinensis) kelib chiqmagan o‘simliklar yoki o‘simliklarning qismlari.</p> <p>“O‘simlik va meva damlamasi”ga mos keladigan “choy” atamasi ham quruq mahsulotni, ham ichimlikni (bryu) qamrab oladi.</p> <p>Shuningdek, jasminli choy, qulupnay ta’mlı qora choy, limon ta’mlı qora choy kabi xushbo‘y choylar ham mavjud. U xushbo‘y choy va giyohli damlamalar tayyorlash uchun tez tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.</p> <p>Xushbo‘ylashtirilgan eruvchan qahva - vanil, karamel, dolchin, apelsin, kokos, shokolad, yeryong‘oq moyi, bodom, yong‘oq, funduk, brendi, rom va hk. kabi xushbo‘ylashtiruvchi moddalar qo‘shilgan kukun yoki granulalar shaklidagi, iste’mol uchun tayyor tuyilgan qahva..</p> <p>Xushbo‘ylashtirilgan qovurilgan qahva - yuqorida sanab o‘tilgan xushbo‘ylashtiruvchi moddalar yordamida qovurilgan qahva.</p> <p>Qahva o‘rnini bosuvchi moddalar – qahva bo‘lmagan mahsulotlar, odatda kofeinsiz, qahvaga o‘xshatish/o‘rnini bosish uchun foydalaniladi. Odatda ular don (masalan, arpa, javdar va sh.k.), o‘simlik ildizlari (masalan, tsikoriy, momaqaymoq, lavlagi va sh.k.) va quyruq shinni kabi o‘simlik moddalaridan olinadi. O‘simlik moddasi eritma ekstraktiga ishlov berishdan oldin qovurib olinishi mumkin.</p> <p>Qahva o‘rnini bosuvchi moddalar oddiy suyuq ekstrakt va/yoki eruvchan kukun yoki granulalar ko‘rinishida sotilishi mumkin; ular bir qancha o‘simlik moddalaridan iborat bo‘lishi yoki qahva ekstrakti bilan aralashtirilgan, shuningdek, xushbo‘ylashtirilgan bo‘lishi mumkin.</p> <p>Odatda “boshqoq” yoki “boshqoq donalari” deb ataladigan donlar Poaceae (yoki Gramineae) oilasiga mansub muayyan o‘t-o‘lanlarning yeyishli urug‘laridir. Misollar: bug‘doy, makkajo‘xori, guruch, arpa, shirin jo‘xori, sulı, javdar, tariq va tritikale.</p> <p>Oddiy qahva o‘rnini bosuvchi moddalar qovurilgan donli ichimliklardir. Qovurilgan donli ichimlik – qovurilgan va kelgusida suvda erishi uchun tijorat maqsadida granula yoki kukun shakliga qayta ishlangan bir yoki bir qancha boshqoq donalaridan tayyorlangan ichimlik. Mahsulot ko‘pincha qahva va choyga kofeinsiz muqobil sifatida sotiladi. Ba’zi keng tarqalgan masallıqlarga qovurilgan / shirin arpa, javdar va hk.lar kiradi.</p> <p>Tuyilgan qovurilgan tsikoriy ildizi qahva o‘rnini bosuvchi sifatida ham alohida, ham qahva bilan aralastirib ishlatiladi. “Tsikoriy” oddiy tsikoriy ishlab chiqarish uchun ishlatilmaydigan Cichorium Intybus L. ildizlarini</p>
--	--

		<p>anglatadi, ular tegishli tarzda quritish va qovurish uchun tozalanib, odatda ichimliklar tayyorlash uchun ishlatiladi.</p> <p>“Momaqaymoq qahvasi” momaqaymoq o‘simligining ildizidan tayyorlangan qahva o‘rnini bosuvchi mahsulotdir. Momaqaymoq ildizining qovurilgan bo‘laklari va ichimlik tashqi ko‘rinishi va ta‘midan ozgina qahvani yodga soaldi.</p> <p>Qahva o‘rnini bosuvchi moddalarning bir qancha turlari mavjud: arpa, javdar, tsikoriy, anjir aralashmasi; qovurilgan arpa, solod arpasi, tsikoriy va javdar aralashmasi; qovurilgan arpa, qovurilgan arpa solodi va qovurilgan tsikoriy aralashmasi; arpa, tsikoriy, solod arpasi, anjir va qizil lavlagi ekstrakti aralashmasi; postum (qovurilgan bug‘doy kepagi, bug‘doy va quyuq shinnidan), solod asosidagi xushbo‘ylashtirilgan ichimliklar va hk.</p> <p>(2-tasi 1-da yoki 3-tasi 1-da) Qahva aralashmalari va “issiq ichimlik” uchun aralashmalar (masalan, kapuchino issiq ichimligi uchun kukun) - oldindan tayyorlangan kukunsimon eruvchan qahvanin qaymoq yoki qaymoqqa o‘xshash mahsulotlar, shakar va/yoki sut/kakao, karamel, vanil ekstraktlari, xushbo‘ylashruvchi moddalar, tuz, likyorlar va hk. kabi boshqa masalliqalar bilan aralashmalari. Uni qaynoq yoki sovuq ichimlik suvi kabi suyuqlik qo‘shib tayyorlash mumkin. Bu toifa uyda ichimliklar tayyorlash uchun kukunlar, issiq ichimliklar tayyorlash uchun kukunlar, savdo avtomatlari uchun qahva asosidagi ichimliklar, shokolad/kapuchino ta‘mli xushbo‘ylashtirilgan eruvchan ichimliklar, xushbo‘ylashtirilgan eruvchan kappuchinoni o‘z ichiga oladi.</p> <p>Bankalar/butikalardagi qahva asosidagi ichimliklar – supermarketlar va do‘konlarda yoki savdo avtomatlarida sotiladigan ichishga tayyor oziq-ovqat mahsulotlaridir. Ular issiq yoki sovuq holda sotilishi mumkin (masalan, sovutilgan konservalangan kapuchino ichimliklari).</p>
134	14.2	<p>Alkogolli ichimliklar, xususan, shunga o‘xshash alkogolsiz va past alkogolli ichimliklar.</p> <p>Bunga o‘xshash alkogolsiz va kam alkogolli ichimliklar alkogolli ichimliklar kirgan toifaga kiradi. Ushbu toifa pivo va solodli ichimliklarga o‘xshagan sharob, sidr va nok sidri, mevali sharob va uyda tayyorlangan nalivka, medovuxa va xushbo‘ylashtirilgan vinochilik mahsulotlari, alkogolsiz va past alkogolli ichimliklar kiradi.</p>
135	14.2.1	<p>Pivo va solodli ichimliklar.</p> <p>(shirinlashgan) boshqolardan, boshqa kraxmal manbalari va/yoki muayyan shakar, xmel, xamirturush va ichimlik suvidan tayyorlangan, inson iste‘mol qilishi uchun mo‘ljallangan alkogolli ichimliklar. Misollarga quyidagilar kiradi: el, “brown beer” (to‘q pivo), “weiss beer” (och pivo), “pilsner” (pilsner), “lager beer” (pivo lager), “oud bruin” pivosi, “Obergariges Einfachbier”, “light beer” (och pivo), “table beer” (oshxona pivosi), solodli likyor, “porter”, “stout” va arpa pivosi</p>
136	14.2.2	<p>Uzum sharoblari va shunga o‘xshash alkogolsiz ichimliklar.</p> <p>Ushbu toifa sharob, achitish jarayonida turgan yosh sharob, likyorli sharob, ko‘pikli sharob, sifatli ko‘pikli sharob, gazlangan ko‘pikli sharob, yarim gazlangan sharob, gazlangan yarim ko‘pikli sharob, qisman fermentlangan uzum shinnisi, mayizdan olingan qisman fermentlangan uzum shinnisi, quyultirilgan uzum shinnisi, rektifikatsiyalangan quyultirilgan uzum shinnisi, mayiz sharobi, pishib ketgan uzumdan olingan sharob va sharob sirkasini qamrab oladi.</p> <p>Ushbu toifaga 14.1.2-toifadagi uzum sharbati kirmaydi.</p>
137	14.2.3	<p>Sidr va perri.</p>

		Olma (sidr) va nokdan (nok sidri) tayyorlangan mevali sharoblar. Ushbu toifa "Cidre bouche" - suv qo'shilgan yoki qo'shmagan holda ekstraksiya qilingan yangi olma shinnisi yoki yangi olma va nok shinnisi aralashmasini achitish yo'li bilan olingan mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibidagi karbonat anhidrid miqdori butilkalarda tabiiy achitish yo'li bilan olingan "Cidre bouche" uchun kamida 3 g/l va boshqa "Cidre bouche"lar uchun 4 g/l ni tashkil qiladi.
138	14.2.4	<p>Mevali sharob va uy sharobi.</p> <p>14.2.2 va 14.2.3 toifalarida qamrab olingan ichimliklardan tashqari mevalardan va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan dondan (masalan, guruch) tayyorlangan sharoblarni o'z ichiga oladi. Bu sharoblar sokin yoki ko'pikli bo'lishi mumkin. Misollar: guruch sharobi (cake), ko'pikli va sokin mevali vinolar. Bu toifa shuningdek, odatda import qilingan uzum shinnisidan tayyorlanadigan britan sharobi va xeresni; shuningdek, Polsha Respublikasining 2011-yil 12-maydagi "Sharoblar va xushbo'ylashtirilgan vinochilik mahsulotlarining geografik ko'rsatmalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari:</p> <p>"Wino owocowe markowe" (yorliqli mevali sharob) - mevaning spirtli fermentatsiyasi natijasida hosil bo'lgan, spirt qo'shilmagan, ehtimol faqat saxaroza bilan shirinlangan, haqiqiy alkogolliligi 8,5% dan 15% gacha bo'lgan fermentlangan alkogolli ichimlik. yoki 6 oydan kam bo'lmagan mevali sut;</p> <p>"Wino owocowe wzmocnione" (boyitilgan meva sharobi) - mevaning spirtli fermentatsiyasi natijasida hosil bo'lgan, spirtli ichimliklar qo'shilishi bilan, ehtimol shirinlangan, haqiqiy hajm kuchi 16 dan 22% gacha bo'lgan fermentlangan alkogolli ichimlik;</p> <p>"Wino owocowe aromatyzowane" (xushbo'ylashtirilgan meva sharobi) – haqiqiy o'tkirligi 8,5% dan 18% gacha bo'lgan, uzumdan olinadigan boshqa moddalar bilan xushbo'ylashtirilgan, alkogol qo'shish ehtimoli bilan mevali sharob hajmining 75% dan ortig'i bilan birlashtirilgan fermentlangan alkogolli ichimlik;</p> <p>"Wino z soku winogronowego" (uzum sharbatidan sharob) – hajmi bo'yicha haqiqiy o'tkirligi 8,5% dan 18% gacha bo'lgan, alkogol qo'shish ehtimoli bilan uzum sharbatini spirtli achitish natijasida hosil qilingan achitilgan alkogolli ichimlik;</p> <p>"Aromatyzowane wino z soku winogronowego" (uzum sharbatidan olingan xushbo'ylashtirilgan sharob) - haqiqiy o'tkirligi 6,5% dan 18% gacha bo'lgan, xushbo'ylashtirilgan, alkogol qo'shish ehtimoli bilan uzum sharbatidan olingan sharob hajmining 75% dan ortig'i bilan birlashtirilgan fermentlangan alkogolli ichimlikni ham qamrab oladi.</p>
139	14.2.5	<p>Medovuxa (ichimlik).</p> <p>Achitilgan asal, solod va ziravorlardan yoki asaldan tayyorlangan alkogolli ichimlik. Asal sharobini o'z ichiga oladi</p>
140	14.2.6	<p>Spirтли ichimliklar.</p> <p>Misollar: rom, viski, donli va sharobli spirtli ichimliklar, brendi yoki weinbrend; meva spirti, aroq, jin, pastis, likyor.</p> <p>Hajmi bo'yicha 15% hajmdagi spirtning haqiqiy minimal o'tkirligiga ega.</p>
141	14.2.7	<p>Sharob asosidagi xushbo'ylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari.</p> <p>Ushbu toifa quyidagi uchta toifani: "xushbo'ylashtirilgan sharoblar", "sharob asosidagi xushbo'ylashtirilgan ichimliklar" va "vinochilik mahsulotlaridan xushbo'ylashtirilgan kokteyllar", shuningdek, alkogolsiz va past alkogolli ichimliklarni ham o'z ichiga oladi.</p>

142	14.2.7.1	Xushbo'ylashtirilgan sharoblar. Bir yoki bir nechta vinochilik mahsulotlaridan, xususan, uzum shinnisini va/yoki achitish jarayonidagi spirt qo'shilgan va xushbo'ylashtirilgan uzum shinnisini qo'shish bilan olingan ichimlik. U spirtning hajmi bo'yicha minimal 14,5% yoki undan ko'p va maksimum hajmining 22%-idan kam haqiqiy o'tkirligiga ega.
143	14.2.7.2	Sharob asosidagi xushbo'ylashtirilgan ichimliklar. Bir yoki bir qancha sharobdan tayyorlangan, ehtimol uzum shinnisi va/yoki qisman achitilgan, xushbo'ylashtirilgan va hajmi bo'yicha haqiqiy alkogol o'tkirligi 7% yoki undan ko'p va hajmining 14,5%-idan kam bo'lgan uzum shinnisi qo'shish yo'li bilan olingan ichimlik.
144	14.2.7.3	Sharob asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar. Sharob va/yoki uzum shinnisidan olingan xushbo'ylashtirilgan va hajmi bo'yicha haqiqiy alkogol o'tkirligi 7% dan kam bo'lgan ichimlik
145	14.2.8	Boshqa alkogolli ichimliklar, shu jumladan alkogolli va alkogolsiz ichimliklar aralashmalari va spirt miqdori 15% dan kam bo'lgan spirtli ichimliklar. alkogolli ichimliklarning alkogolsiz ichimliklar bilan alkogoli 15% dan kam bo'lgan aralashmalari kabi, 14.2.1 dan 14.2.7 gacha toifalar qamrab olmagan barcha boshqa alkogolli ichimliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu toifa ko'pikli alkogolli ichimlik hisoblanadigan, uzum shinnisidan achitish yo'li bilan tayyorlangan alkogol o'tkirligi (% hajm/hajm) 4,5 dan 5,5 gacha bo'lgan uzum asosidagi fermentlangan ichimlikni o'z ichiga oladi. Ichimliklar Polsha Respublikasining 2011-yil 12-maydagi "Sharoblar va xushbo'ylashtirilgan vinochilik mahsulotlarining geografik ko'rsatmalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan: "Nalewka na winie owocowym" (mevali sharob damlamasi) - haqiqiy o'tkirligi 17% dan 2 gacha bo'lgan, mevali sharobning yoki spirt qo'shilgan mevali sharobning etil spirtida ivitilgan mevalardan spirt qo'shish ehtimoli bilan olingan kamida 10% suyuqlikdan achitilgan alkogolli ichimlik; "Romatydzowana nalewka na winie owocowym" (xushbo'ylashtirilgan mevali sharob damlamasi) - haqiqiy o'tkirligi 17% dan 22% gacha bo'lgan, xushbo'ylashtirilgan, meva-rezavorli sharob hajmining 60% dan ko'prog'i bilan yoki etil spirtida ivitilgan mevalardan spirt qo'shish ehtimoli bilan olingan kamida 10% suyuqlik bilan aralashtirilgan fermentlangan alkogolli ichimlik; "Nalewka na winie z soku winogronowego" (uzum sharbatidan tayyorlangan sharob damlamasi) – haqiqiy o'tkirligi uzum sharbatidan tayyorlangan sharob hajmining 17% dan 22% gacha bo'lgan, etil spirtida ivitilgan mevalardan spirt qo'shish ehtimoli bilan olingan kamida 10% suyuqlik bilan aralashtirilgan achitilgan alkogolli ichimlik; "Aromatydzowana nalewka na winie z soku winogronowego" (uzum sharbatidan tayyorlangan sharobning xushbo'y damlamasi) - haqiqiy o'tkirligi 17% dan 22% gacha bo'lgan, xushbo'ylashtirilgan, uzumli sharob hajmining 60% dan ko'prog'i bilan yoki etil spirtida ivitilgan mevalardan spirt qo'shish ehtimoli bilan olingan suyuqlikdan kam bo'lmagan miqdorda aralashtirilgan achitilgan alkogolli ichimlik; "Napoj winny owocowy lub miodowy" (sharob asosidagi mevali yoki asalli ichimlik) – hajmi bo'yicha haqiqiy o'tkirligi 4,5% dan 15% gacha bo'lgan, mevali sharob yoki asaldan olingan, tarkibidagi ushbu mahsulotlar miqdori

		<p>50%-dan kam bo‘lmagan, alkogol qo‘shilmagan, fermentlangan alkogolli ichimlik;</p> <p>“Aromatyzowany napoj winny owocowy lub miodowy” (spirt asosidagi xushbo‘ylashtirilgan mevali yoki asalli sharob ichimligi) - hajmi bo‘yicha haqiqiy o‘tkirligi 4,5% dan 15% gacha bo‘lgan, xushbo‘ylashtirilgan, ushbu mahsulotlarning miqdori 50%-dan kam bo‘lgan meva-rezavorli sharobdan alkogol qo‘shmasgan tayyorlangan, achitilgan alkogolli ichimlik;</p> <p>“Wino owocowe niskoalkoholowe” (kam alkogolli mevali sharob) - haqiqiy o‘tkirligi 0,5 % dan 8,5% gacha bo‘lgan, mevalarni spirtida achitish natijasida yoki mevali sharobdan spirtni qisman, jismonan yo‘qotish bilan olingan fermentlangan alkogolli ichimlik;</p> <p>“Aromatyzowane wino owocowe niskoalkoholowe” (xushbo‘ylashtirilgan kam alkogolli mevali sharob) - haqiqiy o‘tkirligi 0,5 % dan 8,5% gacha bo‘lgan, xushbo‘ylashtirilgan, mevalarni spirtida achitish natijasida yoki mevali sharobdan olingan fermentlangan alkogolli ichimlik.</p>
146	15	<p>Iste‘molga tayyor sneklar va gazaklar.</p> <p>Ushbu toifa kartoshka, don, un yoki kraxmal va ishlov berilgan yong‘oqlar asosidagi gazaklarni qamrab oladi.</p>
147	15.1	<p>Kartoshka, don, un va kraxmalga asoslangan gazaklar.</p> <p>Ushbu toifada kraxmal don, ildizmeva va tugunaklar, dukkakli va qo‘zoqli o‘simliklardan kelib chiqadi. Barcha tuzlama, xushbo‘ylashtiruvchi moddalar qo‘shib oddiy tuzlangan gazaklarni o‘z ichiga oladi. Misollarga kartoshka chipslari, tuzlangan popkorn, krendel, krakerlar kiradi.</p>
148	15.2	<p>Ishlov berilgan yong‘oqlar.</p> <p>Ushbu toifa shlov berilgan yong‘oqlar va shunga o‘xshash ishlov berilgan urug‘larni, masalan, gazak sifatida iste‘mol qilinadigan kungaboqar urug‘larini o‘z ichiga oladi. U quruq qovurish, qovurish, marinadlash yoki qaynatish yo‘li bilan ishlov berilgan, po‘stlog‘i bilan yoki tozalangan, tuzlangan yoki tuzlanmagan barcha turdagi yong‘oqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu toifaga shuningdek, yogurt, bodroq va asal bilan qoplangan yong‘oqlarni, shuningdek, quruq mevalar va yong‘oqli-donli gazaklar (masalan, “aralashmalar”) kiradi.</p>
149	16	<p>Shirinliklar, 1, 3 va 4-toifadagi mahsulotlardan tashqari.</p> <p>Ushbu toifa odatda xushbo‘ylashtirilgan va shirin ta‘mga ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z ichiga oladi. Ularga sut, yog‘, meva-sabzavot, don, tuxum mahsulotlari va suvasosidagi oziq-ovqatlar, masalan, “Creme bailee”, flan, panakota, “Bayrische Creme”, limonli kurd, “junkets” (qaymoqli shirin siroklar) va barcha turdagi tpudinglar kiradi. Ushbu toifa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:</p> <p>“Rojdestvo pudingi”: un, yog‘, quritilgan mevalar, brendi va ziravorlardan tayyorlanadi.</p> <p>“Pasxa”: pishloq va boshqa sut mahsulotlaridan tayyorlanadi, odatda bodom va mayiz bilan boyitiladi.</p> <p>“Ostkaka”: puding asosi – sut va shirdon fermentidan tayyorlangan pishloq; ajratilgan zardob chiqarib tashlanadi va asosan qaymoq, tuxum va bodom qo‘shiladi.</p> <p>“Fruktgrud”: mevalar (odatda rezavorlar), shakar, kraxmal va turli qo‘shimchalardan tayyorlanadi.</p> <p>Ushbu toifaga 1-toifaga kiradigan “Sut mahsulotlari va shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari”, 3-toifaga kiradigan “Yeyishli muz”, 4-toifaga kiradigan “Meva va sabzavotlar” yoki 07.2-toifaga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari kirmaydi.</p>

150	17	<p>Parhez qo‘shimchalari, chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun parhez qo‘shimchalaridan tashqari.</p> <p>Ushbu toifa oziq-ovqat mahsulotlarining maqsadi normal ovqatlanish ratsionini to‘ldirish bo‘lgan va ozuqaviy moddalar yoki ozuqaviy yoki fiziologik ta’sirga ega bo‘lgan boshqa ozuqa moddalarning konsentratsiyalangan manbalari hisoblangan, alohida yoki kombinatsiyalangan holda, dozalangan shaklda sotiladigan, xususan, kapsula, pastilka, tabletka va shunga o‘xshash boshqa shakllarda, kukunli sashelar, suyuqlik solingan ampulalar, tomchilarni dozalash uchun shishachalar va o‘lchangan kichik birlik miqdorida qabul qilish uchun mo‘ljallangan boshqa suyuqliklar va kukunlarning shunga o‘xshash shakllarini o‘z ichiga oladi.</p>
151	17.1	<p>Qattiq shaklda saqlangan parhez qo‘shimchalari, xususan, kapsula, tabletkalar va shunga o‘xshash shakllar, chaynaladigan shakldan tashqari.</p> <p>Bu toifa tabletka, kukun, granula va chaynaladigan shakldagi parhez qo‘shimchalarini o‘z ichiga oladi. U, xususan, tabletka, pastilka va boshqa, parchalanadigan granulalar, maydalanadigan preparatlar, og‘iz bo‘shlig‘ida maydalanadigan plenklar, iste‘mol qilishdan oldin maydalash yoki suyuqliklarda eritish uchun mo‘ljallangan kukunlar, granulalar yoki tabletkalar (vijillovchi tabletkalar) kabi og‘izdan qabul qilinadigan qattiq bir martalik dori shakllarini o‘z ichiga oladi. Ularga, shuningdek, ularning sotilish shaklida iste‘mol qilinishi kerak bo‘lgan suyuqliklar/yumshoq gellardan iborat bo‘lgan (masalan, baliq yog‘i qo‘shimchalari) kapsulalar shaklida belgilangan parhez qo‘shimchalari ham kiradi.</p> <p>Ularning barchasi oz miqdorda qabul qilish uchun mo‘ljallangan.</p> <p>Tabletkalangan shakl: qattiq zarrachalarning bir xil hajmlarini siqish yoki ekstruziya yoki qoliplash kabi boshqa usulda hosil qilingan massadan tashkil topgan. Ularga shuningdek, vijillovchi tabletkalar ham kiradi. Savdo shaklida iste‘mol qilinmaydigan har qanday shaklni istisno qiladi, vijillovchi tabletkalar bundan mustasno (ya’ni, parhez qo‘shimchasi iste‘mol qilishdan oldin suvda yoki istalgan suyuqlikda eritilgandan keyin iste‘mol qilinadi).</p> <p>Chaynaladigan shakli: masalan, chaynaladigan kapsulalar, jelesimon qo‘shimchalar va boshqa chaynaladigan shakllar. Savdo shaklida iste‘mol qilinmaydigan har qanday shaklni istisno qiladi (ya’ni, parhez qo‘shimchasi iste‘mol qilishdan oldin suvda yoki istalgan boshqa suyuqlikda eritilmasdan iste‘mol qilinadi)</p>
152	17.2	<p>Chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun parhez qo‘shimchalaridan tashqari, Suyuqlik shaklidagi parhez qo‘shimchalari.</p> <p>Boshqa narsalar qatorida, suyuq ampulalar, tomchi dozali idishlar va boshqa shunga o‘xshash suyuqlik shakllarini qamrab oladi. Shuningdek, sirop shaklida sotiladigan parhez qo‘shimchalarini ham o‘z ichiga oladi.</p> <p>Ularning barchasi kichik, o‘lchangan miqdorda qabul qilish uchun mo‘ljallangan.</p> <p>Sirop: sotish shaklida iste‘mol qilinmaydigan har qanday sirop shaklini istisno qiladi (ya’ni, sirop shaklidagi parhez qo‘shimchasi iste‘mol qilishdan oldin suvda yoki boshqa istalgan suyuqlikda eritilmasdan iste‘mol qilinadi)</p>
153	18	<p>1 dan 17 gacha toifalarga kiritilmagan ishlov berilgan oziq-ovqat mahsulotlari, chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari</p>

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
5-ilova

O‘tkazish tamoyili bo‘yicha tarkibida oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati

1-jadval

O‘tkazish tamoyili bo‘yicha tarkibida oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari

№	Oziq-ovqat mahsulotlari
1	Yarim tayyor go‘sh t mahsulotlaridan tashqari, qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari
2	Asal
3	Hayvon va o‘simliklardan olinadigan emulsiyalanmagan moylar va yog‘lar
4	Sariyog‘
5	Pasterizatsiyalangan va sterilizatsiyalangan xushbo‘ylashtirilmagan sut (shu jumladan ultrapasterizatsiyalangan sut) va pasterizatsiyalangan xushbo‘ylashtirilmagan qaymoq (yog‘ miqdori kam bo‘lgan qaymoqdan tashqari)
6	Xushbo‘ylashtirilmagan va fermentlangandan keyin termik ishlov berilmagan sut-qatiq (fermentlangan sut) mahsulotlari
7	Ardob, xushbo‘ylashtirilmagan (sterilizatsiyalanganidan tashqari)
8	Qadoqlangan tabiiy mineral suv, buloq suvi va ichimlik suvi
9	Qahva (eruvchan xushbo‘ylashtirilgan qahvadan tashqari) va qahva ekstraktlari
10	Xushbo‘ylashtirilmagan yaproqli choy
11	Shakarlar
12	Quruq makaron mahsulotlari (xamir), tarkibida glyuten bo‘lmagan makaron mahsulotlari va gipooqsilli parhezlar uchun makaron mahsulotlaridan tashqari.
13	Emizikli va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan emizikli va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlari

2-jadval

O‘tkazish tamoyili bo‘yicha tarkibida bo‘yoqlar bo‘lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari

№	Oziq-ovqat mahsulotlari
1	Qayta ishlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari
2	Qadoqlangan ichimlik suvi
3	Sut, qaymog‘i olinmagan sut, yarim yog‘sizlantirilgan va yog‘sizlantirilgan sut, pasterizatsiyalangan yoki sterilizatsiyalangan, shu jumladan ultrapasterizatsiyalangan sut (xushbo‘ylashtirilmagan)
4	Sut qo‘shilgan shokoladli ichimlik
5	Sut-qatiq mahsulotlari (fermentlangan sut mahsulotlari), xushbo‘ylashtirilmagan
6	Konservalangan sut mahsulotlari (xushbo‘ylashtirilmagan)

7	Ko'pirtirish vaqtida qo'shimcha mahsuloti sifatida olinadigan (xushbo'ylashtirilmagan) ardob,
8	Qaymoq va quruq qaymoq (xushbo'ylashtirilmagan)
9	Hayvon va o'simlikdan olinadigan moylar va yog'lar
10	Yetilgan va yetilmagan pishloqlar (xushbo'ylashtirilmagan)
11	Qo'y yoki echki sutidan olingan sariyog'
12	Tuxum va tuxumni qayta ishlash mahsulotlari
13	Un va boshqa donni maydalash mahsulotlari, shuningdek kraxmal
14	Non va shunga o'xshash mahsulotlar
15	Makaron mahsulotlari (xamir) va kartoshka pilakchalari (pilakchalar)
16	Shakar, shu jumladan barcha mono- va disaxaridlar
17	Tomat pastasi, konservalangan pomidor va shishalardagi pomidor
18	Pomidor asosidagi souslar
19	Meva sharbatlari, meva nektarlari, sabzavot sharbatlari va sabzavot nektarlari
20	Konservalangan yoki quritilgan mevalar, sabzavotlar (shu jumladan kartoshka) va qo'ziqorinlar; qayta ishlangan mevalar, sabzavotlar (shu jumladan pomidor) va qo'ziqorinlar
21	Ekstra jem, ekstra jele va kashtan pyuresi
22	Baliq, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar, go'sht, parranda va yovvoyi qushlar go'shti, shuningdek ulardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, tarkibida ushbu masalliqlar mavjud bo'lgan tayyor taomlar bundan mustasno
23	Kakao mahsulotlari va shokoladli mahsulotlardagi shokolad tarkibiy qismlari
24	Qovurilgan qahva, choy, giyohlar va mevalar, tsikoriy qaynatmalari; choy, giyohlar va mevalar, tsikoriy ekstraktlari; choy, giyohlar va mevalarning qaynatmalari, qaynatma uchun yormalar, shuningdek, ushbu mahsulotlarning (tayyor) aralashmalari
25	Tuz, tuz o'rnini bosuvchi moddalar, ziravorlar va ziravor aralashmalari
26	Sharob
27	Alkogolli ichimliklar, ivitish va distillash yo'li bilan olinadigan alkogolli ichimliklar, shuningdek London Jini, Sambuka, Maraskino va Mistra
28	Sangriya, Clarea, Zurra
29	Sharob sirkasi
30	Bolalar ozuqatlari, shu jumladan emizikli bolalar va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlardagi oziq-ovqat mahsulotlari
31	Asal
32	Solod va soloddan tayyorlangan mahsulotlari

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
6-ilova

Oziq-ovqat mahsulotlarining yorlig‘ida qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat bo‘yoqlari ro‘yxati

Quyidagi oziq-ovqat bo‘yoqlaridan bir yoki bir nechtasini o‘z ichiga olgan mahsulotlar	Ma’lumot (*)
Sariq shafaq (E 110)	“rang(lar)ning nomi yoki E raqami”: bolalarning faolligi va diqqat-e’tiboriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
Xinolin sariq (E 104)	
Karmuazin (E 122)	
Allura qizil (E 129)	
Tartrazin (E 102)	
Ponso 4R (E 124)	
<p>(*) <i>Istisno:</i></p> <p>(a) ko‘rsatilgan bo‘yoqlar go‘sht mahsulotlariga tamg‘alash belgilari, shtamplar yoki boshqa belgilar qo‘yish yoki tuxum po‘stlog‘ini shtamplash yoki bezakli rang berish uchun qo‘llanilganda; va</p> <p>b) ko‘rsatilgan bo‘yoqlar hajmi bo‘yicha tarkibida 1,2% dan ortiq alkogol bo‘lgan ichimliklarda qo‘llanilganda.</p>	

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda tamg‘alashga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____ -son SanQvaN)ga
7-ilova

Ishlab chiquvchilar ro‘yxati:

- Shukurov A.N.** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining JST masalalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, t.f.n.;
- Elinskaya O.L.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi toksikologiya bo'limi mudiri, Sog'liqni saqlash vazirligining toksikologiya bo'yicha bosh mutaxassisi, t. f. d., k.i.kh.
- Ermatov N.J.** Toshkent tibbiyot akademiyasi, Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasida professori, t.f.d., professor;
- Taqrizchilar ro‘yxati:**
- Ismailov A.D.** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining bosh mutaxassisi, Sog'liqni saqlash vazirligining ovqatlanish gigiyenasi bo'yicha bosh mutaxassisi, t.f.n.;
- Anvarova L.U.** Sog‘liqni saqlash vazirligi sanitariya-epidemiologiya xizmatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, t.f.d., professor
- Alimuxamedov D.Sh.** Toshkent tibbiyot akademiyasi, Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasida dotsenti, t.f.d., dotsent.